



Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2025, № 5

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'xyatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'apor QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV
Karimova ZULFIZAR

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Ziyo ko'chasi,
5-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **X.J.Xudayqulov, Sh.K.Maxmudov**
Talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda rahbarning hokimiyatshunoslik ilmi ga oid egallash lozim bo'lgan kompetensiyalarini rivojlantirish
- 7 **R.B.Yarmatov**
Uzluksiz ta'limda rahbarning emotsional intellektini rivojlantirish usullari
- 13 **A.A.Raxmonov**
Sport menajmenti: jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlash muammolari hamda ularning istiqbollari
- 19 **D.I.Mamurova**
Chizmachilik fanidan uzluksiz ta'limni tashkil qilishda grafikaviy dasturlarni qo'llash metodikasini takomillashtirish
- 24 **F.I.Ochilov**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning tarbiy-ilmiy tafakkurrini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari
- 29 **N.O.Aliyarova**
Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi
- 36 **Sh.T.Yakubjonova**
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida ekologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish ko'nikmasini shakllantirish
- 40 **U.B.Saparova**
O'quvchilarning resurslardan umumli foydalanish ko'nikmalarini ta'lim klasterida ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari
- 45 **N.S.Alimova**
O'quvchilarda jismoniy tarbiyaga qiziqishni shakllantirish metodikasi
- 50 **P.X.Djuraev, Z.Karimova**
Влияние современных средств массовой информации на социализацию детей и подростков
- 56 **M.M.Komulova**
Формирование индивидуальных групп для обучения русскому языку в военно-академических лицеях

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 62 **Sh.U.Temirov**
Ta'lim tizimida aralash ta'lim elektron resurslaridan mustaqil ta'limda foydalanish modeli

MA'NAVIY TARBIYA

- 67 **J.O.Tolipova**
Pedagogik jarayon va tenssiyalarni rejalashtirishni modellashtirish
- 73 **A.J.Kamalov**
Ma'rifatli jamiyatda «O'qituvchi obro'sini oshirish» jarayonining modeli
- 77 **Di.K.Fazilov**
Bolani ilk yoshdan boshlab tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyaga o'rgatishda oilaviy qadriyatlarining o'rni
- 81 **N.X.Eshankulova**
Talabalarda boshqaruv va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish omili – startup loyihalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash
- 86 **F.Yu.Abduraximova**
O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim olishi va sohadagi muammolarning innovatsion yechimlari
- 92 **S.B.Karimov**
O'rta Osiyo musiqa madaniyati: ilk renessans davrida ijrochili san'atning shakllanishi va rivoji
- 97 **I.F.Gayruenko**
Важность изучения идейно-эстетических направлений композиторского творчества в системе непрерывного музыкального образования

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 101 **Sh.I.Jabbarova**
O'quvchilarni tabiiyati o'rganish asosida tadqiqot ishlariga yo'naltirish

CHET TILLARINI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

- 106 **Z.Karimova**
Использование системы проблемных методов обучения при изучении иностранных языков



TALABALARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA RAXBARNING HOKIMIYATSHUNOSLIK ILMIGA OID EGALLASHI LOZIM BO'LGAN KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

X.J.XUDAYQULOV,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU

«Pedagogik ta'lim» kafedrası professori, p.f.d.,

Xalqaro pedagogik ta'lim fanlar akademiyasining akademigi

SH.K.MAXMUDOV,

Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogika milliy instituti

erkin tadqiqotchi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti magistratura boshlig'i

Ushbu maqolada hokimiyatni boshqarishga oid ilmiy ma'lumotlarni o'rganish orqali, bo'lajak raxbarning o'ziga xos fazilatlari va boshqaruv mahorati haqida so'z yuritiladi. Bu borada odil va oqil hokimiyatning boshqaruv sohasida egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish haqida muallifo'z fikrlarini ochib berishga harakat qilingan. Istalgan ijtimoiy-siyosiy ta'limotda xokimiyat muammosi va uni amalga oshirish mexanizmlari asosiy o'rinni egallab kelgan va munozarali muammolardan biri xisoblanadi.

Kalit so'zlar: Hokimiyat, boshqaruv, raxbarlik fazilatlari, odil va oqil boshqaruv mexanizmlari, raxbarlik kompetensiyalari, xokimiyatni boshqaruvida amaliy vositalar; uslublariga e'tibor karatish, hozirgi demokratik jamiyat, uning turli shakllari.

В данной статье рассматриваются специфические качества и управленческие навыки будущего лидера на основе изучения научных данных об управлении властью. В связи с этим автор пытается раскрыть свои мысли о развитии компетенций, которыми должно обладать справедливое и мудрое правительство в сфере управления. В любой социально-политической теории проблема власти и механизмов ее осуществления считается одной из основных и дискуссионных.

Ключевые слова: Власть, управление, качества лидера, справедливые и разумные механизмы управления, компетенции лидера, практический инструментарий в управлении властью, фокус на методах, современное демократическое общество, его различные формы.

This article discusses the specific qualities and management skills of a future leader by studying scientific data on the management of power. In this regard, the author attempts to reveal his thoughts on the development of competencies that a just and wise government should possess in the field of management. In any socio-political theory, the problem of power and the mechanisms of its implementation are considered one of the main and controversial problems.



Key words: Power, management, qualities of leadership, fair and intelligent management mechanisms, leadership competencies, practical tools in the management of power, focus on methods, modern democratic society, its various forms.

Bugungi hayot murakkab, ammo inson doimo yaxshi niyat bilan yashar ekan, o'z faoliyatida boshqaruvni orzu qilib yashashbarchaga xos fazilatdir. Unga erishish va boshqarish juda murakkab jarayondir. Ushbu maqolaning boshqaruv faoliyatida egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar va raxbarlikning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalar ekanmiz, eng avvallo hayotda rahbarning o'ziga xos xususiyatlari borligi, hamda unga amal qilish og'ir faoliyat hisoblanadi. Rahbar bo'lish mumkin, ammo rahbarlik qilish qanchalik qiyin ekanligini boshidan o'tkazganlar yaxshi bilishadi desak haqiqatga yaqin bo'ladi.

Buyuk mutafakkirlar tomonidan bizga qoldirgan dono fikrlari va pandu-nasihatlari asosida, xususan rahbarlik ishlariga endigina tayinlangan, binobarin hali bu sohada zarur tajriba, malakaga va ko'nikmaga ega bo'lmagan yoshlarimizni ana shu g'oyalarning ayrimlari bilan tanishtirish, rahbar va rahbarlik bobida ular qanday masalalarga etibor qilishi zarurligini yana bir sidra habardor qilish o'rinli bo'ladi, – degan umid bilan, talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda rahbarning hokimiyatshunoslik ilmiga oid egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish haqida ma'lumotlarni tahlil etishga harakat qilamiz. Bugungi siyosiy falsafada «xokimiyat» tushunchasi taxlili va talqiniga oid turli nazariy-uslubiy yondashuvlar mavjud. «Hokimiyat» – tushunchasi xalkaro, milliy yoki maxalliy munosabatlarni tadqiq qilishda xam keng ko'llaniladi. Ulardan eng muxtasari: hokimiyat ikki tomonlama, assimetrik, subyeckt va obyektlar o'zaro munosabatida hokimiyat egasining ustunligi tarzida ro'y beruvchi jarayondir. Ob'ektning bo'ysunishsiz hokimiyatning bo'lishi mumkin emas. Ko'plab mualliflar hokimiyat munosabatlari siyosiy munosabatlarning asosi bo'lmasada, lekin muxim xususiyatlarini aniklab beruvchi manba deb tushunishadi. Jamiyatdagi siyosiy tuzumlar o'rtasidagi fark, birinchi navbatda, kishilar, guruxlar va boshka ijtimoiy birliklar o'rtasida hokimiyatning taksimlanishidagi fark sifatida kabul kilinadi. Hokimiyat konsentratsiyalashgan (saralangan, gyruх ko'lida to'plangan) yoki diffuzion (tarqoq, aralash) bo'lishi, kishilar, stratoslar, tabaqalap, etnik, irqiy yoki diniy guruxlar uning tashuvchilari bo'lishi ta'kidlanadi, hokimiyat kattga yoki kichik bo'lishi xam mumkin.

Hokimiyat turlari tor va keng ma'noda uning tarkibiga kiruvchi yo'nalish yoki bo'linmalardan iborat. Hokimiyat turlarini tasniflash ychun turli asoslar e'tiborga olinadi:

- 1) jamiyat xayotining asosiy soxalari bo'yicha – iktisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, davlat, jamoat;
- 2) hokimiyatlarning belgilangan maksadlari bo'yicha – konun chikaruvchi,



ijroiya, sud;

3) hokimiyat tuzilmasidagi joylashuvi bo'yicha – markaziy, mintakaviy, maxalliy, respublika, viloyat, okrug va xokazo;

4) tashuvchilari bo'yicha – monarxik, prezidentlik, shaxsiy, oilaviy va boshkalar;

5) hokimiyatning manbai bo'yicha – monarxik, xalk, milliy va hakozi;

6) aniq subyektning hokimiyat ustida turishining davomiyligi, muddati va davri bo'yicha;

7) guruhlar, odamlar kontingenti kategoriyalarni o'z ta'siri bilan kamrab olishi bo'yicha (davlat, xarbiy va boshk.);

8) o'z hokimiyati ostidagilarga kuchini o'tkaza olishi bo'yicha va hakozi. Bu asoslar hamisha boshqaruvda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hokimiyatning siyosiy realizm deb ataladigan mumtoz tushunchasi sxolastika (akidaparastlik) tarafdorlarining xudo xakidagi tushunchasiga o'xshash, ya'ni bir vaktning o'zida shu sifatda siyosiy xarakatning oliy maksadi namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, hokimiyatga moddiy farovonlik sifatida qaraladi, demak u ko'lga kiritilishi, yo'kolishi yoki kamayishi mumkin; u «siyosat pullari» sifatida xam tavsiflanadi. Shu tarzda u «taroziga solib» o'lchanadigan mikdoriy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Agar hokimiyat nomunosib bo'lingan bo'lsa, uning kislmlari bir-birini to'ldirishi mumkin. Bunda bir tomonning hokimiyatiga muayyan shaxs bir o'zi keladi, ayni vaktida ikkinchi tomonning hokimiyati e'tiborsiz koladi. Bu xolat dastlabki shart-sharoitga bog'lik, ya'ni hokimiyat potensial (imkoniyatli, asosiy) ixtilof maydonida mavjud bir tomonlama munosabatda sababdan (hokimiyat) xarakatga (zaif tomon xatti-xarakatining majburiy o'zgartirilishi) tomon namoyon bo'ladi. Shu tarzda hokimiyatning taxlili uning anik tuzilmasini oydinlashtirishga olib kelishi mumkin.

Bu yondashuv «hokimiyat» tushunchasining muayyan kismiga e'tibor beradi. Bu tushunchaning o'zi hokimiyatning egalik nazariyasi nuktai nazaridan, e'tibordan qoladi, insonning boshkalar bilan birlashish, ular bilan kelishilgan xolda xarakatkilish kobilyatini ifodalaydi. Hokimiyatni xech qachon bir kishi tasarruf etmaydi, u muayyan guruxga tegishli bo'ladi. Agar biz biror shaxs xaqida «u hokimiyatga ega» deb gapirsak, bu kishi amalda muayyan gurux nomidan xarakat kilish vakolatiga ega ekanligini bildiradi. Agar unga hokimiyatni bergan gurux tarqab ketsa, u holda «uning hokimiyati» xam tarkab ketadi.

Biz bu o'rinda siyosiy realizmning fundamental tankidi uchun sabablar topa olamizmi?

Birinchi xolatda hokimiyat egasi unga ega, xokimiyat uning mulki xisoblanadi, ya'ni hokimiyat tizimni yaratib, tegishli ravishda uni saklaydi.



Ikkinchi xolamda Hokimiyat egasi gurux tomonidan berilgan vakolatlar muddati va ijtimoiy tizim tuzilmasiga karamdek tuyuladi. Bunday holatlar raxbarni turli imkoniyatlarini cheklanib mustaqil fikr bilan ishlashni talab etadi. Bu esa talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda raxbarning hokimiyatshunoslik ilmiga oid egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega deyiladi bugungi yurtboshimiz so'zlarida.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda raxbarning hokimiyatshunoslik ilmiga oid egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishda har qanday boshqaruv tizimining omilkorligi ushbu jamoada yuz beradigan noxush, kutilmagan voqealarning naqadar oldindan oldi olinganligi bilan belgilanadi. Jamoada guruhbozlik, fisqu- fasod va boshqa noxush yumushlar bilan shug'ullanuvchi kishilarning paydo bo'lishi jamoa uchun qimmatga tushadi. Shuning uchun ham Amir Temur janoblari o'z «Tuzuk» larida shunday deb yozib qoldirgan: «Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 488 b.
2. Sh.M.Mirziyoev xalq ta'limi tizimini rivojlantirish pedagogning malakasini va jamiyatda nufuzini oshirish yosh avlod manaviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan nutqi. -T.: 2019 23 avgust «Novosti Uzbekistana». Gazeta UZ.
3. Alijon Karimjonov. «Pedagogik tizimni boshqarish». Toshkent-2008, Nizomiy nomidagi TDPU. - B 176.
4. R. X. Djuraev va S.T.Turg'unov. «Ta'lim menejmenti» -T.: Voris Nashriyot. 2006.
5. Vesnin V.R. Menedjment v sxemax i opredeleniyax. Uchebnoe posobie. - M.
7. Xudayqulov X.J. Boshqaruvda raxbarlik madaniyati. -T.: Innovatsiya-Ziyo. 2022y.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA RAHBARNING EMOTSIONAL INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

R.B. YARMATOV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Mazkur maqolada boshqaruv va liderlik faoliyatida emotsional intellektning (EI) o' rni tahlil qilinadi. Emotsional intellekt rahbarlarning jamoa bilan samarali muloqot qilishi, qaror qabul qilishda hissiy barqarorlikni saqlashi, konfliktli vaziyatlarni ijobiy hal etishi hamda motivatsion muhitni shakllantirishi uchun muhim omil sifatida qaraladi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimida rahbarlarning emotsional intellektini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Maqolada G'arb va O'zbekiston tajribasi asosida tahlillar keltirilib, EI ning rahbarlikdagi ahamiyati amaliy misollar va ilmiy manbalar orqali asoslab beriladi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim doirasida rahbarlarning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar va samarali usullar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, uzluksiz ta'lim, rahbarlik, liderlik, boshqaruv, konfliktni boshqarish, muloqot, hissiy barqarorlik.

This article analyzes the role of emotional intelligence (EI) in management and leadership activities. Emotional intelligence is considered a key factor that enables leaders to communicate effectively with their teams, maintain emotional stability in decision-making, resolve conflicts positively, and foster a motivating environment. In particular, the development of leaders' emotional intelligence within the system of lifelong learning is recognized as a pressing issue. The article presents analyses based on the experiences of both Western countries and Uzbekistan, substantiating the relevance of EI in leadership through practical examples and scholarly sources. Additionally, methodological approaches and effective strategies aimed at developing emotional intelligence in educational leaders within the framework of lifelong learning are examined.

Key words: Emotional intelligence, Lifelong Learning, leadership, management, communication, conflict resolution, emotional stability.

В статье рассматривается роль эмоционального интеллекта (ЭИ) в управлении и лидерстве. ЭИ рассматривается как ключевой фактор для эффективно-го общения руководителей, эмоциональной устойчивости при принятии решений, конструктивного разрешения конфликтов и создания мотивационной среды. На основе западного и узбекского опыта приводится аналитический обзор с примерами и научными источниками, подтверждающими значимость ЭИ в лидерской деятельности.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, лидерство, управление, коммуникация, разрешение конфликтов, эмоциональная устойчивость.



So'nggi yillarda emotsional intellekt (EI) tushunchasi boshqaruv psixologiyasi va liderlik nazariyalarida eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Global raqobat kuchaygan, o'zgaruvchan va murakkab tashkilot muhitida rahbarlardan faqatgina texnik ko'nikmalar emas, balki kuchli ijtimoiy va hissiy kompetensiyalar talab qilinmoqda. Bu holat rahbarlik samaradorligining yangi omillarini izlash zaruratini tug'dirdi va aynan shunday sharoitda EI tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Daniel Goleman (1998) tomonidan ommalashtirilgan ushbu kontseptsiya rahbarning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsional holatini to'g'ri baholash va ularga munosib tarzda javob bera olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi [1]. Goleman EI ni beshta asosiy komponentga ajratadi: o'zini anglash (self-awareness), o'zini boshqarish (self-regulation), ichki motivatsiya (internal motivation), empatiya (empathy) va ijtimoiy ko'nikmalar (social skills). Aynan shu kompetensiyalar liderga jamoada ishonch, barqarorlik, va yuqori motivatsiyani yaratishga yordam beradi.

Emotsional intellektning ahamiyati shundaki, rahbarlik faqat buyruq berish yoki topshiriqlarni taqsimlashdan iborat emas. Bugungi zamonaviy rahbar – bu bir vaqtning o'zida strateg, ilhomlantiruvchi, murosali muzokarachi va murakkab ijtimoiy muhitda muvozanatni saqlovchi shaxsdir. EI yuqori bo'lgan rahbarlar ishchi guruhlar bilan samarali muloqot olib boradi, konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qiladi va muammoli vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlab qoladi. Masalan, Korn Ferry instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda EI darajasi yuqori bo'lgan rahbarlar, tashkilotlarda yuqori xodim barqarorligi, past stress darajasi va ortgan mahsuldorlik bilan bog'liq ekanligi aniqlangan [2, b-45-49]. Shu jihatdan qaraganda, EI shunchaki shaxsiy xususiyat emas, balki strategik liderlik resursidir. Ayniqsa, inson resurslariga asoslangan sohalarda (ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi) EI rahbarlik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Birinchi navbatda, EI yuqori bo'lgan rahbarlar samarali muloqot olib borish ko'nikmasiga ega. Ular o'z fikrlarini aniq, ochiq va samimiy tarzda ifodalaydi, xodimlarning hissiy holatini to'g'ri anglaydi, bu esa o'zaro ishonch va ochiqlikni mustahkamlaydi. Masalan, Toirova (2022) tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada EI ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan rahbarlarning jamoaviy muhitda ishonch va ochiqlikni ta'minlaganligi aniqlangan [2, b-45-49]. Bunday rahbarlar o'z xodimlarini tushunishga va ular bilan samarali muloqot o'rnatishga qodir bo'ladi, bu esa tashkilot ichidagi ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga yordam beradi.



Ikkinchi jihat, EI rahbarlarning konfliktlarni boshqarish qobiliyati bilan bog'liq. Goleman (1998) ta'kidlaganidek, emotsional intellekti rivojlangan rahbarlar konfliktlarni hal qilishda agressiv yoki zo'rovonlikka yo'l qo'ymaydilar, balki empatiya asosida muammolarni hal etadilar. Ular o'zlarining hissiyotlarini nazorat qila olishadi va boshqalar bilan konstruktiv muloqotga kirishishga intiladilar. Bu rahbarlarning rahbarlik qobiliyatlarini yuqori baholashga yordam beradi, chunki ular jamoada tinchlikni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muvaffaqiyat qozonadilar.

Shuningdek, EI rahbarlarga xodimlarni individual yondashuv asosida motivatsiya berish imkonini ham yaratadi. Rahbarlar o'z xodimlarining ehtiyojlarini, motivatsiya manbalarini va shaxsiy xususiyatlarini tushunib, ularga mos ravishda rag'batlantirishni amalga oshiradilar. Korn Ferry instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, mentorlik dasturlarida ishtirok etgan rahbarlar ish samaradorligini 25% ga oshirishganini ko'rsatadi [3]. Mentorlik va coaching metodikalari rahbarlarga o'z xodimlarini rivojlantirishda va ularga o'zgarishlarga qarshi moslashishda yordam beradi. Xalqaro tajriba EI ning rahbarlikdagi ahamiyatini ko'rsatadigan yana bir misolni taklif qiladi. Goleman (1998) va Bradberry & Greaves (2009) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt liderlik samaradorligining 80-85 foizini tashkil qiladi [1][4]. Bunday rahbarlar jamoa ichidagi munosabatlarni yaxshilash, yuqori motivatsiyani yaratish va stressli vaziyatlarda qaror qabul qilishda yuqori natijalarga erishadilar. IBM kompaniyasida o'tkazilgan tadqiqotda esa, EI yuqori bo'lgan rahbarlar boshqaruvidagi jamoalar 15% ga yuqori rentabellik ko'rsatgan [5]. Bu shuni anglatadiki, EI yuqori rahbarlar jamoalarga ko'proq samaradorlik va yuqori natijalarni ta'minlaydilar.

O'zbekistonda ham EI ning ahamiyati yuksalmoqda. Ayniqsa, IT va ta'lim sohalarida emotsional intellektni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimova (2023) tomonidan Toshkentdagi bir necha maktablarda o'tkazilgan eksperimentlar natijasida, EI treninglari o'tkazilgan o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlari 20% ga yaxshilanganligi kuzatilgan [6,b-23-27]. Bu natijalar, EI ning nafaqat rahbarlar, balki keng jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. EI treninglari nafaqat rahbarlarga, balki butun jamoalarga foyda keltiradi, chunki ularning ijtimoiy va hissiy kompetensiyalarini oshirish orqali tashkilotda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, O'zbekistonda EI ning rahbarlik va tashkilot



boshqaruvidagi ahamiyatini anglash va rivojlantirish uchun treninglar, ko'nikmalarni mustahkamlash dasturlari va mentorlik tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Bu yondashuvlar rahbarlar va xodimlarga ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish, jamoaviy ishda samaradorlikni oshirish va tashkilot-dagi barqarorlikni saqlash imkonini yaratadi.

Emotsional intellektni rivojlantirish va uni boshqaruv jarayonlarida samarali qo'llash uchun bir nechta amaliy yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlar uzluksiz ta'lim tizimida rahbarning emotsional qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va uni samarali ishlatishga yordam beradi. Ularning eng mashhurlari orasida 360-darajali baholash, coaching va mentoring, shuningdek, rolli o'yinlar va simulyatsiyalar mavjud.

360-darajali baholash – bu rahbarning emotsional qobiliyatlarini turli manbalardan, ya'ni atrofidagi hamkasblar, bo'ysunuvchilar va rahbarlardan olingan fikrlar asosida baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu metod rahbarning o'z emotsional holatini va boshqalar bilan munosabatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. 360-darajali baholash jarayonida rahbar o'zini anglash va rivojlanish sohasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu metod yordamida rahbarlarning kuchli tomonlarini aniqlash va ularni rivojlantirish bo'yicha konkret strategiyalar ishlab chiqish mumkin [7, b-19-24]. Coaching va mentoring metodlari shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy ko'nikmalarni oshirish uchun muhim vositalardan biridir. Xususan, coaching orqali rahbarlar o'zlarining ichki resurslarini ochib, qiyin vaziyatlarda qanday yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar. Bunda, coaching va mentoringning ahamiyati shundaki, ular rahbarni o'z rivojlanishida qo'llab-quvvatlaydi va murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi. Xusan, Xasanova (2023) o'z tadqiqotida mentorlik tizimining rahbarlarning ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muhim rolini ta'kidlagan [8]. Bu metodlar rahbarlarga nafaqat shaxsiy malakalarini oshirishda, balki jamoa bilan samarali ishlashda ham yordam beradi.

Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar – bu metodlar rahbarlarga murakkab vaziyatlar va stressli holatlarda o'z hissiy reaksiyalarini boshqarishni o'rgatadi. Ushbu yondashuvlar rahbarlarga o'z hissiyotlarini aniqlash va boshqarish, shuningdek, ijtimoiy muhitdagi harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar, shuningdek, rahbarlarga o'z atrofidagilarning hissiy holatini tushunishda va ularga to'g'ri javob berishda yordam beradi. Ular jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga va konfliktlarni samarali



hal qilishga imkon beradi [9.b-56-62].

Emotsional intellekt bugungi kunda samarali rahbarlikning ajralmas qismi bo'lib qolgan. Boshqaruvda faqat texnik yoki strategik bilimlar bilan cheklanib qolish yetarli emas – rahbarning hissiy va ijtimoiy ongini rivojlantirish, uni boshqaruv jarayonlarida qo'llash tashkilotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Hissiy barqarorlik, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar rahbarlarga murakkab ijtimoiy vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu o'zgarishlar tashkilotdagi muhitni yaxshilaydi, xodimlarni motivatsiya qiladi va umumiy ish faoliyatini oshiradi. O'zbekiston tajribasida ham EI (emotsional intellekt) treninglari va metodikalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Emotsional intellekt (EI) rahbarlik va boshqaruv sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiya sifatida ajralib turadi. Emotsional intellektning rivojlanishi rahbarlarga nafaqat o'z hissiyotlarini boshqarish, balki boshqalar bilan samarali muloqot qilish, jamoa a'zolarining ehtiyojlarini tushunish va ularni rag'batlantirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, jamoaning motivatsiyasini oshiradi, stressni kamaytiradi va konfliktlarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro va milliy tajriba shuni ko'rsatadiki, EI rahbarlik samaradorligining yuqori darajaga ko'tarilishiga hissa qo'shadi. Goleman (1998) tomonidan ta'kidlanganidek, rahbarlarning emotsional va ijtimoiy qobiliyatlari boshqaruvda muvaffaqiyatga erishish uchun ajralmas ahamiyatga ega. Shu bilan birga, O'zbekistonda ham EI ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va ko'plab sohalar, xususan, ta'lim va IT sohalarida bu metodlar muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda. Kelajakdagi ta'lim tizimida rahbarlarning emotsional intellektini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajribalardan foydalanish, milliy ta'lim boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. 360-darajali baholash, coaching, mentoring, rolli o'yinlar kabi metodlarni kengaytirish rahbarlarning pedagogik-psixologik kompetensiyalarini yanada kuchaytiradi, bu esa ta'lim tashkilotida barqaror va samarali boshqaruvni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimida rahbarlarning emotsional intellektini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish hamda inson kapitalini rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi emotsional intellektga ega rahbarlar jamoa bilan muloqotda ochiqlik, empatiya va barqarorlikni namoyon etadi, bu esa ularning yetakchilik samaradorligini oshiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goleman, D. (1998). Working with Emotional Intelligence. Bantam Books.
2. Toirova, D. (2022). Rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasi. O‘zDJTU Ilmiy jurnali, №4, 45-49.
3. Korn Ferry Institute (2021). The Power of Mentorship in Leadership Development. www.kornferry.com
4. Bradberry, T., & Greaves, J. (2009). Emotional Intelligence 2.0. TalentSmart.
5. Harvard Business Review. (2015). What Makes a Leader? hbr.org
6. Olimova, S. (2023). Maktabda emotsional intellektni rivojlantirish. Pedagogika va Psixologiya, №1, 23-27.
7. Sadullaev, A. (2021). Boshqaruvda emotsional intellekt baholash tizimlari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №5, 19-24.
8. Xasanova, M. (2023). Mentorlik tizimi va rahbarlar rivoji. Ijtimoiy Fanning Ilmiy Asoslari, №2, 31-35.
9. Kabat-Zinn, J. (2003). Mindfulness-Based Leadership. Journal of Organizational Psychology, 14(3), 56-62.



SPORT MENEJMENTI: JISMONIY TARBIIYA VA SPORT SOHASI UCHUN BOSHQARUV KADRLARINI TAYYORLASH MUAMMOLARI HAMDA ULARNING ISTIQBOLLARI

A.A.RAXMONOV,

Alfraganus universiteti dosenti

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida sport menejmenti tizimining rivojlanishida kuzatilayotgan dolzarb muammolar tahlil etiladi. Tadqiqotda jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy menejment tamoyillarini joriy etish hamda sohani raqamlashtirish zaruriyati asoslab beriladi. Maqolada bir qator takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali tijorat va ijtimoiy yo'nalishdagi sport xizmatlarini uyg'unlashtirgan boshqaruv modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *sport menejmenti, kadrlar siyosati, raqamli boshqaruv, kasbiy yo'naltirish, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, davlat-xususiy sheriklik.*

This scientific article analyzes the current problems observed in the development of the sports management system in the Republic of Uzbekistan. The study substantiates the need to improve the system of training management personnel in the field of physical education and sports, introduce modern management principles, and digitize the sector. The article puts forward a number of proposals. It also proposes a management model that combines commercial and social sports services by strengthening cooperation between the public and private sectors.

Key words: *sports management, personnel policy, digital management, career guidance, physical education and sports organizations, public-private partnership.*

В данной научной статье анализируются актуальные проблемы развития системы спортивного менеджмента в Республике Узбекистан. В исследовании обосновывается необходимость совершенствования системы подготовки управленческих кадров в сфере физической культуры и спорта, внедрения современных принципов управления и цифровизации отрасли. В статье выдвигается ряд предложений, а также предлагается модель управления, сочетающая коммерческие и социальные спортивные услуги на основе укрепления сотрудничества государственного и частного секторов.

Ключевые слова: *спортивный менеджмент, кадровая политика, цифровое управление, профориентация, организации физической культуры и спорта, государственно-частное партнерство.*

Zamonaviy bosqichda O'zbekiston sharoitida jismoniy madaniyat va sport tizimini samarali boshqarish uchun ko'p tarmoqli (multyiprofessional) menejerlar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ular, bir tomondan, strategik menejment, inson resurslarini boshqarish, yetakchilik, tashkiliy madaniyat, samaradorlikni



oshirish kabi zamonaviy boshqaruv tamoyillarini egallashi lozim. Boshqa tomondan esa, sog'liqni saqlash, ta'lim, davlat boshqaruvi, moliya, sanoat va ijtimoiy himoya kabi boshqa tarmoqlarda qo'llaniladigan boshqaruv tajribalari va nazariyalarini sport sohasi sharoitiga moslashtirib tatbiq etish kerak.

Menejment fanining mohiyati sport kabi o'ziga xos va murakkab sohada ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi [1]. Zamonaviy sport menejeri nafaqat sport turlari bo'yicha so'nggi yangiliklardan, balki sport va jismoniy tarbiya tizimining rivojlanishi, moliyalashtirilishi, boshqarilishi hamda ommalashtirilishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardan ham xabardor bo'lishi lozim. Menejer faoliyat yuritayotgan darajaga – davlat, viloyat, tuman yoki muassasa miqyosiga – qarab, u milliy, mintaqaviy va xalqaro sport boshqaruvi yo'nalishlaridagi asosiy strategik kun tartiblarini chuqur bilishi talab etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi menejerlarining asosiy vazifasi – boshqaruvning qaysi darajasida faoliyat yuritishidan qat'i nazar (davlat, hududiy yoki muassasa miqyosida) – puxta o'ylangan, asosli va samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Buning uchun, eng avvalo, soha xodimlarini tayyor-lashning mukammal tizimi zarur bo'lib, u zamonaviy sport menejeriga xos bo'lishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni aniq belgilab berishi kerak. Bunday kompetensiyalar qatoriga strategik fikrlash, tahliliy yondashuv, kommunikativ va tashkiliy ko'nikmalar, inson resurslarini boshqarish, moliyaviy mas'uliyat va sport faoliyatining ijtimoiy samaradorligini ta'minlash kiradi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda milliy model asosida isloh qilinayotgani bois, sport menejerlarini tayyorlash jarayoni ham uzoq muddatli, tizimli boshqaruv qarorlarini talab etmoqda. Xususan, Bolonya tizimidan bosqichma-bosqich voz kechish, ta'limning milliy modellarini kuchaytirish, sport menejmenti bo'yicha magistratura va doktorantura dasturlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, shuningdek, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv texnologiyalarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Natijada, O'zbekiston sharoitida jismoniy tarbiya va sport sohasini samarali boshqarish uchun chuqur bilim, innovatsion fikrlash, strategik boshqaruv ko'nikmalariga ega, milliy qadriyatlar va zamonaviy global tendensiyalarni uyg'unlashtira oladigan sport menejerlarini tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim.

Birinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini aniq belgilab beruvchi va doimiy ravishda yangilanib boruvchi me'yoriy talablarni ishlab chiqish zarur.



Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham sport menejmenti tizimini rivojlantirish jarayonida soha rahbarlari va mutaxassislarining kasbiy malakasini aniqlovchi yagona professional standartlarning mavjud emasligi ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Rossiya tajribasida bu borada Mehnat vazirligi tomonidan «Jismoniy madaniyat va sport sohasida faoliyat yurituvchi tashkilot rahbari (bo‘linma rahbari)» nomli professional standart ishlab chiqilgan bo‘lib [21], u soha rahbarlari uchun zarur bo‘lgan malaka darajalarini (6-, 7- va 8-darajalar) aniq belgilab beradi. Shu bilan birga, mazkur standart sport boshqaruvi tizimini rivojlantirish uchun me‘yoriy asos sifatida xizmat qiladi.

Ammo amaliyotda bunday standartlarning o‘zi yetarli emas. Chunki ular ko‘proq yo‘nalish beruvchi hujjat bo‘lib, aniq lavozimlar uchun zarur bo‘lgan malaka va kompetensiyalarni belgilash jarayonini tashkilotlarning o‘ziga qoldiradi. Natijada, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rahbarlari o‘z faoliyat yo‘nalishiga mos tarzda talablariga o‘zgartirish kiritadi, bu esa yagona yondashuvning yo‘qligiga olib keladi.

O‘zbekiston sharoitida ham sport boshqaruvi tizimini unifikatsiyalash va samarali tashkil etish uchun turli darajadagi (respublika, hududiy, tuman/shahar, muassasa) sport tashkilotlari rahbarlariga qo‘yiladigan malaka talablarini normativ-huquqiy jihatdan qat‘iy belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bunda kasbiy tayyorgarlik darajalari aniq mezonlar asosida belgilanib, rahbarlik lavozimlariga tayinlanadigan shaxslarning malaka va boshqaruv salohiyati davlat miqyosida baholanib borilishi zarur. Shuningdek, mavjud kasbiy standartlarni yanada takomillashtirish, ularning tarkibiga yuqori darajadagi malaka kompetensiyalarini ham kiritish maqsadga muvofiq. Bu daraja yirik sport tizimlari, jumladan, respublika miqyosidagi sport tashkilotlari, federatsiyalar, kompleks sport markazlari va vazirlik darajasidagi boshqaruv tizimlarini samarali boshqarish qobiliyatiga ega sport sohasidagi top-menejrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv O‘zbekiston sport tizimini milliy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh, professional boshqaruv tamoyillariga asoslangan hamda strategik fikrlashga ega kadrlar bilan ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, sport menejmenti sohasida kompetensiyaviy yondashuv, mehnat malakalarini davlat tomonidan tasdiqlash tizimi va boshqaruv pog‘onalari moslashtirilgan kasbiy standartlarni ishlab chiqish sohaning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasida menejrlarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni yagona (unifikatsiyalashgan) mezonlar asosida takomillashtirish zarur.



Hozirgi davrda O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sport boshqaruvi tizimiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois sport menejerlarini tayyorlash jarayonida raqamli menejment ko‘nikmalarini shakllantirish alohida e‘tibor talab etadi. Bo‘lajak sport menejerlari «Sport Management Platform», «Milliy sport ma‘lumotlar bazasi», «Yagona raqamli sport reyestri» kabi integratsion tizimlarda ishlash, raqamli hisobot yuritish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va elektron boshqaruv tamoyillarini amalda qo‘llashni bilishlari kerak.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda mahalliy hokimliklar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, sport menejerlarini tayyorlash uchun **davlat buyurtmasi (maqsadli kadrlar tayyorlash tizimi)**ni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir hududda sport infratuzilmasining rivojlanish darajasi, mavjud kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va yangi boshqaruv tizimlariga mos mutaxassislar tayyorlash ko‘rsatkichlari inobatga olinishi lozim.

Shuningdek, sport menejmenti yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalari o‘z o‘quv dasturlarini muntazam ravishda yangilab borishlari, mehnat bozori va sport tashkilotlari ehtiyojiga moslab, raqamli kompetensiyalar, loyiha boshqaruvi, innovatsion iqtisodiyot va sport marketingi bo‘yicha amaliy kurslarni joriy etishlari zarur.

Natijada, sport menejerlarini tayyorlash tizimi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirgan, raqamli iqtisodiyot talablariga moslashgan, xalqaro standartlarga yaqin, lekin milliy qadriyatlar asosida shakllangan ta‘lim modeli sifatida takomillashtiriladi.

Bugungi kunda sport menejmenti yo‘nalishiga iqtidorli va yetakchilik fazilatlariga ega abituriyentlarni jalb etish tasodifiy yoki individual tashabbuslar asosida amalga oshirilmoqda. Shu boisdan, kasbiy yo‘naltirish va tanlov tizimini joriy etish zarur. Bu tizim o‘quvchi va talabalar o‘rtasida sport boshqaruvi kasbiga nisbatan ongli qiziqish uyg‘otish, ularning shaxsiy qobiliyatlarini, tahliliy fikrlash darajasi, liderlik salohiyatini baholash va istiqbolli nomzodlarni aniqlash imkonini beradi. Bunday tizim sport menejmenti mutaxassisliklariga maqsadli abituriyentlar oqimini shakllantirishga xizmat qiladi, natijada kasb tanlash jarayoni ongli, motivatsiyaga asoslangan va istiqbollarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu mexanizm O‘zbekiston sport sohasida uzoq muddatli kadrlar siyosatini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

To‘rtinchidan, sport menejmenti yo‘nalishida oliy ta‘lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilarning mehnat bozoriga chiqishida barqaror kafolat tizimi



mavjud emas. Amalda, sport menejerlarining bandlik darajasi past bo‘lib, ko‘plab bitiruvchilar o‘z mutaxassisliklariga mos ish topishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Shu bilan birga, sport menejmenti yo‘nalishiga ajratiladigan davlat granti o‘rinlari soni ham cheklangan.

Sport menejeri – bu noyob, yuqori malakali kasb. Biroq, O‘zbekiston sharoitida bu soha bo‘yicha mutaxassislarning ish bilan ta‘minlanishi ko‘p hollarda shaxsiy aloqalar yoki sport faoliyatida ilgari ishtirok etgan shaxslarning afzalligi asosida amalga oshadi. Natijada, professional boshqaruv kompetensiyalariga ega yosh kadrlar mehnat jarayoniga to‘liq integratsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli, sport menejerlari uchun davlat kafolatli ishga joylashtirish mexanizmlari, xususan, hududiy sport tashkilotlari, federatsiyalar va byudjet muassasalari bilan maqsadli shartnomalar tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Beshinchidan, jismoniy tarbiya va sport tizimida boshqaruv kadrlarining uzluksizligi va merosxo‘rlik tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Ayni paytda rahbarlarning almashinuvi ko‘pincha tashabbusdan yuqori turuvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi. Nomzodlarni tanlashda ularning malaka darajasi, boshqaruv tajribasi yoki soha bo‘yicha tayyorgarligi emas, balki shaxsiy sadoqat va ma‘muriy yaqinlik mezonlari ustunlik qiladi. Bunday holat sport tizimining barqaror rivojlanishiga, innovatsion boshqaruv uslublarining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida rahbarlik lavozimlariga tayinlashda kompetensiya asosida tanlov tizimini joriy etish, rahbarlarning faoliyat muddati, natijalarga asoslangan baholash mezonlari va lavozimda qolishning obyektiv mezonlarini ishlab chiqish zarur. Bu tizim kadrlar almashinuvining adolatli, ochiq va natijadorlikka asoslangan shaklini yaratadi.

Oltinchidan, sport boshqaruvi tizimida mehnat mobilligini ta‘minlash masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Hozirda O‘zbekistonda boshqa hududlardan kelgan mutaxassislarning sport tizimida moslashuvi va ishga joylashuvini qo‘llab-quvvatlovchi tizim deyarli yo‘q. Bu holat iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, professional kadrlarning hududlararo harakatchanligini cheklab qo‘yadi.

Kelgusida sport boshqaruvi tizimida hududlararo kadr almashinuvi, adaptatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish zarur. Bu yondashuv sport menejerlarining tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytiradi, mintaqalar o‘rtasida boshqaruv salohiyatini tenglashtiradi hamda sport tizimining umumiy samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, O‘zbekiston sport menejmenti tizimining barqaror rivojlanishi uchun kasbiy yo‘naltirish, ishga joylashuv, kadrlar



merosxo‘rligi va mehnat mobilligi tizimlarini kompleks tarzda yo‘lga qo‘yish zarur. Bu tizimlar sport boshqaruvi tizimini inson kapitali asosida modernizatsiya qilish va professional menejerlar avlodini shakllantirish uchun strategik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport tizimida faoliyat yuritayotgan yangi avlod boshqaruv mutaxassislarini shakllantirish zarur. Bunday kadrlar zamonaviy sport boshqaruvi tizimiga tezkor ravishda moslasha oladigan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning o‘zgarishlariga mos strategik qarorlar qabul qila oladigan, yuqori darajadagi menejerlik kompetensiyalariga ega bo‘lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Никитушкин В.Г. Теория и методика спортивной подготовки. - Москва, 2018.
2. Филин В.П. Резервы физического воспитания. - Москва, 2005.
3. Набатникова М.Я. Физическая культура и спорт в системе образования. - Москва, 2009.
4. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты. - Москва, 2010.
5. Бернштейн Н.А. О построении движений. - Москва, 1991.
6. Родионов А.В. Менеджмент в физической культуре и спорте. - Санкт-Петербург, 2019.
7. Рогов Е.А. Основы управления спортивными организациями. - Москва, 2017.
8. Кувшинов С.Н. Кадровая политика в сфере спорта. - Казань, 2016.
9. Кудрявцев Т.В. Современные тенденции спортивного менеджмента. - Москва, 2021.



CHIZMACHILIK FANIDAN UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL QILISHDA GRAFIKAVIY DASTURLARNI QO'LLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

D.I.MAMUROVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti p.f.f.d.(PhD)

Mazkur maqolada chizmachilik fanidan uzluksiz ta'limni samarali tashkil qilishda kompyuter dasturlardan foydalanish metodikasining ahamiyati tahlil qilingan. Uzluksiz ta'lim jarayonida zamonaviy dasturiy vositalar orqali talabalarning texnik tafakkuri, loyihalash ko'nikmalari hamda kreativ yondashuvini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda mavjud metodik yondashuvlar; ta'lim texnologiyalari va CAD tizimlari imkoniyatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning amaliy natijalari asosida yangi metodik takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, CAD tizimlaridan foydalanish talabalarning chizmachilikdagi nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularning uzluksiz ishlash, ijodiy yondashish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Chizmachilik, uzluksiz ta'lim, CAD tizimlari, metodika, ta'lim texnologiyalari, texnik tafakkur, kompetensiya.*

В данной статье анализируется значение методики использования компьютерных программ в эффективной организации непрерывного образования по черчению. Освещены вопросы развития технического мышления, проектных навыков и творческого подхода студентов посредством современных программных средств в процессе непрерывного образования. В исследовании рассмотрены возможности существующих методических подходов, образовательных технологий и систем автоматизированного проектирования, а также на основе их практического применения разработаны новые методические предложения. Исследование показывает, что использование систем автоматизированного проектирования, наряду с укреплением теоретических знаний студентов по черчению, оказывает эффективное влияние на развитие их непрерывной трудовой деятельности, творческого подхода и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: *черчение, непрерывное образование, CAD, методология, образовательные технологии, техническое мышление, компетентность.*

This article analyzes the importance of the methodology of using computer programs in the effective organization of continuing education in drawing. The issues of developing students' technical thinking, design skills and creative approach through modern software tools in the process of continuing education are highlighted. The study examined the possibilities of existing methodological approaches, educational technologies and CAD systems, and new methodological proposals were developed based on their practical results. The study shows that the use of CAD systems, along with strengthening students' theoretical knowledge in drawing, has an effective impact on the development of their continuous work, creative approach and professional competencies.

Key words: *Drawing, continuing education, CAD systems, methodology, educational technologies, technical thinking, competence.*



Hozirgi davrda ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Uzluksiz ta'lim talabalarning o'z bilimlarini uzluksiz ravishda chuqurlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnik fanlarda, jumladan, chizmachilik fanida uzluksiz ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Chizmachilik fanini o'rganish talabadan aniq tafakkur, grafik savodxonlik va diqqatni talab qiladi. Ushbu fan amaliy mashg'ulotlarga boy bo'lib, uni o'zlashtirishda zamonaviy texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan grafikaviy dasturlari o'quv jarayonida keng qo'llanilmoqda.

Grafikaviy dasturlari yordamida talabalar ikki va uch o'lchamli modellar yaratish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ularning uzluksiz ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Uzluksiz ta'lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Bundan tashqari, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy chizmachilik darslari ko'pincha nazariy ko'nikmalarni beradi. Ammo zamonaviy talabalar amaliy ko'nikmalarga ko'proq e'tibor qaratishni taqozo etadi. Shu sababli uzluksiz ta'lim jarayonida grafikaviy dasturlarini qo'llash zarurati kuchaymoqda. Talabalarning o'zlarini uzluksiz ishlash jarayonida grafik topshiriqlarni bajarishni tezroq o'rganadilar. Grafikaviy dasturlari yordamida chizmalarni qayta ishlash va yangilash osonlashadi. [1]

An'anaviy metodlarga qaraganda, bu jarayon ko'proq vaqt tejaydi. Shu bilan birga, u talabalarning darsga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Chizmachilik fanida grafikaviy dasturlari orqali loyihalash ko'nikmalari shakllanadi. [2] Uzluksiz ta'lim jarayonida talaba o'z bilimini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning javobgarlik hissini oshiradi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim vositalaridan ham foydalanish mumkin. Bu metod o'quv jarayonini yanada moslashuvchan qiladi. Shu bilan birga, talabalarning individual qobiliyatlari ham rivojlanadi. Har bir talaba o'zining tezligi va uslubiga ko'ra topshiriqlarni bajaradi.

Uzluksiz ta'lim natijasida o'qitiladigan chizmachilik fani orqali ijodiy tafakkur kengayadi [9,10]. Talabalar o'z loyihalarini ishlab chiqishda uzluksiz qaror qabul qiladilar. Bu ularning shaxsiy tashabbusini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, chizmachilik fanida uzluksiz ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Uning samaradorligini oshirishda grafikaviy dasturlaridan foydalanish metodikasi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida AutoCAD, SolidWorks, Compass-3D kabi mashhur CAD tizimlari, chizmachilikka oid o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar va ilmiy maqolalar asosiy material sifatida foydalanildi. Shuningdek, oliy ta'lim



muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishda qo'llanilayotgan amaliy dasturlar, elektron resurslar va onlayn platformalar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta turdagi materiallardan foydalanildi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan standart dasturlar tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro miqyosdagi o'quv qo'llanmalar ham solishtirildi. AutoCAD dasturi tadqiqotda asosiy dasturiy vosita sifatida tanlandi. [3] Bundan tashqari, SolidWorks dasturi ham qo'llanildi. [4] Compass-3D dasturi yordamida 3D modellashtirish (1-rasm) jarayonlari o'rganildi.[5]

Dasturlar o'zaro solishtirilib, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlab chiqildi. Tajriba-sinov ishlari uchun talabalar jalb qilindi. Ularning grafik savodxonlik darajalari oldindan baholandi. Uzluksiz ta'lim jarayonida topshiriqlari uchun maxsus metodik ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Topshiriqlar oddiy chizmalardan murakkab 3D modellarigacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oldi. Elektron o'quv resurslari sifatida turli video darsliklardan foydalanildi. Onlayn ta'lim platformalari orqali mashg'ulotlar tashkil qilindi. [6]

Talabalar ishlarini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Material sifatida o'quvchilarning oldingi yillarda bajargan ishlariga ham tayanildi. [7,8] Kitoblar va elektron mabaalar orqali metodik yondashuvlar boyitildi. Oddiy chizmadan boshlab murakkab muhandislik loyihalarigacha bo'lgan vazifalar qo'llanildi. Materiallar sifatida grafik planshetlardan ham foydalanildi. Bu talabalarga yanada qulaylik yaratdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – mavjud ilmiy adabiyotlar va metodik manbalarni o'rganish.

Tajriba-sinov ishlari – talabalar bilan grafikaviy dasturlaridan foydalangan holda uzluksiz topshiriqlarni bajarish.

Kuzatuv – o'quv jarayonida talabalar faoliyatini monitoring qilish.

Suhbat va anketa – talabalar fikr-mulohazalarini aniqlash.

Tahlil va umumlashtirish – olingan natijalarni ilmiy asosda umumlashtirish.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Eng avvalo, nazariy tahlil metodi qo'llanildi. Bu metod orqali chizmachilik faniga oid adabiyotlar, maqolalar va metodik qo'llanmalar o'rganildi. Shuningdek, zamonaviy CAD dasturlarining imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda kuzatuv metodi ham keng qo'llanildi. Talabalarning uzluksiz ta'lim jarayonida ishlash muntazam kuzatildi. Tajriba davomida AutoCAD va SolidWorks dasturlarida topshiriqlar berildi. Har bir talaba topshiriqlarni onlayn va oflayn shaklda bajarishga majbur bo'ldi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, grafikaviy dasturlari asosida tashkil etilgan uzluksiz ta'lim jarayoni quyidagi samaralarga erishishga yordam beradi: talabalarning chizmachilikka oid nazariy bilimlari chuqurlashadi; uzluksiz ta'lim jarayoni interfaol va amaliy yo'nalishga ega bo'ladi; talabalarda grafik savodxonlik, uch o'lchamli fikrlash va texnik tafakkur rivojlanadi; an'anaviy metodlarga qaraganda o'quvchilarning motivatsiyasi yuqoriroq bo'ladi; o'zlashtirish darajasi va ijodiy yondashuv sezilarli ravishda ortadi; talabalar real muhandislik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lib boradilar.

Chizmachilik fanidan uzluksiz ta'lim jarayonida ijodiy yondashuv sezilarli darajada rivojlandi. Grafik savodxonlik darajasi oshgani kuzatildi. Talabalarning texnik tafakkuri rivojlandi. AutoCAD yordamida bajarilgan chizmalar yuqori aniqlikda bo'ldi. SolidWorks dasturida esa 3D modellar muvaffaqiyatli yaratildi. Compass-3D dasturidan foydalangan talabalar fazoviy tasavvurini rivojlantirdilar. Talabalarning umumiy baholash ko'rsatkichlari oshdi. O'quvchilarning uzluksiz ishlash qobiliyatlari sezilarli darajada kuchaydi. CAD dasturlari vaqtni tejash imkonini berdi. Anketalar natijasida talabalar grafikaviy dasturlarini o'rganishga qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Uzluksiz ta'limda grafikaviy dasturlaridan foydalanish samarali metod sifatida o'zini oqladi. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada ortdi. Talabalar topshiriqlarni ijodiy yondashuv asosida bajarishga harakat qildilar. Tadqiqot natijalari grafikaviy dasturlarining ta'limdagi samaradorligini isbotladi. Shunday qilib, olingan natijalar chizmachilik fanida uzluksiz ta'limni samarali tashkil etish imkonini berdi. Olingan natijalar umumiy ta'lim jarayonida grafikaviy dasturlarining o'rni muhimligini ko'rsatadi. An'anaviy metodlarga qaraganda, grafikaviy dasturlari samaraliroq ekanligi isbotlandi. Bu esa ta'limni raqamlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Talabalar CAD dasturlaridan foydalanib, o'zlarini uzluksiz ravishda rivojlantira oldilar. Ularning qiziqishlari ortgani kuzatildi. Jumladan, dastlabki bosqichda CAD dasturlarini o'rganishda qiyinchiliklar kuzatildi. Ba'zi talabalar kompyuter texnologiyalarini bilmaganligi sababli sekin ishladilar. Shu sababli, dastlabki bosqichda qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari zarur bo'ldi.

Fanning uzluksiz ta'limga asoslangan bu metodika kelajakda keng qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, muhandislik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu juda foydali bo'ldi. Ular nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lay oldilar. Talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi kuchaydi. Ular bo'lajak kasbiy vazifalarini bajarishga tayyor bo'lib bordilar. Bu metodika o'qituvchilar uchun ham qulay bo'ldi. Chunki



talabalarning uzluksiz ishlash ko'nikmalari oshdi. Shunday qilib, muhokama natijalari metodikaning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Demak, bu metodika chizmachilik fanida ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Xulosa. Tadqiqot yakunida bir nechta muhim xulosalarga kelindi. Chizmachilik fanida uzluksiz ta'limni samarali tashkil qilish zaruriyati isbotlandi. Bu jarayonda grafikaviy dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etdi. An'anaviy usullarga qaraganda, bu dasturlar tezroq o'rganishga yordam berdi. Talabalar topshiriqlarni qisqa vaqt ichida bajara oldilar. O'zlashtirish darajalari yuqori bo'ldi. Statistik natijalar bu jarayonning samaradorligini tasdiqladi. Talabalar faoliyatida CAD dasturlari asosiy vosita sifatida qo'llanila boshladi. Bu ularning kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'qituvchilar uchun ham metodika qulayliklar yaratdi. Talabalarning uzluksiz ishlash sifati sezilarli darajada oshdi. Shu sababli, mazkur metodika ta'lim jarayonida keng qo'llanishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Xaydarov U. Chizmachilik va injenerlik grafikasi. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019. - 320 b.
2. Mavlonov A. Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 280 b.
3. AutoCAD for Students. Autodesk Official Guide. - Autodesk, 2022. - 540 p.
4. SolidWorks Education Edition. Dassault Systemes, 2021. - 450 p.
5. Compass-3D: Injenerlik dizayn tizimi bo'yicha o'quv qo'llanma. - Moskva: Askon, 2020. - 410 s.
6. Nazarov B. Injenerlik grafikasi va uni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. - Samarqand: Zarafshon, 2020. - 265 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Oliy ta'lim tizimida uzluksiz ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. - Toshkent, 2021.
8. Akhmedov I., Tursunov S. Application of CAD Systems in Engineering Graphics Education. - International Journal of Education and Science, 2021. - №2. - P.44-53.
9. Yusupov Sh. Texnik ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. - Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022. - 198 b.
10. Kheir, N. Computer-Aided Design in Engineering Education. - Springer, 2020. - 370 p.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING TABIY-ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

F.I.OCHILOV,

*ChDPU «Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi»
kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)*

Maqolada o'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Milliy pedagogik merosimizda ilgari surilgan g'oyalar, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda taqdim etilgan ilmiy qarashlar hamda xorijiy pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ilg'or tajribalar tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *tabiiy-ilmiy tafakkur, rivojlantirish, yondashuv, tabiiy fanlar, milliy meros, ilmiy-tadqiqot, tabiat, borliq, hayvonot olami, tabiatshunoslik.*

В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития естественнонаучного мышления учащихся. Анализируются идеи, выдвинутые в отечественном педагогическом наследии, научные взгляды, представленные в современных педагогических исследованиях, а также передовые разработки зарубежных учёных-педагогов. Также научно обоснована система знаний, умений, навыков и компетенций, необходимых для развития естественнонаучного мышления в процессе исследования.

Ключевые слова: *естественнонаучное мышление, развитие, подход, естественные науки, национальное наследие, научное исследование, природа, бытие, животный мир, естествознание.*

The article examines the theoretical and methodological foundations for the development of students' natural science thinking. The article analyzes ideas put forward in the domestic pedagogical heritage, scientific views presented in modern pedagogical research, as well as advanced developments of foreign educational scientists. The system of knowledge, skills, abilities and competencies necessary for the development of natural scientific thinking in the research process is also scientifically substantiated.

Key words: *natural scientific thinking, development, approach, natural sciences, national heritage, scientific research, nature, being, animal world, natural science.*

«O'zbekiston – 2030» strategiyasida mamlakatimizda 2030-yilga qadar sifatli ta'lim ko'rsatkichlariga erishish vazifasi qo'yilib, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim mazmuni, o'qitish asoslari va o'quvchilarning bilim hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yangicha yondashuvlar asosida tarkib toptirish jarayoni kechmoqda [1]. Chunki umumiy o'rta ta'lim mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shu sababli umumiy o'rta ta'limda amalga oshirilayotgan kontseptual yangilanishlarda o'quv reja va dasturlar hamda



o'quv adabiyotlarni xalqaro darajada e'tirof etilgan ta'lim dasturlari qoidalariga moslashtirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, PIRLS xalqaro ta'lim dasturining o'quvchilar mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish qoidalari umumiy o'rta ta'lim o'quv adabiyotlari mazmuniga metodik asoslardan biri sifatida qabul qilinmoqda. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarining Tabiiy fanlar o'quv predmetlari 2022-2023 yildan boshlab yangi reja, dastur va o'quv adabiyotlari asosida o'qitila boshlandi. Bularning barchasi umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda ana shu ehtiyojlardan kelib chiqishni taqozo etadi. Shu sababli mazkur masalada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishga doir yondashuvlarni aniqlash va ulardagi eng muhim yo'nalishlarni belgilab olish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur o'rinda ushbu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishga doir yondashuvlarni quyidagilarga bo'lib tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) pedagogik milliy merosda ifodalangan yondashuvlar; 2) pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda taqdim etilgan yondashuvlar; 3) xorijiy pedagogik olimlarning yondashuvlari.

Pedagogik milliy merosda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkuri bo'yicha yondashuvlar. O'zbek milliy pedagogikasi o'ziga xos boy merosga ega. Ushbu pedagogik milliy meros juda ko'p asrlik boy va nodir asarlarni qamrab oladi.

Buyuk mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Beruniy (XI asr) o'z asarlarida tabiiy-ilmiy bilimlarni tavsif qilar ekan, asosiy e'tiborni ularni o'zlashtirish masalasiga qaratadi. Jumladan, u yerning tuzilishi, har bir mintaqada tabiatning xilma-xil bo'lishi, Yer yuzi aholisining tabiatga munosabati masalalari bo'yicha islomiy ta'limotni bayon qilgan. Uning qarashlari o'rta asrlarda maktabning avsat (o'rta ta'lim) bosqichida maxsus o'rganilgan [10]. Natijada, 15-18 yoshli o'quvchilarda tabiiy-ilmiy tafakkur tarkib topgan. Shuni eslatib o'tish joizki, Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari islom diniga bog'langan holda, ya'ni tabiat va borliqning Alloh tomonidan yaratilganligi nuqtai nazaridan o'zlashtirilgan. Shu sababli ta'lim oluvchilarga o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy-ilmiy tafakkur tarkib topgan.

Mutafakkir Mirzo Ulug'bek (XV asr) «Zichi Ko'ragoniy» (Ko'ragoniyning yulduzlar jadvali) asarida koinot va borliqning asoslarini yoritib bergan. Bunda u koinot asoslarini tushunish, fasllar almashinuvining hayotga ta'siri va insonning tabiiy fa'oliyati masalalariga alohida e'tibor bergan. Mirzo Ulug'bekning mazkur tabiiy-ilmiy qarashlari 15-16 yoshli o'quvchilar tomonidan quyi bosqich madrasalarda o'zlashtirilgan [5]. Buning natijasida ta'lim oluvchilarda koinot asoslari va borliq bo'yicha tabiiy-ilmiy tafakkur tarkib topgan. O'quvchilarning ko'pchiligi usturlub vositasida yulduzlar kuzatuvini olib borishgan va bu hol ularning o'ziga xos tabiiy-ilmiy tafakkuriga egaligidan dalolat beradi.

Jadid ma'rifatparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919) o'z asarlarida jadid maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini ishlab chiqqan. Jumladan,



uning «Umumiy Geografiya» asarida tabiatning tuzilishi, materiklar, dunyo mamlakatlari va dunyo aholisining turmush-tarzi masalalari ilmiy va metodik jihatdan yoritib berilgan. Uning mazkur asari tabiiy fanlar bo'yicha o'ziga xos darslik bo'lib, u jadid maktablarida o'qitilgan [6]. Buning natijasida o'quvchilarda pedagogik qonuniyatlarga asoslangan tabiiy-ilmiy tafakkur tarkib toptirilgan. Shu ma'noda o'quvchilarda tabiiy-ilmiy tafakkurni tarkib toptirish masalasi ta'lim tizimimizda Jadid pedagogikasidan boshlanadi.

Keltirilgan mazkur misollardan ma'lum bo'ladiki, pedagogik merosimizda ta'lim oluvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biri bo'lgan. Bunda eng muhimi mutafakkirlarning tabiiy-ilmiy qarashlarini maxsus o'zlashtirish amalga oshirilgan. Shu sababli Pedagogikamiz tarixida tabiiy-ilmiy kashfiyotchilik an'ana tusini olganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Pedagogik milliy meros va pedagogik ilmiy tadqiqotchiligimizdagi yondashuvlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha bir necha bosqichlarni belgilash mumkin. Mazkur masala bo'yicha o'z yondashuvimizni taqdim etamiz.

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish bir necha bosqichlarda amalga oshadi. Bunday bosqichlarning asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

a) boshlang'ich ta'lim bosqichi. Bunda o'quvchilar borliq, narsa, hodisa, tabiat va voqelik to'g'risida dastlabki tushunchalarni o'zlashtiradi, ular bo'yicha muayyan mustaqil fikrga ega bo'lishadi;

Ta'limning mazkur bosqichida tabiiy fanlar bo'yicha ilk tushunchalarni berish Mamlakatimizda 2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur ijrosi jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish asoslari isloh qilinmoqda. Shu ma'noda 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi o'zgardi. Unga ko'ra, muayyan tabiiy fan majburiy o'quv fani sifatida emas, balki tanlov fani sifatida o'qitilishi joriy etildi. Shu ma'noda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning tanlovi asosida muayyan o'quv fani tanlov predmeti sifatida o'qitiladi. Bu metodikaning yutuqlari quyidagilardan iborat: birinchidan, muayyan tabiiy fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish tarkib topadi; ikkinchidan, tumanlar va shaharlarda biror tabiiy fanlarga ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat yuritadi; uchinchidan, bu hol o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini maqsadli shakllantirishda va rivojlantirishda keng imkoniyatlarni beradi.

Ayni paytda, bu metodikaning quyidagi kamchiliklari ham mavjud: birinchidan, o'quvchilarning umumiy tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning imkoni bo'lmaydi; ikkinchidan, mamlakatimiz hududlarida tabiiy fanlar bo'yicha oliy ma'lumotli o'qituvchilarning yetishmasligi yuzaga keladi; uchinchidan, o'quvchilarni muayyan tabiiy fanlarga yo'naltirish masalasida muammo kelib chiqadi.

Shu tariqa umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida «Tabiiy fanlar: atrofimizdagi olam» va «Tabiiy fanlar: tabiatshunoslik» deb yuritilishi va



o'qitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilar aniq va mo'ljalli atamalar bilan berilgan bilim manbaini chuqur o'zlashtiradi.

b) tayanch sinflar bosqichi. Unda 5-9 sinf o'quvchilari borliq, narsa, hodisa, tabiat va voqelik to'g'risida asosiy bilimlar majmuini o'zlashtiradi va o'zlarining tabiiy-ilmiy tafakkur ko'nikmasiga ega bo'ladi;

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinflari O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga binoan, umumiy o'rta ta'limning tayanchi hisoblanadi. Aynan mana shu sinflarda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tabiiy fanlar bo'yicha darsliklar yagonalashgan va tipiklashgan shaklda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish masalasida birlamchi metodikaga asoslanish taqozo etiladi. Bu borada milliy tajribalarga asoslanish kutilgan samarani beradi.

v) yuqori sinflar bosqichi. Unda 10-11 sinflar o'quvchilari borliq, narsa, hodisa, tabiat va voqelik to'g'risida to'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi, shuningdek, turli tajribaviy ishlarni va loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

«2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur»da umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11 sinf o'quvchilari kasb-hunarga yo'naltirilishi belgilangan bo'lib, bugungi kunda mazkur vazifaning ijrosi ta'minlanmoqda. Shu ma'noda ushbu sinflar o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda ular tanlagan ta'lim yo'nalishlariga asoslanish lozim. Shu sababli bunda quyidagicha yondashish bizningcha, muhim ahamiyatga ega: 1) biologik fanlar guruhi o'quvchilari; 2) astronomik fanlar guruhi o'quvchilari.

Biologik fanlar guruhiga oid o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirishda, mazkur fanlarni o'qitish jarayonida, to'garaklar va qo'shimcha mashg'ulotlar kabi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Astronomik fanlar guruhi o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirishda va rivojlantirishda qo'shimcha mashg'ulotlar hamda amaliy tajribalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik ilmiy-tadqiqotlardagi yondashuvlar. Mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkuri masalasiga doir yondashuvlar ham bayon qilib o'tilgan. Jumladan, R.G.Safarova tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'quvchilarning imkoniyatlariga mos ravishda o'qitish metodikasi yoritib berilgan [9]. Shuningdek, bir qator pedagog olimlar tomonidan geografiya, botanika, biologiya, zoologiya, fizika, kimyo kabi o'quv fanlarini o'qitish metodikasi masalalari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarda tabiiy fanlarni o'qitish vositasida o'quvchilar-ning tabiiy-ilmiy tafakkurini tarkib toptirish masalasiga doir o'ziga xos yondashuvlar bayon qilib o'tilgan. Mazkur yondashuvlarning negizlarini quyida-gilar tashkil etadi:

a) o'quvchilarni tabiiy fanlarning asoslari bilan tanishtirish;

b) o'quvchilarning borliq, tabiat, narsa, hodisa va voqeliklar bo'yicha ilmiy



tushuncha hamda bilimlarini tarkib toptirish;

v) o'quvchilarni tabiatni o'rganishga yo'naltirish va ularda kuzatuvlar olib borish ko'nikmasini shakllantirish;

g) o'quvchilarda tabiiy-ilmiy tushunchalarga tayangan holda ishlanmalar va jihozlar yaratish ko'nikmasini tarkib toptirish.

Bunday yondashuv o'quvchilarda tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirishda ilmiylik, pedagogik va psixologik metodlarga tayanish lozimligini ko'rsatadi. Shu jihatdan mazkur masalalar bo'yicha pedagog olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida bayon qilingan yondashuvlarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rus pedagog olimlari V.Pakulova va V.Kuznetsovalar tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqotda Tabiatshunoslik o'quv fanini o'qitishning ahamiyati, metodikasi va o'quvchilarning mustaqil tabiiy-ilmiy ko'nikmasini shakllantirish mexanizmlari tahlil qilib berilgan [7]. Ushbu tadqiqotda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy ko'nikmasini shakllantirishning bir qator metodlari yoritib berilganligini ta'kidlash lozim.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish masalasining turli jihatlari mamlakatimiz va xorijlik pedagog olimlar tomonidan yoritib o'tilgan. Bu yondashuvlarda asosiy masala o'quvchilarni tabiiy-ilmiy tafakkur bilan qurollantirish hisoblanadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning tafakkuri umumiy o'rta ta'lim jarayonida shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni.
2. Avesto. M.Isoqov tarjimasini. - T.: «Fan». 2001.
3. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. - Санкт-Петербург, 2001.
4. Герц А.Я. О преподавании минералогий. - Москва, 1953.
5. Кари-Ниязий Т.Н. Астраномическая школа Улугбека. - T.: «Фан». 1971
6. Namozova N. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifiy-pedagogik qarashlari. - Ped.fan.nom.dis. - Toshkent, 2001.
7. Пакулова В.М., Кузнецова В.И. Методика преподавания природоведения. - М.: «Просвещение». 1990.
8. Полянский И.И. Методика начального естествознания. - Санкт-Петербург, 2001.
9. Safarova R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. - Toshkent, 1999.
10. Yuldashev U. Eski maktablarda ta'lim tizimi. - T.: «O'qituvchi». 1990.



BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING ILMIY TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

N. O. ALIYAROVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi
biologiya fani o'qituvchisi

Mazkur maqolada bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilg'or tajribalar bo'yicha ma'lumotlar o'rganilgan va tahlil etilgan. Misol tariqasida ushbu maqolada sitalogiya, gistalogiya va embriologiya fanining zamonaviy ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga oid yangi materiallar bilan talabalarni tanishtirish bo'yicha mavjud muammolar o'rganilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bo'lajak biologiya o'qituvchilarining ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, kompetentlik, ilmiy dunyoqarash, innovatsion yondashuv, tadqiqotchilik, tafakkur.

В данной статье изучается и анализируется информация о передовом опыте развития исследовательских компетенций будущих учителей биологии. В качестве примера, в данной статье изучается и анализируется существующие проблемы знакомства студентов с новыми материалами по современным научным направлениям исследований цитологии, гистологии и эмбриологии. В статье также представлены методические рекомендации, разработанные для развития исследовательских навыков будущих учителей биологии.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, научное мировоззрение, инновационный подход, исследование, мышление.

This article studies and analyzes information on best practices in developing research competencies of future biology teachers. As an example, this article studies and analyzes existing problems in introducing students to new materials on modern scientific research areas of cytology, histology and embryology. The article also presents methodological recommendations developed for developing research skills of future biology teachers.

Key words: competence, competence, scientific outlook, innovative approach, research, thinking.

Tirik tabiat vakillarining tashqi, ichki tuzilishini, hayotiy faoliyatini, tashqi muhit bilan aloqasini to'g'ri tushuntirish, o'simlik, hayvon, zamburug', mikroorganizmlarni aniqlash, ulardan mikro va makropreparatlar tayyorlash, ular ustida kuzatish, tajribalar olib boorish o'qituvchidan yaxshi nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikni talab qiladi.



Darslarni o'zlashtirishda mavzularni kichik tadqiqotlar shaklida talabalarga o'rgatilishi bevosita ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Bu esa sitalogiya, gistalogiya va embriologiya mavzularini o'zlashtirishni ilmiy-tadqiqotchilikka yo'naltirish imkonini yaratadi. Talabalarning o'qish davomida ularning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik mazmunini to'g'ri tashkil etish bosqichma-bosqich talabalarning mustaqil ishlarini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarni tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda bajarilgan tadqiqot vazifasiga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni har bir o'quv predmeti maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, talabalarning qiziqishlarini qamrab oladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyalarini innovatsiyon yondashuvlar asosida rivojlantirishning metodik tizimini ishlab chiqish. Shuningdek, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini fanlar integratsiyasi asosida rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdagi mavjud muammo va kamchiliklarni o'rganish va tahlil qilish hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodikasi bir nechta pedagogik yondashuvlarga asoslaniladi. Ushbu metodika ilmiy-tadqiqot faoliyatini o'qituvchining kasbiy malakasining ajralmas qismi sifatida qabul qilishni, talim jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi [1, 31-39 b.].

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini takomillashtirish shuningdek, talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini mukammal tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, oliy ta'limning asosiy maqsadi zamonaviy talablarga mos yuqori ilmiy-ijodiy salohiyatga va yuksak ma'naviyatga ega yetuk salohiyatli kadrlarni tayyorlash uchun muhim omil sanaladi [2, 119-121 b.].

Zamonaviy sharoitda o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri darsda va darsdan tashqari ta'lim shakllarida o'quvchini tadqiqotchilikka yo'naltirishga mo'ljallangan ta'limiy muhitni yaratish olish va bunda bolaning izlanish xulq-atvorining xususiyatlarini namoyon etishga yo'naltirishdan iborat. Tadqiq qilish xulq-atvori bolaning dunyoni tushunishining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik psixologiya va pedagogikada – «tadqiqiy o'rganish» nomli maxsus atama mavjud bo'lib, uning mazmuni bu bolaning atrof-muhit va borliqni mustaqil ravishda o'rganishga bo'lgan tabiiy istagi, hohishi va bunga xizmat qiluvchi bilimlar majmuasini to'g'ri yo'naltirishga ta'limiy yondashuv desak mubolag'a qilmaymiz [3, 96-99 b.].



So'nggi yillardagi tadqiqotlarda misol uchun muallif N.A.Abdullayeva [4, 601-612 b.]. tomonidan olib borilgan ilmiy-pedagogik izlanishlarda talabalarning ijodiy rivojlanishining keng tarqalgan ko'rinishlari tavsiflangan:

- passiv-tanishtiruv (ijodiy faoliyatga qiziqish va ichki ehtiyoj);
- ijodiy-reproduktiv (talabalarning ijodiy faoliyatga intilishi bilan mos kelishi va uning reproduktiv xarakteri);
- qisman ijodiy (talabaning faolligi tizimli istak va xohishlarni talab qiladi, uning ijodiy faoliyati izlanuvchi xarakterga ega);
- xususiy ijodiy (talabaning o'z faolligini boshqarishda uning bilishga oid faoliyati ijodga aylanadi).

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, test, so'rovnoma, suhbat natijalarini matematik-statistik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning boshlanishida talabalarning bilim va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlari, tadqiqotchilik ko'nikmalari dastlabki ishlab chiqilgan test va so'rovnoma orqali aniqlab olindi. Tadqiqotni olib borishda o'qitishning zamonaviy usul va metodlari va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanildi. Xususan, «Guruhlarda o'qitish», «Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish», «Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar», «Axborotli texnologiya», «Muammoli o'qitish texnologiyalari» va boshqalar. Shuningdek, fanlararo aloqadorlik tamoyili asosida sitalogiya, gistalogiya va embriologiya faniga oid materiallarni o'qitish orqali talabalarda yetarlicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish hamda ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tadqiqot ishida qamrab olingan.

Ma'lumki, talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar mavjud. Misol tariqasida talabalarning mavjud birorta muammoga yechim topish istagi, qiziqishi yoki tasavvurida namoyon qilishi kabi holatlarni aytib o'tish mumkin. Biroq bu holatlarning o'zi talabaning kreativ fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga va muammoni to'g'ri hal etish yechimini topishda aksariyat hollarda yetarli bo'lmaydi. Asosiy e'tibor talabalarning muammolarni va ularning yechimlarini to'g'ri baholay olishlari, ijodkorlik va axborot savodxonligining shakllanganligi, turli fanlardan yetarlicha bilim va ko'nikmalarni egallaganligi hamda turli sharoitlarga moslashuvchanlik hamda tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega ekanligi kabi muhim faktorlarga ahamiyat qaratish kerak bo'ladi.

Sitalogiya, gistalogiya va embriologiya darslari ham talabalarni ko'p tomonlama o'ziga jalb etadi. Oliy o'quv yurti talabalari sitalogiya, gistalogiya va



embriologiya fani doirasida tabiat bilan bog'liq muhim ilmiy ma'lumotlarni, ularni anglashdagi ilmiy dalillar va ularning mohiyatini tushunish bo'yicha mavzularni o'zlashtirib boradilar. Talaba ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayonida tadqiqotchilik bo'yicha quyidagi bir qator ishlarni bajaradi: – Mustaqil ravishda laboratoriya mashg'ulotlarini bajaradi; – Kichik tadqiqot ishlarini bajaradi; – hujayralarning, to'qimaning tuzilishini o'rganadi, tadqiq qiladi; – tadqiqot mavzulari bo'yicha referatlar yozadi; – kichik loyiha ishlarini bajaradi.

Oliy o'quv yurtlarilarning I-kursi I-II semestrlari davomida darslarining didaktik mazmuni tahliliga ko'ra, mavzular 240 soatni tashkil qiladi shundan 120 soat auditoriya va 120 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Auditoriya darslari 120 soat shundan ma'ruza 60 soat, amaliy mashg'ulotlar 30 soatni va laboratoriya mashg'ulotlari 30 soatni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat talabalarni mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning talabalarga individual yondashuvni tashkil etishga xizmat qiladi. Endilikda yangi ta'lim standartlari va o'quv darsturilari, darsliklar mazmuni bo'yicha talabalar ko'proq o'z ustida ishlashga, amaliy mashg'ulotlarni auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Shu ma'noda sitalogiya, gistalogiya va embriologiya darslarida talabalarni o'z ustida ishlashga o'rgatish davomida o'zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo'naltiriladi. Bu shakldagi kichiki tadqiqotlar bevosita talabaga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba'zi bir metodlarini o'zlashtirishga, o'zining tadqiqotchilik pozitsiyasini aniqlashga, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirishga, vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilik ko'nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi.

Ta'lim bilan bog'liq adabiyotlarda kompetentlilik tushunchasiga juda ko'p olimlarning tadqiqiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Kompetensiya – bu egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va uni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetentlilik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining uning ijtimoiyprofessional mavqei va o'ziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga yetariligi ham haqiqiy moslik darajasi hisoblanadi [5, 379-381]. Tadqiqotchilik kompetensiyasi mohiyatini



tushunish uchun olimlar tomonidan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning bir guruhi tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qabul qilishni ta'kidlaydi, ikkinchi bir guruh mutaxassislar esa tadqiqotchilik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bir butun majmuidir deb hisolashadi. Bu borada biz o'z tadqiqotimizda tadqiqotchilik jarayoni uchun quyidagi ishchi ta'rifni tavsiya qilamiz. Tadqiqotchilik kompetensiyasi – deganda biz tanlangan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko'nikmalarni deyish mumkin.

Tadqiqotning asosiy g'oyasi faoliyatning dolzarb ilmiy muammolarni ko'rish, shakllantirish va yechish, yangi ijodiy yechimlarni topish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qobiliyatli talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyat doirasida ularning uzluksiz innovatsion tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yuqorida keltirilgan materiallarni soddalashtirish, mavzular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ta'minlash, didaktik materiallarni ishlab chiqish hamda talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Talabalarning sitalogiya, gistalogiya va embriologiyaga faniga oid hodisa va jarayonlarni innovatsion yondashuvlar asosida o'zlashtirishlarini, ularda mustaqil ilmiy-ijodiy fikrlash, tadqiqotchilik qobiliyatlarining yanada samarali rivojlanishida fanlararo aloqadorlik tamoyilidan ham foydalanildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'nikmalar talabaning egallagan bilimi va ko'nikmalarining rivojlanib borishi hisobiga kompetensiyaga aylanib boradi. Manbalarda keltirilishicha, tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning tarkibiy mazmunidan iborat bo'lib, bevosita uning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, tadqiqotchilik kompetensiyasi talabalardagi tanqidiy tafakkur qilish va uning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi va pirovardida intellektual, kommunikativ, loyihalovchilik ko'nikmalarni bosqichma-bosqich kompetensiyaga aylantirilishi yordam beradi.

Mazkur tadqiqotda innovatsiyon yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etishning amaliy ahamiyati sifatida talabalarning har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, mustaqil ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga samarali ta'sir etishi o'rganilgan bo'lib, bu natijalarga o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash asosida erishiladi. Innovatsion yondashuv sifatida



zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Pedagogik innovatsiyalar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- Yangi o'qitish metodlari (muammoli o'qitish, interaktiv texnologiyalar);
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlashtirilgan ta'lim);
- Modulli o'qitish tizimlari (o'quv materiallarini qismlarga bo'lib o'zlashtirish).

Interaktiv o'qitish – talaba o'zida oldin mujassamlashgan tajribadan foydalangan holda, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg'ulot davomida shaxsiy rol o'ynab, yangi tajribalar orttiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o'ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o'zining kundalik faoliyati bilan bog'laydi.

Ushbu tadqiqot uchun tajriba – sinov ishlari Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusida olib borildi. Dastlab tajriba-sinovlarni olib borishning metodologik dasturi ishlab chiqildi. Tajriba-sinov ishlari 2025-2026 o'quv yilining sentabr-oktabr oylarida olib borildi.

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, talabalardan dastlab olingan test savollari va so'rovnomalardagi natijalari bilan keyingi tajriba so'ngidagi tahlillardan sezilarli darajada farq qildi. Talabalarining sitalogiya, gistalogiya va embriologiya faniga oid bilim va ko'nikmalarining kengayishi bilan bir vaqtda, ilmiy ijodiy fikrlash, ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarining rivojlanishi hamda tabiatda sodir bo'ladigan turli fanga oid jarayonlarni zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlari asosida erkin tushuntirib bera olish imkoniyatlariga ega bo'ldilar

Ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

– Bo'lajak o'qituvchilarining ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirishga oid olib borilgan ilmiy pedagogik izlanishlar o'rganib chiqildi va mavjud muammolar hamda ularning ilmiy yechimlari tahlil etildi.

– O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ilmiy tafakkurni shakllantirish imkoniyatlari pedagogik nuqtai nazaridan tahlil etildi.

– Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari «Sitalogiya, gistalogiya va embriologiya» fanini o'qitish misolida ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

– Talabalardagi tadqiqotchilikka yo'nalganlik ko'nikmalarini shakllanganligi va uni rivojlanishini indikatorlari bo'yicha metodik tavsiyalar taqdim etildi.



Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirib borish, yetuk raqobatbardosh zamonaviy biologiya fani o‘qituvchisi shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.X.Ruzimova. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi. Inter Education and Global Study. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024. №9(1), 31-39 betlar.

2. F.Raxmatova. Tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasining mohiyati pedagogik-psixologik yo‘nalishlari. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2023. 11 - son. 119-121 betlar.

3. L.M.Qaraxonova. Maktab o‘quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari. «Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 20-fevral. 96-99 b.

4. N.A.Abdullayeva. Ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi – bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 1, 2022. 601-612 b.

5. L.M.Qaraxonova. O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorlik munosabatlari. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: International experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023. 379-381 b.



BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA EKOLOGIYA FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL QILISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

SH. T. YAKUBJONOVA,

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

Biologiya kafedrası dotsenti g. f. f. d

Ushbu maqolada ekologiya fanini o‘qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlash maqsadida olib borilayotgan tadqiqot natijalari asosida tashkil etilgan «Asosiy ekologik omillar» mavzusidagi amaliy mashg‘ulot namuna sifatida berilgan.

Kalit so‘zlar: *uzluksiz ekskrok ta‘lim, eklik omillar, yorug‘lik, harorat, namlik, godoyoterm, teploterm, poykiloterm, termofil, psixorofil, gidrofit.*

В данной статье представлен пример практического занятия по теме «Основные экологические факторы», которое было организовано на основе результатов текущих исследований для обеспечения последовательности и преемственности в преподавании экологии.

Ключевые слова: *непрерывное экологическое образование, факторы среды, свет, температура, влажность, гомойотерм, гетеротерм, пойкилотерм, термofil, психрофил, гидрофит.*

This article presents an example of a practical lesson on the topic «Major Environmental Factors», which was organized based on the results of current research to ensure consistency and continuity in ecology teaching.

Key words: *continuous environmental education, environmental factors, light, temperature, humidity, homeotherm, heterotherm, poikilotherm, thermophile, psychrophile, hydrophyte.*

Keyingi yillarda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda uzluksiz ekologik ta‘limni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda ekologiyadan amaliy faoliyat tajribasini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini yaratish, virtual amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning innovation modellarini ishlab chiqish diqqat markazida turibdi. Shuningdek, ekologiya kurslarini o‘qitish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirish, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida fanga oid kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari hamda pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida ekologik ta‘limni amalga oshirishning yangi metodikalarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.



O'rta maktabda ekologiya fanini o'qitishga 78 soat ajratilgan bo'lib, u o'z ichiga nazariy va amaliy darslarni qamrab oladi. Mashg'ulotlar asosan biologiya o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ular har tomonlama chuqur bilim va amaliy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi kursida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonlari milliy o'quv dasturlari bilan integratsiyasini ta'minlovchi o'qitish texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi [1: 44].

Oliy ta'lim o'quv dasturida "Organizm va muhit" mavzusida 4 soat nazariy va "Asosiy ekologik omillar" mavzusiga 6 soat amaliy mashg'ulot rejalashtirilgan. Ma'ruza o'z ichiga ekologiyada organizm va muhit tushunchasi, ashsh muhiti, ekologik omillar va ularning tasnifi, organizmlar adaptatsiyasi va cheklovchi ekologik omillar, organizmlar hayotida fizik, kimyoviy va edafik omillarning o'rni, organizm va muhit o'rtasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlari kabilarni oladi. O'rta maktab ish rejasida 18 soat nazariy va 4 soat laboratoriya mashg'uloti uchun ajratilgan.

Amaliy mashg'ulot qo'yidagicha tashkil etilishi mumkin [4: 8-14].

Ishning maqsadi. Asosiy abiotik omillarning turlari va ularning tirik organizmlarga ta'siri natijasida organizmlarning moslashishlarini o'rganish hamda ekologik guruhlarni aniqlash.

Material va jihozlar. Turli guruhlarga xos o'simliklar rasmlari, o'simlik gerbarylari, chizg'ich, lupa, mavzuga oid javdallar.

Ishni bajarish tartibi

1. Matndan foydalanib, abiotik omillar va ularning asosiy turlarini aniqlash.

2. Yorug'lik va harorat omilining o'simliklarga ta'sirini o'rganish uchun o'simlik gerbarylaridan foydalaniladi. Bunda o'simliklarning morfologik belgilari (barg shakli, o'lchami, tuklanganlik darajasi, qalinligi) o'rganiladi, qaysi guruhga mansubligi haqida xulosa qilinadi.

3. O'simliklarning namlik omiliga munosabati o'simliklarning ildiz tizimi, barg shakli asosida o'rganiladi, qaysi guruhga mansubligi aniqlanadi.

4. Hayvonlarning namlik omiliga nisbatan moslanishlari o'rganiladi.

5. Natijalar asosida xulosa chiqariladi.

Topshiriqlar

1-topshiriq. Quyosh nuri ta'sirida organizmlardagi eng muhim jarayonlarni tahlil qiling va 1-jadvalni to'ldiring.



1-jadval

Jarayonlar	Tahlili

2-topshiriq. Gerbarylar asosida o'simliklarning morfologik belgilariga qarab, yorug'lik va harorat omili ta'siriga moslashgan o'simlik guruhlarini ajrating va 2, 3, 4-jadvallarni to'ldiring.

2-jadval

Soyasevar o'simliklar	Soyaga chidamli o'simliklar	Yorug'sevar o'simliklar

3-jadval

Stiofitlarga xos xususiyatlar	Geliofitlarga xos xususiyatlar

4-jadval

Termofil o'simliklarga xos xususiyatlar	Psixrofil o'simliklarga xos xususiyatlar

3-topshiriq. Harorat omiliga moslashgan hayvonlarning ekologik guruhlarini xususiyatlarini o'rganib, 5-jadvalni to'ldiring.

5-jadval

Ekologik guruhlar	Turlar	Xususiyatlari
Gomoyotermalar		
Geterotermalar		
Poykilotermalar		

4-topshiriq. Gerbary materiallaridan foydalanib, namlikda o'suvchi o'simliklarni morfologik belgilarini ajrating, nomini aniqlang va xususiyatlarini boyicha yig'ilgan ma'lumotlarni 6-jadvalga tushiring.

6-jadval

Ekologik guruhlar	Turlar	Xususiyatlari
Gidatofitlar		
Gidrofitlar		
Gigrofitlar		
Mezofitlar		
Kserofitlar		



5-topshiriq. Namlikka nisbatan organizmlarning fiziologik moslashishlarini aniqlang va 7-jadvalni to'ldiring.

7-jadval

Organizmlar	Moslashishlar
Hasharotlar (qo'ng'iz, xonqizi, chumoli)	
Asalari, kapalak va pashshalar	
Sudralib yuruvchilar (toshbaqa), qushlar	
O'rgimchaklar	
Gidrobiontlar – lixetlar, mishankalar, mideyalar, qisqichbaqasimonlar	
Poykilokserofitlar, suvo'tlari, moxlar, lishayniklar	
Galopogos orollaridagi toshbaqalar, Avstraliya cho'llaridagi qurbaqalar	
Yumronqoziq kabilar	
Tuyalar	
Umurtqasiz hayvonlar	

Nazorat savollari

1. Tirik organizmlarning tashqi muhitga moslashish turlari.
2. Tirik organizmlarning yorug'likka munosabatiga ko'ra turlarini ayting.
3. Namlik omiliga ko'ra tirik organizmlarning qanday guruhlari mavjud?
4. Harorat omiliga ko'ra tirik organizmlar necha guruhga bo'linadi?

Mashg'ulot so'nggida talabalar natijalariga ko'ra baholanadi.

Namuna sifatida berilgan amaliy mashg'ulot topshiriqlarini maktab o'quvchilari uchun soddalashtirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, talabalarning guruh yoki individual tarzda amaliy ishlarni bajarishri ularda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarova H, Bahodirova Z, Yakubjonova Sh. Ekologiya o'qitish metodikasi. - Iqtisod-moliya, 2009. 44-56-betlar.
2. Xo'janazarov O'E, Yakubjonova Sh.T. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. - T.: «Barkamol fayz media», 2018. 5-17-betlar.
3. Yakubjonova Sh.T va boshqalar. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish (laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar). - T.: «Navro'z», 2016. 38-41-betlar.
4. Yakubjonova Sh.T, Ishmo'minov B.B. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi. «Bookmany print» nashriyoti, 2022. 8-14 betlar.



O'QUVCHILARNING RESURLARDAN UNUMLI FOYDALANISH KO'NIKMALARINI TA'LIM KLASTERIDA TA'MINLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

U.B.SAPAROVA,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Ushbu maqola o'quvchilarning resurslardan unumli foydalanish ko'nikmalarini ta'lim klasterida ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari haqida so'z boradi. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida resurslarni to'g'ri boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni ko'rib chiqadi. Tabiiy resurslar, vaqt va materiallarni oqilona ishlatishni o'rgatish orqali bolalarning ekologik savodxonligi va mas'uliyat hissini oshirish muhokama qilinadi. O'quvchilarning iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini ta'minlashda ta'lim klasteri subyektlarining xamkorligini amalga orishga yordam beruvchi zamonaviy mexanizmlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Resurslarni boshqarish, ekologik savodxonlik interaktiv o'yinlar, loyiha asosidagi ta'lim, raqamli texnologiyalar, virtual reallik, barqaror rivojlanish, ta'lim tizimi, mustaqil fikrlash.

Статья посвящена современным механизмам обеспечения навыков эффективного использования ресурсов в образовательном кластере. Рассматриваются современные технологии, направленные на формирование у учащихся начальных классов навыков правильного управления ресурсами. Обсуждается обучение рациональному использованию природных ресурсов, времени и материалов с целью повышения экологической грамотности и чувства ответственности у детей. Также рассматриваются современные механизмы, способствующие реализации сотрудничества субъектов образовательного кластера для обеспечения экономического воспитания учащихся.

Ключевые слова: управление ресурсами, экологическая грамотность, интерактивные игры, проектное обучение, цифровые технологии, виртуальная реальность, устойчивое развитие, система образования, самостоятельное мышление.

The article focuses on modern mechanisms for fostering effective resource management skills within an educational cluster. It examines contemporary technologies aimed at developing resource management skills among primary school students. The study discusses teaching the rational use of natural resources, time, and materials to enhance children's environmental literacy and sense of responsibility. Additionally, it addresses modern mechanisms that facilitate collaboration among educational cluster stakeholders to promote students' economic education.

Key words: primary resource management, ecological awareness, interactive games, project-based learning, digital technologies, virtual reality, sustainable development, education system, independent thinking.



Klaster nazariyasi asoschisi Maykl Porter raqobatbardoshlik strategiyasi kontsepsiyasida klasterlarni «muayyan manfaatlarga erishishga qaratilgan manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shakli» sifatida qaraydi va barqaror rivojlanish strategiyasining mavjudligini klasterlarning muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim omillaridan biri, deb biladi. Shu ma'noda, oila va mahalla subyektlarining hamkorligi oilada iqtisodiy xo'jalik ishlarini o'quvchilarga amaliy ko'rsatish va mahallada kichik tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish misolida samarador hisoblanadi.

Tadqiqotimizning oldingi paragraflarida ta'kidlaganimizdek, tarbiyaning milliy va global integratsiyasini ta'minlash sharq allomalarining qarashlari, milliy qadriyatlar asosida tejamkorlikni o'rgatish hamda xorijiy tajribalardan (financial literacy, entrepreneurship education) foydalanish jihatlariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Bu jarayon sinergetik yondashuv – bu o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini tashkil etish g'oyalari ustunlik qiladigan faol rivojlanayotgan uslubiy yondashuvni taqozo etadi va bu ta'lim kontekstida raqobatbardoshlikni oshirishga ijobiy ta'sir qo'rsatadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterini shakllantirish uchun bir qator muhim shartlar talab etiladi. Uning e'tibor molik jihatlari qatoriga:

- hududning raqobatbardosh ustunliklaridan foydalangan holda ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- butun tizimning uzoq muddatli innovatsiyalari va boshqa strategiyasini belgilovchi yetakchilarni aniqlash;

- ishonch va ijodkorlik muhiti;
- bitta hududdagi ta'lim muassasalarining umumiy maqsaddan kelib chiquvchi xususiy manfaatdorlikning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining resurslarni boshqarish ko'nikmasini sinergetik yondashuv asosda shakllantirish ham zamonaviy mexanizmlardan hisoblanadi. Sinergetika o'z-o'zini tashkil etish mexanizmlarini, ya'ni har qanday tabiatdagi makroskopik tartibli tuzilmalarning o'z-o'zidan paydo bo'lishi, ko'p yoki kamroq nisbatan barqaror mavjudligi va o'z-o'zini yo'q qilish mexanizmlarini tushuntiradi. O'z-o'zini tashkil etish, sodda qilib aytganda, u materiyaga xos bo'lgan ichki sabablar tufayli yuzaga keladigan materiyaning o'z-o'zidan harakatlanish jarayonining tabiiy-ilmiy ifodasi. Obyektga (iqtisodiy tarbiya jarayoniga) bunday ta'sirlarni tanlashda uning ichki xususiyatlariga mos keladi. Buni amalga oshirish tarbiyaviy muhit va sharoitlarga nisbatan kichik «rezonans» ta'sir qilishi, obyektga (tizimga) juda muhim ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodlaridan keng qamrovli faoliyat sifatida foydalanish mumkin. Bu o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini



oshirishda samara beradi. Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyuning fikricha: «O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda ijodkorona ta'lim olish hissiyoti paydo bo'ladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi». Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga turli iqtisodiy muammolar, xarajatlar va tejamkorlikga oid kichik loyihalar, yengil keys topshiriqlari berish orqali ularni fikrlashga, o'z ustida ishlashga o'rgatish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda o'qitish texnologiyasini loyihalash pedagogik vazifaning quyilishi va uni hal etishga alohida e'tibor berilishi zarur

Pedagogik vazifaning quyilishi

Didaktik jarayonni ishlab chiqish

Loyihalashda pedagogik vazifaning quyilishi

Boshlang'ich ta'limda loyiha metodidan foydalanishda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish yo'nalishi quyidagilarni inobatga olishni taqozo etadi:

– taqdim qilinayotgan o'quv materialini tahlil etish asosida uning mazmunini aniqlash;

– o'quv materiali axborot tuzilmasini ifodalash va o'rganilayotgan muammo bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'plash;

– o'quvchilarning o'quv unsurlarini o'zlashtirish darajalarini avvaldan belgilash;

– ularning dastlabki iqtisodiy bilim darajalarini aniqlash.

Ta'limni tashkil etish klasterini muayyan tizim deyish mumkin, ammo uning oddiy tizimdan farqli jihatlari mavjud. Bu maxsus, o'ziga xos tizim bo'lib, elementlarni qo'shish bilan uning ishi yaxshilanadi, ammo olib tashlash bilan halokatli oqibatlar kuzatilmaydi. Tizim elementlarining har biri alohida vazifani bajarsa-da, ammo ular muhimlik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Klaster tarkibidagi elementlar esa teng huquqli komponentlardan tashkil topadi.

Pedagogik ta'lim klasterining ahamiyatini sohalar bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

– iqtisodiy sohada: samarali ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirishda;

– ijtimoiy sohada: pedagogik ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda;

– marketing sohasida: innovatsion ta'lim texnologiyalarini, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy ishlarida yangi imkoniyatlarni ommalashtirishda;

– huquqiy sohada: klaster doirasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish-



ning, shuningdek, ta'lim muassalarini boshqarishning yangi shakllariga o'tish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratishda;

pedagogika sohasida: uzluksiz ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlashni hamkorlikda loyihalash sohaslarida ko'zga tashlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini umumiy rivojlanish va hayotiy voqeiylik integratsiyasi asosida tarbiyalash o'qish, sog'liq va iqtisodiy farovonlik o'rtasida uzoq muddatli hamohanglikni talab qiladi. O'quvchilarning bilim darajasi kelajakdagi iqtisodiy farovonlikni ko'p jihatdan belgilaydi degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. Quyida o'quvchilarni g'ayotiy misollar yordamida iqtisodiy tarbiya berishga qaratilgan usullarni keltirib o'tamiz.

Hayotiy misollar asosida iqtisodiy tarbiya usullari

1. Amaliyotga yo'naltirilgan usul. Real hayotda iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish. Oila budjeti ro'yxatini tuzish, uyda elektr va suv sarfini hisoblash

2. Geymifikatsiya (o'yin usuli). Biznes o'yinlari va simulyatsiyalar orqali o'rgatish «Kichik bozor» o'yinida sotuvchi va xaridor rolini bajarish, «Qanday sarflaysan?» o'yini

3. Oila+mahalla hamkorligi. Oila va mahallada amaliy tajribalar. Ota-ona bilan uyda xarajatlarni taqsimlash, mahallada «Yosh tadbirkorlar yarmarkasi»da qatnashish

4. Loyihaviy usul (Project-based). O'quvchilarni kichik biznes yoki ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarga jalb qilish. «Eko-loyiha» orqali qog'oz chiqindilarini yig'ish, oilaviy kichik biznes haqida esse tayyorlash

5. Innovatsion texnologiyalar. Onlayn platformalar, simulyatsiyalardan foydalanish. Virtual bankda hisob ochish, onlayn bozor iqtisodiyoti simulyatsiyasida qatnashish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini oila hamkorligida shakllantirishni yo'lga qo'yishda eng avvalo, ota-ona rahbarligida bozor odoblari haqida ma'lumotlar berilishi lozim. Bu iqtisodiy tushunchalarini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos amaliy shakllari bo'lib, bola tarbiyasida muxim axtiyatga ega.

Masalan, Elektr tokini tejash haqida. Charog'on xonadon. Elektr toki, u qayerdan olinadi? Bolalarga elektr toki, u qayerdan olinishi haqida qisqacha ma'lumot berish. Kattalar mehnatini qadrlash, chiroqni tejash va undan oqilona foydalanish kerakligi haqida tushunchalarni mustahkamlash. Kunduz kunlari chiroqni o'chirish, chiroqni tejash, chiroq yoqish tugmalarini bekorga o'ynamaslik, undan oqilona foydalanishga o'rgatishda davom etish. Mashg'ulot davomida o'tmishdagi yoritish tizimlarini (shag'am, pilik, kerosinli lampalar), ulardan foydalanish yo'llarini ko'rsatish. Qorong'ilikda ulardan foydalanish tajribasini o'tkazish orqali, chiroqning qanchalik qulayligini, ularning orasidagi farqni, qancha mehnat ketishini ularga tushuntirishga qaratish.



2-mavzu. Elektr jihozlari va ularga ehtiyotkorlik choralari.

Bolalarga elektr jihozlari, ularning elektr quvvati orqali ishlashi haqida tushuncha berish. Bolalarni elektr tokiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatlarini tarbiyalash hamda elektr tokini tejashga o'rgatishda davom etish. Qat'iy taqiqlangan narsalar elektr rozetkalari va elektr jihozlarga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish va bu narsalardan bolalarning foydalanishlari qat'iy man qilinganligi haqida ogohlantirish. Bolalar har qanday vaziyatda ham mustaqil ravishda elektr jihozlaridan foydalanishi yo'llari, qattiy taqiqlangan qoidalarni buzishning mumkin emasligini tushuntirib boriladi.

Xulosa. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini ta'minlashda ta'lim klasteri subyektlarining xamkorligini amalga oshirishga yordam beruvchi zamonaviy mexanizmlari, innovatsion ta'lim texnologiyalari, maktab va oila hamkorligini ta'minlovchi, ta'limning boshqa manfaatdor subyektlari bilan amaliy integratsiyasiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Ta'lim klasteri doirasida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va hamkorlik mexanizmlari tabiiy resurslar, vaqt va materiallarni samarali boshqarishni o'rgatish orqali bolalarning ekologik savodxonligi va mas'uliyat hissini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. F.O.Xo'jayeva. «Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari» (Toshkent, 2017)
2. R.H.Djurayev, «Mehnat darslarida loyihalash» monografiya. Toshkent-2021
3. Serikov V.V. Metodologiya nauchnogo issledovaniya v pedagogike (vmesto predisloviya) // V sbornike: Metodologicheskiye resursi kachestva pedagogicheskix issledovaniy Materiali mejdunarodnoy setevoy nauchnoy konferensii RAO «Metodologiya nauchnogo issledovaniya v pedagogike» (posvyashayetsya 90-letiyu so dnya rojdeniya akademika RAO V. V. Krayevskogo) . pod red. V. V. Serikova i V. K. Pichuginoy; sost., nauchn. podgot. teksta i podbor fotomaterialov V. K. Pichuginoy. 2016. S. 6-9.
4. Saparova U.B. Specific aspects of forming economic educational skills of students of primary education institutions of higher education // European Science Methodical Journal. - 2024. - Vol. 2, Issue 12. - P. 82-90. ISSN (E): 2938-3641.
5. Saparova U.B. Pedagogical Principles of Forming Economic Education Skills in Primary Class Students with Family Partnership // Best journal of innovation in science, research and development. - 2023. - Vol. 2, Issue 9.



O'QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYAGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

N.S.ALIMOVA,

Qori Niyoziy nomidagi TPMI tayanch doktoranti (PhD)

Mazkur maqolada o'quvchilarning jismoniy madaniyatga qiziqishini rivojlantirish xususiyatlari, o'smirlilik davrida o'g'il bolalar va qiz bolalarda qiziqishning namoyon bo'lish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'smirlilik davrida jismoniy madaniyatga qiziqishni rivojlantirish o'qituvchining vazifalari, sinfdagi barcha o'quvchilar tomonidan mashqlar va topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish metodikasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, qiziqish, o'qituvchi, o'quvchi, o'smirlilik yoshi, o'g'il bolalar, qiz bolalar, dars, jismoniy mashqlar.

В данной статье рассматриваются особенности развития интереса школьников к физической культуре, особенности проявления интереса у юношей и девушек в подростковом возрасте. Также представлены задачи учителя по развитию интереса к физической культуре в подростковом возрасте, методика успешного выполнения упражнений и заданий всеми учащимися класса.

Ключевые слова: физическая культура, интерес, учитель, ученик, подростковый возраст, мальчики, девочки, урок, упражнение.

This article discusses the features of the development of schoolchildren's interest in physical culture, the features of showing interest in boys and girls in adolescence. The tasks of the teacher in developing interest in physical culture in adolescence, the methodology for the successful completion of exercises and tasks by all students of the class are also presented.

Key words: physical education, interest, teacher, student, adolescence, boys, girls, lesson, exercise.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim, oila va jamiyatda yosh avlodni mustaqil hayotga, mehnat jarayoniga, harbiy xizmatga jismoniy tayyorlash masalalarida muammolar yuzaga kelmoqda. Chunki ko'pgina o'quvchilar nafaqat zaif jismoniy tayyorgarlikka egalar. Balki salomatliklarida muammolar ham mavjud. Buning asosiy sabablaridan biri esa o'quvchilarda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga qiziqishning yo'qligidir.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlantirish konsepsiyasi, uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar o'quvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshirish yo'nalishlari va texnologiyalariga yangi talablarni qo'yimoqda.



O'quvchilarning jismoniy tarbiyasi muammolariga ham yangicha yondashilmoqda, chunki bunda har bir insonning salomatligi va sog'lom turmush tarzining asoslari shakllanadi. Shu sababli ham o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sport sohasiga qiziqishlarini shakllantirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga mazkur muammo kompleks ravishda to'liq o'rganilmaganligini ta'kidlash mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar va empirik ma'lumotlar muammoni to'liq ochib bermaydi, mazkur muammoning murakkabligi va mohiyatini aks ettirmaydi (P.F. Lesgaft, L.P. Matveev, A.F. Novikov va o'zbekistonlik olimlar R.Salomov, K.M. Mahkamjonov, Yu.M. Yunusova, Sh.H. Xonkeldiev, A.A. Abdullaev, H.T. Rafiev, H.A. Botirov, O'.Ibrohimov [1; 2; 3; 4]).

Shuningdek, jismoniy tarbiyaga qiziqish tushunchasiga ham aniq ta'riflar, o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash sohasidagi ilmiy-amaliy muammoni hal etishga metodologik va konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmagan hamda mazkur jamiyat va shaxs uchun hayotiy muhim masala hisoblangan o'quvchilarda jismoniy tarbiyaga qiziqishni shakllantirish usullari, yo'llari, vosita va metodikalari aniqlashtirilmagan. Shu sababli umumta'lim maktablari o'smir yoshidagi o'quvchilarining jimoni tarbiyaga qiziqishlarini o'rganish, uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarda jismoniy madaniyatga faol va barqaror qiziqishni shakllantirishning samarali vositalari va metodikalari tizimini ishlab chiqish va ilmiy asoslash uzluksiz ta'lim pedagogikasi oldida turgan dolzarb muammo hisoblanadi.

Shu jihatdan bugungi kunda maktab ta'limi jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi talab etiladi:

1. O'quvchilarning darsda faolliklarini oshirish omili sifatida jismoniy madaniyatga qiziqishlarini tadqiq etish.
2. Qiziqishlarni shakllantirishni o'rganish va umumta'lim jarayonida jismoniy madaniyat darslarining samarali texnologiyalarini aniqlashtirish.
3. O'quvchilarning jismoniy tarbiyaga qiziqishlarini shakllantirish orqali ularning faolliklarini oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

O'quvchilarning jismoniy madaniyat darslariga qiziqishlari turlicha bo'lishi bilan birga, o'smirlik yoshida o'quvchilarning fiziologik rivojlanishlariga ko'ra bu masala yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ularda salomatlikni mustahkamlash, gavdani to'g'ri shakllantirish, harakat va irodaviy sifatlarni rivojlantirishga qiziqishlar shakllanishi mumkin.

O'smir yoshidagi o'g'il bolalar va qiz bolalarning qiziqishlari farqlanadi,



masalan qiz bolalar ko'proq chiroyli gavda ko'rinishi, egiluvchanlikni, harakatlar va yurishdagi noziklikni ko'proq o'ylaydilar, ammo epcillik, tezlik, kuch va chidamlilikni rivojlantirishga qiziqmaydilar. O'g'il bolalar esa kuch, chidamlilik, tezlik, epcillikni rivojlantirishga ko'proq qiziqadilar.

Shuningdek, 6-7 sinflardan boshlab, o'smirlik yoshida o'quvchilarda kichik maktab yoshidan farqli ravishda jismoniy mashqlar bilan biror-biror bir aniq maqsadda ongli shug'ullanadilar, bunda boshlang'ich sinflarda esa umuman harakatli faollikka, masalan yugurish, sakrashga qiziqib, bu ularning jimoniy va ruhiy rivojlanishlarining vositasi ekanligini anglab yetmaydilar. Yuqori sinflarga o'tganda esa muayyan kasbiy faoliyatga o'zini tayyorlash, ya'ni ularning hayot rejalariga taalluqli motivlari ustunlik qiladi.

Jumladan o'quvchilar o'quv dasturining turli materiallariga ham turlicha qiziqish namoyon etadilar. Boshlang'ich sinflarda o'g'il bolalar sport o'yinlarini, qiz bolalar esa harakatli o'yinlarni afzal ko'radilar. O'quv dasturining qolgan barcha mashqlari boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga taxminan bir xil darajada qiziqish uyg'otadi. Bunda o'quvchilarda jismoniy madaniyatga qiziqishning namoyon bo'lishining aniq sabablarini hisobga olib jismoniy tarbiya o'qituvchisi dars jarayonida jismoniy madaniyatni targ'ibot qilish, umuman o'tiladigan materialdan qat'iy nazar mazkur darslarga qiziqishni shakllantirishi kerak.

6-sinfdan boshlab esa o'quvchilarning qiziqishlarining tabaqalanishi ortib boradi. 7-sinfdan boshlab murakkab va musobaqa turidagi mashqlarga qiziqishning keskin pasayishi seziladi. Bunga bir qancha omillar sabab bo'lishi mumkin. Birinchidan, o'smirlik davrida tengdoshlari orasida o'zining hurmat-obro'sini saqlash ahamiyatli bo'lib, musobaqa vaqtidagi sodir bo'ladigan omadsizliklardan keskin ta'sirlanishlari kuzatiladi. Ikkinchidan, qator tadqiqotlarda aniqlanganidek, kichik yoshdan o'smirlik yoshiga o'tish davrida jismoniy tarbiya darslariga ijobiy munosabat pasayib boradi. Bu ayniqsa harakat faolligi o'rtacha va past bo'lgan o'quvchilar guruhlarida ayniqsa sezilarlidir.

Jismoniy madaniyat mashg'ulotlariga motivlar o'quvchining harakatlar, yangi taassurotlar, yangi ma'lumotlarga bo'lgan tabiiy ehtiyojlari asosida shakllanadi.

Jismoniy madaniyatga faol ijobiy qiziqish motivatsion jarayonlarning integral ifodasi hisoblanadi va rivojlanishi natijasida jismoniy takomillashishdagi yangi, ikkilamchi ehtiyojga aylanadi va uning asosida yangi motiv hamda qiziqishlar paydo bo'ladi. Qiziqishni rivojlantirish jarayonida o'quvchini jismoniy shakllantirishdagi faolligi tarbiyalanadi, jismoniy mashqlar, gigiena me'yorlari va amallariga



odatlar shakllanadi. Qiziqish, motiv, ehtiyoj va odatlar umumiy holda o'quvchilarning jismoniy madaniyatga ijobiy munosabatlarini belgilab beradi. Shu tariqa, jismoniy madaniyatga qiziqish o'quvchining yuqoridagi shaxsiy xususiyatlari tizimida asosiy hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat darslarida o'quvchilarning bu darslarga qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida topshiriqlarni to'g'ri qo'yish muhim ahamiyatga egadir. O'qituvchi darsda topshiriqlarni berishda xatoliklarga yo'l qo'ygan hollarda o'quvchilarning faolliklari pasayishi kuzatiladi. B.M.Shapiro ulardan ko'p uchraydiganlarini ajratadi [2]:

1. O'qituvchi hal etilishi kerak bo'lgan vazifani qo'ymasdan, balki o'quvchilar darsda bajarishlari kerak bo'lgan mashqlarni sanab berishi.

2. O'qituvchi o'quvchilar oldiga qo'yan vazifalar o'quvchilar uchun emas, balki uning o'zi uchun ahamiyatli bo'lishi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga bugun oraliq nazorat uchun qayta topshirishlar bo'lishini, yoki bugungi darsda to'pni boshqarishni takomillashtirish zarurligini aytishi kabilar.

3. O'qituvchi o'quvchilar uchun e'tiborli bo'lmagan topshiriqlarni qo'yadi.

Vazifani aniq qo'yilishi ham, agar o'quvchini e'tiborini jalb eta olmasa, uning ehtiyojlariga mos kelmasa kutilgan natijani ta'minlamasligi ma'um. Vazifa o'quvchi uchun ahamiyatli bo'lgan faoliyatga singdirilishi, u kutgan natijaga olib borishi kerak. Masalan, o'qituvchi dars yakunida o'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasida basketbol o'yini o'tkazilishi va bunda to'g'ri uzatishdan keyingi savatga tushgan to'plar hisobga olinishini e'lon qiladi. Bu holatda o'quvchilarda sherigiga to'pni to'g'ri uzatish mashqini bajarishga qiziqish uyg'onadi.

Tasodifiy mashqni to'g'ri bajarish barqaror ahamiyat kasb etmaydi, u faqatgina hozirgi vazifani bajarish uchun saqlanadi va vazifa hal etilishi bilan xotiradan o'chadi [4, 28]. Shu sababli jismoniy tarbiya o'qituvchilari keyingi sinflarda ko'pincha dasturning hatto soddashmalarini qaytadan o'rgatishga majbur bo'lishlari kuzatiladi. Shu sababli o'qituvchi pedagogik faoliyatning murakkabliklariga tayyor bo'lishi, o'zining kasbiy mahoratini oshirib, pedagogik yechimlar tajribasini egallashga intilishi kerak.

O'quvchilarning darsdagi yuklamasi xalaqit qiluvchi to'xtalishlarni bartaraf etish, o'quvchilarni doimiy nazorat qilish, istisnosiz barcha o'quvchilarni o'quv faoliyatida faol ishtirokini ta'minlash kabi tashkiliy-pedagogik chora-tadbirlar orqali ta'minlanadi [1].

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarida ko'pincha o'quvchilar



mashqni bajarish uchun o'z navbatlarini kutishga majburliklarini kuzatish mumkin. Shu sababli xalaqit qiluvchi to'xtalishlarni bartaraf etish muhim hisoblanadi. Masalan, qumga sakrash bir necha soniyada amalga oshiriladi, ammo navbat kutish uchun ikki daqiqadan ortiq kutish kerak, to'pni savatga tushirish bir necha soniyada amalga oshiriladi, ammo unga navbat kutishga bir necha daqiqa vaqt sarflanadi. Bu kabi uzoq kutishlar o'quvchilarning harakatga tayyorligi, ishtiyoqi darajasini pasaytirishi kuzatiladi.

Darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlarida o'quvchilarni doimiy nazoratini amalga oshirishda, ularning hatti-harakatlari va xulqlari baholanishi o'quvchilarning jismoniy tarbiya darsida faollashtirishga yordam beradi. Shu sababli ba'zi darslardan oldin o'qituvchi ayniqsa faol bo'lmagan o'quvchilarni butun sinfning yoki alohida o'quvchilarning faolligi, intizomlilikini va bajaradigan mashqlari baholanishi to'g'risida ogohlantirishi mumkin.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan ozod etilgan o'quvchilar darsda faqat kuzatuvchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi bo'lishlari, hakamlik qilishlari, alohida o'quvchilarning faolligini nazorat qilishlari, yordamchi rolida ishtirok etishlari kerak.

Foydalanilgan ro'yxati:

1. Ильин Е.П. Психология физического воспитания: Учебник для институтов и факультетов физической культуры: 2-е изд., испр. и допол. СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2000. - 486 с.

2. Шапиро Б.М., Башмакова Л.Н., Курмакнова Г.У. Здоровый образ жизни. Пособие для учителей. - Алмата. 2003.

3. Хамракулов Р.А. Пути совершенствования физического воспитания студенческой молодежи //Фаргона давлат университети илмий журнал. 2001. № 1. - С. 23.

4. Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. - Ташкент. 2007. с. 311.

5. Юнусов Т.Т., Юнусова Ю.М., Кудратов Р.К. «Алпомиш» ва «Барчиной» махсус тестлари-саломатлик гарови. Ўзбекистон аҳолиси саломатлиги ва жисмоний тайёргарлик даражасини аниқлашда махсус тестлари бўйича услубий қўлланма. - Т., 2004. - Б. 29.



ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ

Р.Х.ДЖУРАЕВ,

академик АНРУз, д.п.н. зав.отд. НИПВ им.Кары Ниязи

З.КАРИМОВА,

Филиал МГУ им Ломоносова, и.о. доцент (PhD)

The problem of mass media influence on social education of upcoming generation is very important nowadays, the set of ways of its solving is offered, but there is no uniform way solve the problem. Authors consider that consolidation of all forces of modern society is necessary for the fastest solving of the problem differently full value of each of the subsequent generations will decrease as the further development of information technologies and their active introduction to life of the society without influence on education and formation of children.

Key words: mass media, social education of upcoming generation, development of information technologies, socialization of children and teenagers.

В последнее время проблема влияния средств массовой информации на социальное воспитание подрастающего поколения поднимается все чаще и чаще, предлагается множество способов ее решения, но единого пути так и не определено. Авторы считают, что необходима консолидация всех сил современного общества для быстрого решения той проблемы, иначе при дальнейшем развитии информационных технологий и активном внедрении их в жизнь общества без учета влияния на воспитание и образование детей полноценность каждого из последующих поколений будет снижаться.

Ключевые слова: средства массовой информации, социальное воспитание подрастающего поколения, развитие информационных, технологий, социализация детей и подростков.

С появлением телевидения формирование половой идентификации детей и подростков стало проходить значительно быстрее и эффективнее, поскольку экран учит их усваивать определенную половую роль и правила поведения в семье и общине. Безусловно, такие образцы, представленные на телевидении, весьма привлекательны и не идут вразрез с обычаями. В то же время показ различных моделей может служить отображением господствующего в обществе представления об определенной половой роли.

Таким образом, в еще неокрепшей психике ребенка может происходить путаница социальных ролей и их неправильная идентификация в будущем.

Особую озабоченность у родителей и общественности вызывает по-



стоянно растущий уровень теленасилия. Эта тенденция легко обнаруживается в массовой американской культуре, которая благодаря росту влияния на международном рынке проникает сейчас во все сферы жизни нашего общества [3]. Ведь не существует практически ни одной телепрограммы, где бы не было элементов сцен насилия в явной или неявной формах. Каждый ребенок воспринимает увиденное по телевизору по-своему, но еще неизвестно, как оно отразится на его дальнейшем развитии. Основная цель такого рода передач – прибыль. Убийства, растление малолетних, драки, хулиганства – все это создано для того, чтобы каждые 15-20 минут прерывать передачи и сообщать телезрителям о том, что пора бежать в магазин и покупать зубную пасту, без которой они не смогут победить «полчища кариозных монстров». Коммерческое телевидение стремится теперь стандартизировать не только потребительские, но и эстетические вкусы массового обывателя. Но тенденция относиться к зрителю как к однородной массе прежде всего отражается на детях.

Для того чтобы понять, какую роль играет телевидение в процессе социализации детей и подростков, достаточно сказать, что дети дошкольного возраста умеют не только включать телевизор, но и настраивать его на определенный канал. Усаживаясь перед экраном, ребенок забывает обо всем на свете. Многие родители используют это в своеобразных воспитательных целях, прибегая к угрозе оставить ребенка без телепузиков и покемонов за малейшую провинность. Не трудно догадаться, что такой вид наказания делает голубой экран для ребенка еще более желанным и привлекательным.

Часто дети смотрят передачи для взрослых, и нередко повинны в этом сами родители. Многих родителей мало интересует, какие передачи смотрит их чадо. Появляется повод задуматься о том, не является ли телевидение фактором, непосредственно влияющим на рост преступности несовершеннолетних. не несут ли передачи, начиненные жестокостью и насилием, особого криминального эффекта.

Во многих странах изучают причины роста преступности среди подростков, связывая их нередко с просмотром телепередач, пропагандирующих культ насилия. Многие ученые во всех странах мира отмечают вредное воздействие фильмов, где присутствуют сцены насилия, жестокости, сексуальной свободы и извращений. После просмотра различных боевиков подростки, естественно, начинают подражать героям фильмов, усиливаются их агрессивные наклонности.

При распространении свободы секса молодые люди становятся способными на совершение насилия, сексуальные извращения, преступные



жесткие действия по отношению к окружающим. Подростки попадают под разрушительное воздействие культа насилия, что, несомненно, приводит к самым трагическим последствиям: подростковая преступность, неприятие общепринятых норм и образа жизни в обществе, установленных правил повеления, протест против авторитета родителей и в конечном счете протест против самого общества.

Это мнение подтверждается многочисленными фактами из жизни. Например, после появления фильма «Бонни и Клайд» участились случаи подражания: такая же очаровательная и любящая пара грабила и убивала точно по киносценарию.

Конечно, СМИ не являются главной причиной резкого подъема насилия несовершеннолетних, но и недооценивать их действия тоже нельзя. По мнению американского ученого Ф. Уэртхзма [5]. «Правильный анализ влияния СМИ (и в первую очередь кино и телевидения) на психологию» человека может помочь человечеству справиться с теми взрывами насилия, которые в своей совокупности представляют «эпидемию чумы в мировом масштабе».

В результате клинического исследования 200 детей Ф. Уэртхэм пришел к выводу, что показ геленасилия, жестокости и садизма оказывает самое губительное влияние на молодых людей, которые в процессе социализации становятся все более и более «теленаправленными». г. е. характеризуются враждебностью к окружающим, жестокостью и бесчувственностью. Американский психиатр утверждает, что снижение сопротивляемости ко всему этому у детей прямо пропорционально количеству передач с насилием, которые они смотрят.

Таким образом, СМИ помогают сформировать и закрепить уверенность подростка в том, что агрессивность и сила самые действенные регуляторы межличностных отношений Поэтому увеличивается число несовершеннолетних, которые восхищаются демонстрацией силы и возводят ее в приоритетное право регуляции отношений.

Существует и промежуточная группа ученых, мнение которых носит синтезированный характер. Формально обвиняя коммерческое телевидение за характер его передач, они фактически оправдывают показ насилия, поскольку рассматривают его как своеобразную отдушину для выхода излишней агрессивности. Ученые этой группы видят задачу социального воспитания детей и подростков в том, чтобы уменьшить «порог толерантности», т. е. терпимости молодых зрителей в основном не за счет изменения содержания «жестких передач», а лишь путем ограничения их количества, так как чувствительность подростка отличается от чувствительности взрос-



лого только лишь количественно, а не качественно.

Итак, на фоне отрицательного влияния на психику юных зрителей теряются все положительные стороны существования телевидения. Ведь именно телевидение помогает быстрее расширять кругозор, узнавать много интересного о других странах и народах. Вся информация, идущая мощным и бурным потоком с экранов, сопровождается красочной иллюстрацией, поэтому вполне понятно, почему ребенка невозможно оторвать от телевизора.

Но существуют и другие источники информации, которые нельзя не затронуть. Это газеты и журналы, которые в настоящее время по большей мере носят коммерческий характер. Журналисты позволяют себе пользоваться непроверенной информацией при подготовке материала, утверждая при этом, что источник более чем достоверный. Большинство статей носят заказной характер, и основной их целью является очернение какого-либо видного политического деятеля или его семьи, или наоборот, его биография преподносится как нечто «святое и непорочное». Вся эта информация рассчитана на простого обывателя, который не способен проанализировать весь ее объем, а потому верит всему, что читает и слышит. К сожалению или к счастью, но молодежь в нашей стране сегодня мало интересуется прессой. Но есть все-таки некоторые издания, которые пользуются особой популярностью. Это так называемая «бульварная», или «желтая», пресса. Заголовки статей – сплошные сенсации, основанные на сплетнях и слухах о звездах шоу-бизнеса, политиках, киноактерах и т. д. Такого рода литература интересует молодых людей на предмет «убивания» времени, так как ни к чему не обязывает, не требует умственных усилий, воспринимается легко и ненадолго задерживается в памяти.

Особую массовость сегодня приобрели издания порнографического характера, которые стали доступны всем каждому. В любом газетном киоске можно теперь весь перечень зарубежных и отечественных зарубежных журналов. Известно, что самый большой процент покупателей приходится на подростков и юношество.

Юность – это «сексуализированный» возраст, когда подросток с еще неокрепшей психикой, недостатком или отсутствием сексуального опыта воспринимает эротический материал так, как ему его подают. Неудивительно, что подростков привлекает подобная секс индустрия, помогающая им освоить азы сексуального общения и способствующая их сексуальному растлению. Существует масса возможностей избежать разжигания подростковой сексуальной распущенности. контролируя количество информации, которое проникает в сознание молодежи, но на данный момент деньги ре-



шают все, определяя новое направление в социальном воспитании [1].

В настоящее время пользуется большим спросом у молодежи еще один вид современных СМИ Интернет [6]. Внедрение систем мультимедиа происходит чрезвычайно быстро. Доступность, гибкость, простота в эксплуатации повышает эффективность получения информации. Но внушает опасения другая сторона медали. Наряду с полезной информацией в Интернете есть немало сайтов, которые американцы называют «trash» (мусор). Кроме того, активное увлечение (виртуальной реальностью негативно сказывается на интеллектуальном и эмоциональной развитии подростков. У ребят падает интерес к чтению, беднеет словарный запас. (снижается способность к словесному творчеству, скудеют ассоциативные образы, дети (не могут описать словами свои ощущения и (переживания).

Реальную жизнь и реальное (общение им заменяют компьютер и телевизор. Даже влюбляются подростки теперь через Интернет. Новейшие коммуникативные средства делают их пассивными потребителями информации, ранний контакт с миром рационального и логического снижает их эмоциональность, чувствительность, способность сопереживать другому человеку. Жестокость мышления, клишированность сознания. упрощение картины мира, отчуждение от живой природы, агрессивность, тревожность – качества, которые проявляется у подростков, «живущих» в другом, искусственном мире. Уход от реальности – вот равное зло виртуального мира [4].

Каким же образом можно оградить поддающее поколение от негативного воздействия СМИ в современном обществе? Руги решения данной проблемы давно является предметом научных исследований ученых за рубежом. Поскольку ограничить или прекратить влияние масс-медиа на подростков невозможно, необходимо научить молодежь отделять нужное от ненужного, полезное от бесполезного, нравственное от безнравственного, сделать СМИ не соперником, а союзником всех социальных институтов. Таким образом, впервые встал вопрос «параллельной шкалы», т. е. шкалы средств массовой информации [2].

Начиная с 1970-х гг: акцентирование коммуникативных проблем в образовании можно считать основополагающим для современных взглядов на проблемы взаимодействия школы и СМИ. Многие зарубежные и отечественные специалисты разделяют взгляды Л. Мастермана (Великобритания), суть которых сводится к следующему: образование должно быть направлено на развитие у школьников понимания особенностей функционирования СМИ, использования ими различных выразительных средств, механизма создания «реальности» и ее осознания аудиторией. Именно пониманию с его акцентом на развитие критического мышления по отношению к СМИ



необходимо придать то основное значение, которое ранее придавалось оценочному подходу.

К середине 1980-х гг. эти взгляды во многом пересмотрены. На этот раз проводилось различие между изучением коммуникации на основе аудиовизуальных средств, с одной стороны, и освоением различных видов коммуникации и процессов передачи смысла, с другой. Родился проект «Введение в теорию коммуникации и средств массовой информации», учитывающий, что современная социально-культурная среда требует от специалиста в самых различных областях достаточно квалифицированного овладения коммуникативным процессом. В России под руководством Ю.Н. Усова в 1980-1990-е гг. развивается направление, связанное с формированием у детей значений и умений восприятия экранных произведений искусства. В середине 1990-х гг. начинаются исследования возможностей традиционных учебных предметов для формирования у учащихся умений работать с информацией масс-медиа.

В последнее время проблема влияния СМИ на социальное воспитание подрастающего поколения поднимается все чаще и чаще, предлагается множество способов ее решения, но единого пути как и не определено. Необходимо консолидация всех сил современного общества для быстреего решения этой проблемы, иначе при дальнейшем развитии информационных технологий и активном внедрении их в жизнь общества без учета влияния на воспитание и образование детей полноценность каждого из последующих поколений будет снижаться.

Литература:

1. Гурова Р.Г. Современная молодежь: социальные ценности и нравственные ориентиры И Педагогика. - 2000. - № 10.
2. Журим А.А. Информационная безопасность как педагогическая проблема. Педагогика. - 2001. - М. №4.
3. Петрищев В.И. Американская школьная молодежь. Проблемы. Поиски. Решения. - Красноярск: Красноярский государственный университет, 1989.
4. Подлее нова И., Руденко И Скромное обаяние виртуальной реальности // Семья и школа. - 1998. - М. № 2.
5. Расторгуев С.П. Философия информационной войны. - М: Вузовская книга; МПСИ, 2003.
6. Якушина Е.В. Подростки в Интернете: специфика информационного взаимодействия И Педагогика. - 2001. - № 1.



ФОРМИРОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ГРУПП ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ВОЕННО-АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

М.М.КОМИЛОВА,

доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
и.о. доцент кафедры гуманитарных наук Perfect university,

В статье проанализированы работы отечественных и зарубежных ученых-лингвистов по вопросам отбора кандидатов в военное среднее специальное образование и формирования индивидуальных групп. Предложены рекомендации по созданию образовательных групп в процессе обучения русскому языку. Автором предлагаются способы отбора учащихся на подгруппы. Рекомендуется создать методические пособия и учебные материалы по русскому языку в соответствии с профилем и уровню владения учащимся русским языком. Подчеркивается значимость грамотного формирования отдельных учебных групп для улучшения развития речи учащихся в процессе подготовки высококвалифицированных военных специалистов.

Ключевые слова: военный лицей, русский язык, отбор кандидата, формирование образовательных групп, кратковременный отбор, длительный отбор, профессиональная направленность, дифференциация, развитие речи, уровень владения русским языком.

Maqolada harbiy o'rta maxsus ta'limga nomzodlarni tanlash va individual guruhlarni shakllantirish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy tilshunoslarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Rus tilini o'qitish jarayonida o'quv guruhlarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar taklif etilgan. Muallif o'quv maqsadi, o'quvchilarning harbiy-professional qiziqishlari va rus tilini bilish darajasiga qarab kichik guruhlarga ajratish usullarini taklif qilgan. O'quvchilarning rus tilini bilish darajasi va profiliga mos ravishda uslubiy tavsiyalar va o'quv materiallarini yaratish tavsiya etilgan. Yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirish uchun individual o'quv guruhlarini to'g'ri shakllantirish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: harbiy litsey, rus tili, nomzodlarni tanlash, o'quv guruhlarini shakllantirish, qisqa muddatli saralash, uzoq muddatli saralash, kasbiy yo'nalish, farqlash, nutqni rivojlantirish, rus tilini bilish darajasi.

The article analyzes the works of domestic and foreign linguists on the selection of candidates for military secondary specialized education and the formation of individual groups. Recommendations are offered for the creation of educational groups in the process of teaching the Russian language. The author suggests methods for selecting students into subgroups based on the purpose of formation, military-professional interests and level of proficiency in Russian. It is recommended to create methodological recommendations and educational materials on the Russian language in accordance with the profile and level of proficiency of students in Russian. The importance of competent formation of individual educational groups for improving the development of students' speech in the process of training qualified military specialists is emphasized.



Key words: *military lyceum, Russian language, candidate selection, formation of educational groups, short-term selection, long-term selection, professional focus, differentiation, speech development, level of proficiency in Russian.*

Военнослужащие, как и другие специалисты, в обязательном порядке должны владеть иностранными языками, в том числе и русским. Тем не менее, профессиональная подготовка будущих военных, говорящих только на родном языке, имеет свои особенности и сложности. Рассмотрим некоторые из них на примере военно-академических лицеев:

во-первых, образование в военно-академических лицеях отличается от обычного среднего специального образования рядом аспектов, связанных с военной дисциплиной, подготовкой и требованиями. Цель образования состоит в подготовке будущих военных специалистов, способных выполнять определённые задачи в вооружённых силах и других силовых структурах;

во-вторых, уровень знаний учеников, поступивших в военно-академические лицеи (далее ВАЛ), различен, а общее качество владения русским языком находится на довольно низком уровне. Это видно по результатам контрольной работы, проведённой для оценки девятилетних остаточных знаний учеников в первые недели учебного процесса;

в-третьих, очевидно, что при работе с учащимися разного уровня владения языком в одной группе среда для общения создается только в рамках урока;

в-четвертых, не секрет, что учащиеся академических лицеев ориентируются на углубленные предметы, точнее, на вступительные экзамены в гражданские и военные вузы. В таком случае русский язык сам собой отодвигается на второй план.

По нашему мнению, качество образования в целом и изучение русского языка в ВАЛ тесно связаны с процессом отбора подходящих кандидатов.

Отбор кандидата – очень важный и ответственный момент в подготовке кадров, зависит от конкретных людей, от их знаний, компетентности, квалификации и мотивации [7].

Приём кандидатов на обучение происходит согласно положению о военно-академическом лицее, утверждённому постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-4375 от 28 июня 2019 года, и уставу военно-академического лицея «Темурбеклар мактаби» [1].

В ВАЛ принимаются выпускники 9 класса общеобразовательных школ и специализированных школ-интернатов.



Порядок отбора кандидатов осуществляется в трех этапах: предварительный отбор, военно-профессиональный отбор и тестовые испытания по выбранным направлениям (точное и гуманитарное, экономическое). После приема осуществляется отбор учащихся в группы, что обеспечит качественную организацию учебного процесса в дальнейшем.

Изучая опыты учёных, пришли к выводу, что проблема подготовки кадра зависит от решения вопроса формирования образовательных групп.

Педагогический опыт показывает, что при распределении обучающихся на учебные группы обычно учитываются только выбранные ими направления. Их способности, уровень знаний по русскому языку не изучается, что препятствует качественной подготовке будущих курсантов в высшие военные вузы.

На занятиях по русскому языку ученики занимаются в традиционных группах, где получают знания одинаковой сложности. По-нашему, после проведения стартового контроля по русскому языку важно разделить учеников на группы в соответствии с их способностями к изучению языка.

Предлагаем следующие способы отбора учащихся на группы:

I. По цели формирования групп:

1) кратковременный отбор подгрупп; 2) длительный отбор подгрупп.

Кратковременный отбор проводится для временной организации работы по определённым заданиям, где группы делятся на: сильную (группа А), среднюю (группа В), слабую (для начинающих – группа С).

Этот тип отбора можно осуществить:

1) методом выбора цветных карточек. Еще 2-3 минуты до начала занятия учащиеся произвольно выбирают карточки разного цвета. Цвет карточек зависит от количества малых групп, от сложности задания. Автоматические организованные группы занимают отведенные им места;

2) методом добровольного отбора. Но в этом случае в одной группе могут быть собраны как сильные, так и слабые учащиеся. Добровольная группа может быть создана по симпатии учащихся друг к другу или по общим их интересам.

С одной стороны, учащимся интересно и удобно работать в одной группе с теми, кого они выбрали, но с другой стороны, такое деление психологически отрицательно влияет на тех учащихся, кого не выбирают. Такое отношение учащихся подросткового возраста друг к другу плохо отражает-



ся на качество занятия. В результате намеченная цель, может быть, не достигнута из-за неправильной адаптации занятий к возрасту и психологии учащихся;

Длительный отбор группы осуществляется в начале учебного года по результатам стартового контроля. Обычно стартовый контроль проводится в виде диктанта и тестирования по материалам школьной программы.

Не секрет, что разница качества знания по стартовому и итоговому контролям всегда отличается. Так как преподаватели часто оценивают учащихся за старание, чтобы заинтересовать их к дальнейшему изучению предмета. В итоге, большая часть учащихся заканчивают лицей с высокой успеваемостью по предмету, не владея русским языком на должном уровне.

Учебные группы, созданные за краткий срок, дают результаты благодаря активному учебному процессу, высокому уровню усвоения материала и стимулированию развития ученика. Однако эффективность таких групп может быть ограничена временными рамками.

Длительные учебные группы также имеют свои преимущества. Они обеспечивают стабильность, возможность глубокого погружения в предмет и формирование устойчивых связей между участниками. Однако такие группы могут столкнуться с трудностями в поддержании мотивации и удержании внимания участников на протяжении длительного времени.

Отсутствие языковой среды и групповая форма работы на занятиях препятствуют развитию устной речи учащихся.

С целью создания возможности для развития русской речи необходимо организовать дифференцированные группы. Наименее важным считается составление специальных учебных материалов в соответствии с уровнем знаний учащихся для каждой группы отдельно.

II. По военно-профессиональным интересам:

1) группа учащихся, желающая получить высшее военное образование по гуманитарному направлению; 2) группа учащихся, желающая получить высшее военное образование по точному направлению; 3) группа учащихся, желающая получить высшее военное образование по экономическому направлению.

Наблюдения показывают, что учащиеся, которые выбирают гуманитарное или экономическое направление, помимо основного подходящего направлению предмета, больше занимаются английским языком, который



входит в числа обязательных предметов при поступлении в вузы по выше-названным направлениям. Учащиеся точного направления сосредоточены на изучении математики и физики. Но, очевидно, что во всех направлениях высших военных учебных заведений необходимо владеть профессиональной лексикой на русском языке для качественной подготовки специалистов.

III. По уровню владения русским языком:

- 1) группа учеников, которые получили образование в начальных и средних классах с русским языком обучения (обычно эти ученики составляют 5% от общего числа учащихся);
- 2) группа учеников, которая слабо или в среднем уровне владеет русским языком (такие составляют 95% общего количества ученического состава).

Обучение в группах с разным уровнем владения русским языком имеет как свои преимущества, так и недостатки. К положительным моментам можно отнести то, что с учащимися, хорошо владеющими языком, можно быстро и эффективно достичь хороших результатов. Однако трудности возникают в группах, где учебная программа может быть слишком сложной для некоторых участников. В таких случаях преподавателю предстоит начинать обучение с базовых знаний. Чтобы облегчить процесс, рекомендуется разделить учащихся на небольшие подгруппы в зависимости от их уровня владения языком.

Хотя такое деление создает некоторые неудобства для учителя (требует долгой и тщательной подготовки), оно приносит облегчение ученикам тем, что не будет ощущения пустоты, скуки или неудовольствия во время урока.

IV. По успеваемости учащихся:

- 1) продвинутая группа; 2) группа, начинающая изучение русского языка.

Для успешного обучения русскому языку рекомендуем:

- 1) разделить учеников на малые группы в зависимости от их уровня знаний и способностей; 2) разработать разноуровневые задания; 3) вести постоянное наблюдение и контроль за группами, а также мониторить качество знаний;
- 4) создать «банк разноуровневых заданий», который постоянно пополняется преподавателями-русистами.

Считаем, что правильный отбор групп обучения для развития русской



речи обеспечивает устранение трудностей в изучении неродного языка и развитию способностей учащихся ВАЛ.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 28 июня 2019 года №ПП-4375 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы военно-патриотического воспитания юношей и подготовки кадрового резерва для Вооруженных Сил Республики Узбекистан и государственной службы». <https://lex.uz/ru/docs/4417963>

2. Индекс положения русского языка в мире: индекс глобальной конкурентоспособности (ГК-Индекс), индекс устойчивости в странах постсоветского пространства (УС-Индекс). Выпуск 2 / сост. А.Л.Арефьев, А.Р.Голубь, С.Ю.Камышева, И.А.Маев, А.И.Ольховская, М.А.Осадчий, М.Н.Русецкая, А.С.Хехтель; под ред. М.А.Осадчего.-Москва: Государственный институт русского языка им. А.С.Пушкина, 2022. -С.60.

3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Т.: ТГПУ, 2003. - 192 с.

4. Голиш Л.В. Тренинг – форма оперативного повышения квалификации педагогических кадров. (в вопросах и ответах). - Т.: ТГЭУ, 2008. - 144 с.

5. Голубенко А.Ю. Характерные особенности профессионального отбора в высшие военные учебные заведения // Современное образование (Узбекистан). - 2020. - №4 (89). - С. 28-33.



TA'LIM TIZIMIDA ARALASH TA'LIM ELEKTRON RESURSLARIDAN MUSTAQIL TA'LIMDA FOYDALANISH MODELII

SH.U. TEMIROV,
QARDU «Algebra va geometriya» kafedrası, asstenti

Ushbu maqolada matematika yo'nalishi bakalvriyat talabalarining kasbiy kompetentligini chiziqli algebra elementlari asosida rivojlantirishga qaratilgan aralash ta'lim vositalari asosida mustaqil ta'lim uchun elektron resurslardan foydalanish modeli keltirilgan. Modelda talabalarning nazariy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini oshirish va pedagogik kompetentlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *chiziqli algebra, aralash ta'lim, elektron resurslar, kasbiy kompetentlik, nazariy fikrlash, pedagogik kompetentlik.*

В данной статье рассматривается необходимость эффективного использования средств информационных технологий в формировании умений решать педагогические задачи, опираясь на полученные знания, умения и опыт деятельности учащихся по развитию информационной компетенции и повышению интеллектуального потенциала будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: *информационная компетентность, цифровое образование, цифровизация, информационная грамотность, интегрированное информационное образование.*

This article presents the need for the effective use of information technology tools in the formation of the ability of future primary school teachers to solve pedagogical problems, relying on the knowledge, skills and experience gained by students in developing information competence and increasing their intellectual potential.

Key words: *information competence, digital education, digitization, information literacy, integrated information education.*

Axborotlashgan jamiyatda matematika yo'nalishi bakalvriyat talabarlari o'quv-metodik ta'minot (salohiyotli mualliflar adabiyotidan)lar asosida elektron resurs tayyorlash, saqlash va o'quvchilariga yetkazishda matematika yo'nalishi bakalvriyat talabalarining axborotlar bilan ishlash va sifatli elektron resurs tayyorlash kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun matematika yo'nalishi bakalvriyat talabalarining axborotlar bilan ishlash va sifatli elektron resurs tayyorlash bosqichlarini to'g'ri bajarishning mantiqiy tuzilmasi (algoritmi)ni keltiramiz.



1-jadval.

Axborotlar bilan ishlash va sifatli elektron resurs tayyorlash bosqichlarining mantiqiy tuzilmasi

Axborotlar bilan ishlash va sifatli elektron resurs tayyorlash bosqichlarining mantiqiy tuzilmasi		
“Axborotlar asosida sifatli elektron resurs tayyorlash” aralash ta’limda qo’llash uchun matematika o’qituvchisining nazariy va amaliy bilimlari va pedagogik mahorati shakllanadi.		
Talabalar axborot tizimlarini bilgan holda mavjud adabiyotlar bilan tanishadi va (global tarmoqlarda)ishlaydi.	Talaba pedagogik amaliyotida o’quv-metodik ta’minotlar asosida sifatli elektron resurslarni tayyorlaydi, saqlashi va o’quvchilarga (ta’lim platformalari orqali) yetkazadi.	
“Axborotlar bilan ishlash va sifatli elektron resurs tayyorlash”ning asosiy maqsadi		
Matematika yo’nalishi bakalovriyat talabalarining aralash ta’lim asosida talaba (o’quvchi) larning mustaqil ishini tashkil etishga asoslangan sifatli elektron resurs asoslari bilan tanishtirish hamda ulardan amalda foydalanishni o’rgatishdan iborat.		
Aralash ta’limda sifatli elektron resurslarni joriy etilishidan kutilayotgan natijalar		
Pedagogik texnologiyalar va intellektual tizimlar asosida sifatli elektron resurs joriy etish natijasida matematika yo’nalishi bakalovriyat talabalarini boshqaruv masalalarini va fanga oid masalalarni yechishni modellashtirish hamda yechishni ratsional usullarga ega bo’lish.	Axborotlarni va sifatli elektron resurslarni ishonchligini ta’minlash	O’IM lardagi axborotlar oqimini, sifatli elektron resurs va hujjatlarni yuritishning aylanishiga e’tibor qaratib takomillashtirish.

Sifatli elektron resurslar tayyorlash vazifasi. Mavjud adabiyotlarga asoslangan, maqsadi va shu maqsadga erishish yo’llari belgilangan vazifalarni matematika yo’nalishi bakalovriyat talabalarining umumtalim maktab o’quvchilariga maqsadli ta’sir etish natijasida o’quvchilarda bilim, ko’nikma, malaka shakllantirish natijasida – o’quvchining mustaqil qaror qabul qilish jarayoni tushuniladi. Qaror qabul qilish jarayonini ta’minlash aynan matematika faniga kerakli axborot (harakatli ko’rgazma va rasm)larning kerakli vaqtda va kerakli joyga taqdim etish – matematika yo’nalishi bakalovriyat talabasini aralash ta’lim jarayonida sifatli elektron resursidan foydalanishning asosiy vazifalari hisoblanib, pedagogik moharati baholaydi.

Umumta’lim maktab o’quvchilariga sifatli elektron resursning asosiy mazmunini, keng doirada qo’llanadigan ma’nosini tushunadilar. Umumta’lim maktab o’quvchilari atrofidagi real voqealiklar mazmunini aks ettirgan, fanlar aro bog’liqlikni, mantiqiy fikrlaydigan va amaliy ahamiyatga ega resurslarga e’tibor qaratiladi. Buning sababi umumta’lim maktab o’quvchilari real voqea – hodisalar va predmetlarning asl mohiyatini asoslarini anglaydilar. Shuning uchun umumta’lim maktab o’qituvchilari axborotlarning tub maz’mu (o’quv-metodik ta’minot, elektron resurs)ni matematik qattiylik asosida tayyorlash malakasiga ega bo’lishlari shart [2].

Matematika yo’nalishi bakalovriyat talabalarida axborot bilan ishlash asosida



sifatli elektron resurs tayyorlash hamda aralash ta'lim uchun zarur bo'ladigan mavjud kompetensiyasilarini keltiramiz (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalarida axborot bilan ishlash asosida sifatli elektron resurs tayyorlash hamda aralash ta'lim uchun zarur bo'ladigan mavjud kompetensiyasilar

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi			
Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio, audio-video yozuv, telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqa) foydalana olish.	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, sarflash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar ma'lumotlar bazasini yaratish, asosiy larini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish.	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish, ma'lumotlarni ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd yeta olish va boshqa)
Kompetensiyani tatbiq qilish usullari			
Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar dars mavzusiga oid ma'lumotlar bazasini yaratish, asosiy larini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish.	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar axborot bilan ishlash kompetensiyasi talabalarga sifatli elektron resurs asosida matematik tayanch tushunchalarni taqdim etish, masalalarni yechishda hamda mustaqil ishlarni bajarishda kordinatsion yordam bera olishi.	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar o'z o'quvchilarga yo'yilgan masalaga oid savolnomalarni taqdimotini bera olishi.	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar o'zi xarakatga keltirilib, kuzatib yangi darsga va mustaqil ta'limga tayyorlab borishi.
O'z o'rnida matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar bilan o'quvchilarni o'zaro muloqotda bo'lib, yangi darsni tayyorlanishadi.			
Axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari va ulardan foydalanish.			
Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar jarayonlar haqida puxta va ongli ravishda o'zlashtirish va mantiq fikrlashi uchun talabalarga	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar o'quv va keyingi ish faoliyatlarida kompyuterlardan oqilona foydalanib, o'quvchilarda kompyuterlardan ishlash ko'nikma va	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalar bergan bilimlar asosida talabalarda matematika fanini va raqamli texnologiyalarining mamlakatimiz taraqqiyotiga	Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalarga dasturiy ta'minotlar (sistemali dasturlar, amaliy dasturlar, uskunaviy dasturlar) magnit disklar bilan tanishtirish.

Talabalarining axborotning muloqot jarayonini ta'minlashga xizmat qiluvchi funksiyani anglashlari muhim. Ta'lim jarayoni – bu avvalo axborot almashinish jarayonidir. Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalarga tegishli axborot beradi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida bayon qilingan axborotlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi.



Matematika yo‘nalishi bakalovriyat talabalarda axborotlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur kabilar)ni, ziyraklik, sinchkovlik, fikrlay olish kabi xislatlarini rivojlantirishi bilan muhimdir. Globollashuv davrida taraqqiy etib borayotgan axborotlar oqimi jamiyatida ijtimoiy rivojlanishning asosini insonlarning intellektual salohiyati, faoliyati, mustaqil ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi.

Ta‘lim jarayonida axborotlar bilan ishlash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amaliyoti ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta‘limning talablari xususan, «mehnat bozoridagi dinamik o‘zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko‘nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo‘lgan talablarning ortishi» kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘limni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim muammolari o‘rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi.

Matematika yo‘nalishi bakalovriyat talabalarining chiziqli algebra elementlari moduli oid masalalarini yechishni modellashtirish orqali ularda mavjud adabiyotlar va sifatli elektron reseruser axborot bilan ishlash kompetentligi rivojlanadi.

Sifatli elektron reseruserda namuna keltiramiz.

Umum ta‘lim maktablarini 8-sinflarida uchraydigan tipik modulli tenglamalarni yechishda chiziqli algebra elementlari moduli tayanch tushunchalari asosida yechishni keltiramiz.

Misol. 1. $||x - 1| - 3| = 2$ tenglamani yechish uchun chiziqli algebra elementlari moduli tayanch tushunchalari asosida yo‘l tutamiz, ya‘ni:

$$||x - 1| - 3| = 2 \Leftrightarrow \begin{cases} |x - 1| - 3 = 2 \\ |x - 1| - 3 = -2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} |x - 1| = 5 \\ |x - 1| = 1 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} \begin{cases} x - 1 = 5 \\ x - 1 = -5 \end{cases} \\ \begin{cases} x - 1 = 1 \\ x - 1 = -1 \end{cases} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 6 \\ x = -4 \\ x = 2 \\ x = 0 \end{cases} \text{ Demak, tenglama}$$

yechimlari $x_1 = 6, x_2 = -4, x_3 = 2, x_4 = 0$ sonlaridir.

Misol. 2. $10^{15} + 10^{17} - 74$ sonining ga bo‘lganda qoldiqni aniqlang.

Yechish. Bu misolni yechishda o‘qituvchi o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Dastlab, sonining ga bo‘linishini aniqlash uchun har bir qo‘shiluvchini ga bo‘lgandagi qoldiqni aniqlashimiz kerak. Matematika tayanch tushunchasi bo‘lgan $(a + b)^n = a^n + C_n^1 a^{n-1} b + C_n^2 a^{n-2} b^2 + \dots + C_n^{n-1} a b^{n-1} + b^n = a \cdot A + b^n$ eslatamiz va shu tayanch tushuncha asosida: $10 = 9 + 1$ ekanini hisobga olib, $10^{15} = (9 + 1)^{15} = 9B + 1$ hamda $10^{17} = (9 + 1)^{17} = 9C + 1$ ekanligidan foydalanib, $10^{15} + 10^{17} - 74 +$



$9B + 1 + 9C + 1 - 74 + 9B + 9C - 72 + 9(B + C - 8)$ ni hosil qilamiz. Demak, berilgan sonning 9 ga bo'lganda qoldiq nolga teng ekan, ya'ni qoldiqsiz bo'linar ekan.

Misol. 3. $\overline{abc-cba}$ ayirmanni ham 9 ga, ham 11 ga bo'linishini ko'rsating.

Yechish. Odatda uch xonali sonlarni $\overline{cba} = 100c + 10b + a$ ko'rinishida yoziladi. Shu son raqamlaridan, lekin ularning teskari tartibida yozilgan son esa $\overline{abc} - \overline{cba} = (100a + 10b + c) -$ bo'ladi. Ularni ayirsak: $-(100c + 10b + a) = 100a + 10b + c - 100c - 10b - a = 99a - 99c = 99(a - c) = 11 \cdot 9 \cdot (a - c)$. Yakuniy hosil bo'lgan ko'paytmaning ko'paytuvchilaridan biri 99, demak bu ko'paytma ham 9 ga, ham 11 ga bo'linadi.

Shuning uchun bo'lajak matematika o'qituvchilari matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalarining matematik qattilikga tayanib mavjud reseryslarni kamchilik bartaraf etgan holda axborot bilan ishlash asosida sifatli elektron reserustayyorlash kompetensiyasini rivojlantirishning ustuvor muammolaridan biri hisoblanadi. Matematika yo'nalishi bakalovriyat talabalarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish maz'muni sifatida maktab o'quvchilarini matematika faniga qiziqishi, olib boriladiga darslarga qiziqish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilishini saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida» gi 2017 yil 6 apreldagi 187-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 14 (774)-son, 230-modda // www.lex.uz

2. Ruzikulova N. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtirishni rivojlantirish omillari. // Maktab va hayot ilmiy-metodik jurnali. - Toshkent, 2013. - № 3.



PEDAGOGIK JARAYON VA TENDENSIYALARNI STRATEGIK REJALASHTIRISHNI MODELLASHTIRISH

J. O. TOLIPOVA,

O'zMPV qoshidagi
PKQTMO tarmoq markazi,
pedagogika fanlari doktori

Maqolada pedagogik jarayon va tendensiyalarni modellashtirishning AHD (Hierarchical Decision Algorithm) – Ierarxik qaror qabul qilish algoritmi DELPHI (Ekspert fikrlarini anonim ravishda yig'ish va tahlil qilishga asoslangan prognostik tadqiqot) asosiy metodlariga xos xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik kvalimetriya, pedagogik jarayon va tendensiyalarni modellashtirish, modellashtirishning asosiy tushunchalari, mezonlari, agregatsiya, AHD, DELPHI metodlari

В статье дана характеристика основных методов моделирования педагогических процессов и тенденции: AHD (Hierarchical Decision Algorithm) – Иерархический алгоритм принятия решений DELPHI (Прогностические исследования на основе анонимного сбора и анализа экспертных мнений).

The thesis provides a description of the main methods of modeling pedagogical processes: AHD (Hierarchical Decision Algorithm) - DELPHI (Predictive research based on anonymous collection and analysis of expert opinions).

Respublikamizda 3-Renesans talablari asosida pedagogik jarayonlar-ning sifati va natijadorligini o'rtirish yuzasidan huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, mazkur talablar asosida pedagogik jarayonlarni modellashtirish, muayyan o'zgartirishlar kiritish asosida modernizatsiyalash oliy ta'lim didaktikasining dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Kvalimetriya – (lotincha quailis-sifat, qadimiy yunoncha metros – o'lchov) degan ma'noni anglatib, obyekt, mahsulot, jarayonlar sifatini miqdoriy baholash metodlarini o'zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog'i.

Kvalimetriyaning amaliy tarmog'i bo'lgan pedagogik kvalimetriya keng ma'noda pedagogik kadrlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligining sifati, ular tomonidan tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar sifatini miqdoriy baholash metodlarini o'zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani aniq belgilaydi[1].

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va natijadorlik ko'rsatkichini aniqlashda kvalimetrik yondashuvlar va metodlaridan foydalanish yuzasidan muayyan



tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Muhandislik pedagogikasi xalqaro jurnalida chop etilgan Guraliuk, A., Varava, I., Holovko, S., Shapenko, L., & Oleshchenko, V.lar tomonidan yozilgan maqolada masofaviy ta'limning didaktik maqsadi, vazifalari, ahamiyati, metodik ta'minoti va resurslarini baholashda kvalimetrik yondashuvlar va ekspert baholash usullari tahlil qilingan[2].

Qarag'anda universiteti Pedagogika seriyasining xabarnomasida M.H. Baybaeva, tomonidan chop etilgan Pedagogik kvalimetriya pedagogika fanining nazariy va amaliy yo'nalishi sifatida maqolasida pedagogik kvalimetriyaning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, shaxsiy ta'lim yutuqlarini baholashdagi o'rni yoritilgan[3].

Pedagogika va psixologiyaning asosiy masalalari jurnalida Topuzyan, A. va Markosyan, N. tomonidan tayyorlangan Pedagogik kvalimetriya pedagogik jarayonning asosiy subyektlari faoliyatining sifatini o'lchash vositasi sifatida maqolasi chop etilgan. Ushbu tadqiqotda yagona pedagogik jarayonning ishtirokchilari bo'lgan pedagogning pedagogik faoliyati va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini baholashda kvalimetriyaning ahamiyati va zamonaviy qo'llanish shakllari tahlil qilingan[4].

«InterConf» ilmiy to'plamida G.Abdullaeva tomonidan tayyorlangan Baholashda innovatsion yondashuv: kvalimetriya va talaba shaxsiga yo'naltirilgan universitet ekotizimlari maqolasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini individuallashtirish, jarayonda erishilgan natija va yutuqlarini baholashda kvalimetriya asosidagi innovatsion yondashuvlar va ekotizimlar yoritilgan[5].

O'qituvchining pedagogik faoliyatida Pedagogik kvalimetriya usullaridan foydalanish masalasi I.A.Uzakov tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu maqolada pedagogik kvalimetriya usullarining ta'lim jarayonidagi qo'llanilishi va ularning samaradorligi tahlil qilingan[6].

Ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilgan 3-Renesans ta'lim sifati va samaradorlik ko'rsatkichini orttirishni talab etadi. Bu jarayonni amalga oshirishda modellashtirish muhim o'rin tutadi.

Kvalimetrik modellashtirish – bu obyektlar, pedagogik jarayonlar yoki hodisalarning sifatini baholash uchun matematik, mantiqiy va axborot texnologiyalariga asoslangan modellar yaratish va u orqali obyekt sifati va samaradorligini hisoblash metodi sanaladi. Bu metod pedagogik kvalimetriyada ta'lim sifatini aniq va ta'sirchan tarzda baholash uchun keng qo'llaniladi.

Kvalimetrik modellashtirishning asosiy tushunchalari:

1. Model – baholanadigan ob'ekt (masalan, o'quv jarayoni, o'qituvchi faoliyati, talabaning bilim darajasi va h.k.) sifatini o'zida ifoda etuvchi strukturalashtirilgan



ko'rinish. Bu model asosida aksari hollarda kriteriy va ko'rsatkichlar to'plami shakllantiriladi.

2. Kriteriyalar va ko'rsatkichlar – ta'lim sifatini tavsiflovchi va ifodalovchi shartli belgilar va me'yorlar. Kvalimetrik diagnostika o'tkaziladigan obyektning maqsadi, vazifalari, malaka talablari asosida aniqlashtiriladi va belgilangan shkala bo'yicha baholanadi.

3. Ta'lim sifati koeffitsientlari (весовые коэффициенты) – har bir ko'rsatkichning umumiy sifat bahosiga ta'sirini ko'rsatadi.

4. Agregatsiya – alohida ko'rsatkichlar natijalarini umumiy sifat bahosiga aylantirish jarayoni. Bu uchun muayyan matematik funksiyalar (masalan, minimum, maksimum talablar asosida o'rtacha miqdor ko'rsatkichini aniqlash) qo'llaniladi.

Kvalimetrik modellashtirish bosqichlari:

1. Baholanadigan obyektning aniqlash (masalan: o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi malakasi, ta'lim dasturi va silabusning sifati)

2. Kriteriyalar va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish (sifat ko'rsatkichlari tarkibi va ularning strukturasi)

3. Ta'lim sifati koeffitsientlarini belgilash (ekspert baholari, AHP, Delphi metodi va h.k. asosida)

4. Ko'rsatkichlar bo'yicha baholarni yig'ish va ularni me'yorlashtirish.

5. Agregatsiya metodi orqali umumiy sifat ko'rsatkichining o'rtacha bahosini hisoblash

6. Natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish

Misol:

Agar ta'lim sifati va samaradorlik ko'rsatkichi 3 ta asosiy kriteriy asosida baholanishi lozim bo'lsa:

– Ta'lim mazmuni sifati (0.4)

– Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilgan o'qitish metodlari va texnologiyalar (0.3)

– Tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash tizimi (0.3)

Har biri 5 ballik shkalada baholangan bo'lsa:

Agar ta'lim-tarbiya jarayoni mazkur kriteriy asosida 4, 5, 3 ball bilan baholangan bo'lsa:

Umumiy sifat bahosi = $(4 \times 0.4) + (5 \times 0.3) + (3 \times 0.3) = 1.6 + 1.5 + 0.9 = 4.0$.

Demak ta'lim-tarbiya jarayonidagi sifat 4-ballni tashkil etadi.

Kriteriy va ko'rsatkichlar shakli



№	Kriteriy nomi	Ko'rsatkichlar	Sarmoq koef. (W)	Baho (0-5)	W × Baho
1	Ta'lim mazmuni sifati	Darsliklar, o'quv materiallari, fan mazmuni	0.4	4	1.6
2	O'qitish metodlari va texnologiyalar	Interaktivlik, ilmiylik, zamonaviy texnologiyalar	0.3	5	1.5
3	Nazorat va baholash	Aniq, adolatli va tizimli baholash	0.3	3	0.9
	Jami		1.0		4.0

Izoh: Ta'lim sifati va samaradorlik ko'rsatkichining asosiy kriteriyalari maqsadga muvofiq o'zgaruvchan bo'ladi.

Kvalimetrik diagnostikani qo'llanish sohasiga quyidagilar:

- Ta'lim-tarbiya jarayoni sifati baholash;
- O'qituvchilarning pedagogik faoliyati va ta'lim mazmuni (o'quv reja, modullar bo'yicha o'quv dasturlari)ni reytinglash;
- O'qituvchilarning pedagogik faoliyati va ta'lim mazmunini pedagogik ekspertizadan o'tkazish;
- Ta'lim tashkilotini ichki va tashqi nazorat tizimlarida foydalanish;
- Ta'lim tashkilotini akkreditauiya va attestatuiyani o'tkazish jarayonlarini kiritish mumkin.

Pedagogik modellashtirishda asosiy metodlar sifatida AHD (Algorithm of Hierarchical Decisions- Ierarxik qaror qabul qilish algoritmi) va DELPHI (Ekspert fikrlarini anonim ravishda yig'ish va tahlil qilishga asoslangan prognostik tadqiqot) metodlari tahlil, qaror qabul qilish va prognozlashda keng qo'llaniladi. Ushbu metodlar, ayniqsa, murakkab pedagogik jarayon va tizimlarni o'rganish, ta'lim sifati va samaradorligini orttirish, kelgusida rivojlanish yo'l xaritalarini ishlab chiqishda samarali foydalaniladi.

AHD (Hierarchical Decision Algorithm) – Ierarxik qaror qabul qilish algoritmi tizimda qaror qabul qilish modeli bo'lib, umumiy maqsadni kichik maqsadlar va vazifalarga ajratishga asoslanadi. Bu metod, asosan, murakkab pedagogik muammolarni tuzilmali tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Mazkur metod pedagogik tizimlarni (masalan, ta'lim dasturlari) ierarxik tahlil qilish, qaror qabul qilishda ustuvorliklarni belgilash, turli omillarning ta'sirini baholashda qo'llaniladi.

AHD (Hierarchical Decision Algorithm) – Ierarxik qaror qabul qilish algoritmlari:

1. Didaktik maqsadni aniqlash – o'rganiladigan ob'ekt yoki jarayonning umumiy muammosi yoki masalani aniqlash.



2. Ierarxik tuzilishni shakllantirish – didaktik maqsad asosida, diagnostik mezonlar, turli variantlarning darajalarini ishlab chiqish.

3. Mohiyati uzviy bo‘lgan ko‘rsatkichlarni qiyoslash – har bir mezon va variantlar juftlab qiyoslanadi.

4. Ko‘rsatkichlar hisoblanadi – Ta‘lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadigan omillarning ahamiyat darajasi aniqlanadi.

5. Optimal qaror qabul qilinadi – umumiy reytingga asosan eng maqbul variant tanlanadi.

AHD (Hierarchical Decision Algorithm) – Ierarxik qaror qabul qilish algoritmining afzalliklari:

– Mazkur metodda belgilangan maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv amalga oshadi;

– Ta‘lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadigan omillarni har tomonlama tahlil imkoniyati vujudga keladi;

– Ta‘lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligi yuzasidan qaror qabul qilishda ob‘ektivlik oshadi.

2. DELPHI metodining mohiyati bu jarayonda ta‘lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan birgalikda ularni tahlil etadigan ekspertlar ishtirok etadi.

DELPHI – ekspert fikrlarini anonim ravishda yig‘ish va tahlil qilishga asoslangan prognostik tadqiqot metodi. Bu metod kelajakdagi pedagogik jarayonlar, tizimlar, texnologiyalarning rivojini bashorat qilish va yo‘l xaritasini tuzishda foydalaniladi.

Mazkur metod:

– Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun pedagogik tendentsiyalarni bashorat qilish;

– Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta‘lim-tarbiya jarayoniga tatbiqini joriy etishda ekspertlar fikrini aniqlash;

– Ta‘lim siyosati, tendentsiya va strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu metoddan foydalanishda quyidagi algoritmlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. O‘rganiladigan obyektning muammosini belgilash – ta‘lim sifatini tahlili yoki prognoz mavzusi aniqlanadi.

2. Ekspertlar tanlanadi – shu sohada tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

3. Anketa tuziladi va tarqatiladi – ta‘lim sifatini orttirishga oid savollarga javoblar anonim ravishda yig‘iladi.

4. Javoblar tahlil qilinadi va qayta so‘rov o‘tkaziladi – so‘rovnoma bir necha bosqichda o‘tkazilishi mumkin.

5. Konsensusga erishiladi – ta‘lim sifati yuzasidan ekspertlarning fikri asosida umumlashirilgan fikr shakllantiriladi.



Mazkur metodning afzalliklari:

- Ekspertlar fikriga asoslangan aniq bashorat shakllanadi;
- Fan yangiliklari yuzasidan ijtimoiy bosimlarsiz natijaga erishish imkoniyati vujudga keladi;
- Fan rivoji yuzasidan yangi g‘oyalarning ilg‘or shaklda shakllanishiga zamin yaratiladi.

Xulosa:

- AHD pedagogik jarayonlarni tuzilmali tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun qulaylik tug‘diradi.
- DELPHI esa kelajakdagi pedagogik tendentsiyalarni aniqlash va strategik rejalashtirish uchun mos keladi.

AHD va DELPHI metodlarining pedagogik kvalimetriyada qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu metodlar ta‘lim sifatini baholash, mezonlarni aniqlash va qaror qabul qilish jarayonlarida metodologik asos vazifasini o‘taydi. Pedagogik kvalimetriyaning metodologik asosini anglash uchun mazkur metodlarni qiyosiy tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O‘quv qo‘llanma. TDPU. 2015.
2. Guraliuk, A., Varava, I., Holovko, S., Shapenko, L., & Oleshchenko, V. (2023). Expert Assessment of the Quality of Remote Educational Resources. *International Journal of Engineering Pedagogy (iJEP)*, 13(1), 34-44. <https://doi.org/10.3991/ijep.v13i1.36121>
3. Baybaeva, M.H. (2024). Qualimetry of education as a theoretical and practical direction in pedagogical science. *Bulletin of the Karaganda University Pedagogy Series*,
4. Topuzyan, A., & Markosyan, N. (2023). Pedagogical Qualimetry as a Means of Measuring the Quality of the Activities of the Main Subjects of the Pedagogical Process. *Main Issues Of Pedagogy And Psychology*, 9(1). <https://doi.org/10.24234/miopap.v9i1.427>
5. Abdullaeva, G. (2023). Innovative Approach to Assessment: Qualimetry and Personalized University Ecosystem. *Scientific Collection «InterConf»*, (146), 81-87. <https://archive.interconf.center/index.php/conference-proceeding/article/view/2653>
6. Uzakov, I.A. (2024). Use of Pedagogical Qualimetry Methods. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(11), 290-294. <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/22994>
5. Uzoqov, I.A. (2024).



MA'RIFATLI JAMIYATDA «O'QITUVCHI OBRO'SINI OSHIRISH» JARAYONING MODELI

A. J. KAMALOV,

Qori Niyoziy nomidagi
TPMI mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Mazkur maqolada ma'rifatli jamiyatda o'qituvchi obro'sini oshirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari, pedagogik va ijtimoiy omillari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda ta'lim tizimining transformatsiyasi, o'qituvchi maqomini mustahkamlashda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining o'rni, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining o'zaro aloqasi ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan «O'qituvchi obro'sini oshirish jarayonining modeli» ishlab chiqilib, unda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy komponentlar uyg'unligi asosida samaradorlik mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, obro', ma'rifatli jamiyat, pedagogik jarayon, ijtimoiy model.

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы процесса повышения престижа учителя в просвещённом обществе. Проведён научный анализ педагогических и социальных факторов, влияющих на формирование высокого статуса учителя. Особое внимание уделено трансформации образовательной системы, роли духовно-нравственных ценностей, государственной политики и институтов гражданского общества. Автором разработана модель процесса «Повышение престижа учителя», включающая личностный, профессиональный и социальные компоненты.

Ключевые слова: учитель, престиж, просвещённое общество, педагогический процесс, социальная модель.

This article explores the theoretical and methodological foundations of the process of enhancing teachers' prestige in an enlightened society. It provides a scientific analysis of pedagogical and social factors shaping teachers' professional status. The study emphasizes the transformation of the educational system, the role of spiritual and moral values, state policies, and the activities of civil society institutions. The author proposes a «Model of Enhancing Teacher Prestige» that integrates personal, professional, and social components to ensure effectiveness.

Key words: teacher, prestige, enlightened society, pedagogical process, social model.

Ma'rifatli jamiyat qurishning bosh sharti – ilm va ma'rifatni tarbiyalovchi, uni yosh avlodga yetkazuvchi o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchining obro'sini oshirish masalasi nafaqat ta'lim tizimida, balki umummilliy qadriyatlar tizimida ham muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy globallashtirish davrida ta'lim jarayonining



sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchi maqomi, uning kasbiy kompetensiyasi va ijtimoiy nufuziga bog‘liq. Shu bois o‘qituvchining obro‘cini oshirish jamiyat taraqqiyotining dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism: O‘qituvchi obro‘cini oshirish jarayoni pedagogika, sotsiologiya va falsafaning kesishgan nuqtasida o‘rganiladi. UNESCO va OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, ta‘lim sifatini oshirishda o‘qituvchi maqomining yuksalishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. U. Bronfenbrenning «ekologik tizim nazariyasi»ga ko‘ra, shaxs rivoji ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi nufuzi ijtimoiy institutlararo hamkorlik orqali shakllanadi. O‘qituvchi obro‘cini oshirishning omillari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

– Shaxsiy komponent: o‘qituvchining axloqiy fazilatlarini, intellektual salohiyatini, o‘z ustida ishlashi. Bu O‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini uning jamiyatdagi obro‘cini belgilovchi eng muhim omillardandir. Avvalo, o‘qituvchi intellektual salohiyatga ega bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida ilmiy-nazariy bilimlar va metodik yondashuvlardan samarali foydalana olishi zarur. Shu bilan birga, uning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini – halollik, adolatparvarlik, mehribonlik va sabr-toqat – o‘quvchilarga ham, ota-onalarga ham ishonch uyg‘otadi. O‘qituvchi shaxsining kasbiy e‘tiqodi, ya‘ni o‘z kasbini chin dildan sevishi va unga sodiq bo‘lishi, uning obro‘cini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

– Kasbiy komponent: metodik kompetensiya, innovatsion yondashuvlar, raqamli pedagogika ko‘nikmalari. Bugungi globallashtirish va raqamli texnologiyalar davrida o‘qituvchining obro‘cini belgilovchi eng asosiy omillardan biri – bu kasbiy kompetensiyadir. O‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, zamonaviy pedagogik metodikalarni qo‘llashi, shuningdek, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘z ustida doimiy ishlashi, malaka oshirish kurslarida muntazam qatnashishi va ilmiy izlanish olib borishi uning kasbiy salohiyatini oshiradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, ta‘lim sifati va o‘qituvchi obro‘cining ortishiga olib keladi.

– Ijtimoiy komponent: davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimi, ommaviy axborot vositalarida ijobiy imidj yaratish. O‘qituvchining jamiyatdagi nufuzi nafaqat uning shaxsiy va kasbiy salohiyatiga, balki davlat va jamiyat tomonidan beriladigan e‘tiborga ham bog‘liq. Davlat siyosatida o‘qituvchi maqomi yuksak qadrlanishi, moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida o‘qituvchi obrazini ijobiy ko‘rsatish, ularning yutuqlarini targ‘ib etish



ham o'qituvchi obro'sini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari ham o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini mustahkamlashga faol hissa qo'shishi zarur.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar roli ham alohida e'tiborli tomondir. Sharq mutafakkirlari (Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy) o'qituvchini «jamiyatning murabbiyi» sifatida ta'riflagan. Hozirgi davrda ham ma'naviyat va milliy qadriyatlarni o'qituvchi shaxsiyatida mujassamlashtirish uning obro'sini yuksaltiradi.

«O'qituvchi obro'sini oshirish» jarayonining modeli muallif tomonidan ishlab chiqilgan model quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Diagnostika bosqichi – o'qituvchilarning mavjud maqomini o'rganish.
2. Motivatsion bosqich – o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.
3. Kasbiy rivojlanish bosqichi – innovatsion treninglar, ilmiy izlanishlar, malaka oshirish dasturlari.
4. Ijtimoiy integratsiya bosqichi – o'qituvchi imidjini jamiyatda targ'ib qilish, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy namoyon qilish.
5. Monitoring va baholash bosqichi – natijalarni o'lchash va doimiy takomillashtirish.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab mamlakatlarda o'qituvchining maqomi oliy darajada e'tirof etilgandur. Misol uchun: Finlyandiya modeli: o'qituvchi kasbining eng nufuzli soha sifatida e'tirof etilishi. Janubiy Koreya tajribasi: o'qituvchilarni jamiyatda eng yuqori qatlam vakili sifatida qadrlash. O'zbekiston tajribasi: «O'qituvchi va murabbiylar kuni», davlat mukofotlari, ustozshogird an'analari orqali o'qituvchining maqomini mustahkamlash. «O'qituvchi obro'sini oshirish jarayonining modeli» turli hil bosqichlarda amalga oshiriladi:

– Diagnostika bosqichi. Bu bosqichda o'qituvchilarning jamiyatdagi real obro'-e'tibori, ijtimoiy maqomi va kasbiy faoliyatidagi mavjud muammolar o'rganiladi. Sotsiologik so'rovlar, monitoring va kuzatuvlar orqali ularning nufuzi darajasi aniqlanadi.

– Motivatsiya bosqichi. O'qituvchilarning kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirish muhimdir. Bu jarayonda yuqori ish haqi, mukofotlar, faxriy unvonlar bilan taqdirlash, jamiyatda ularning maqomini qadrlash kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

– Kasbiy rivojlanish bosqichi. O'qituvchilarning malakasini oshirish, zamonaviy treninglarda ishtirok etishi, ilmiy izlanish olib borishi, raqamli texnologiyalarni egallashi



ularning kasbiy kompetensiyasini oshiradi. Bu esa o'qituvchining professional nufuzi bilan bir qatorda ta'lim sifati oshishiga ham xizmat qiladi.

– Ijtimoiy integratsiya bosqichi. O'qituvchining jamiyatdagi ijobiy imidjini shakllantirish, ularning yutuqlarini OAVda targ'ib qilish, ijtimoiy tarmoqlarda ustozlarning hurmatini mustahkamlash muhimdir. Bu bosqichda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik ham faol ishtirok etadi.

– Monitoring va baholash bosqichi. O'qituvchi obro'sini oshirish jarayonining samaradorligi muntazam ravishda nazorat qilinadi. Har bir bosqich natijalari tahlil qilinib, muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqiladi.

Xulosa. Ma'rifatli jamiyatda o'qituvchi obro'sini oshirish jarayoni murakkab, ko'p qirrali hamda tizimli yondashuvni talab etadi. Taklif etilgan model o'qituvchi maqomini oshirishning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy komponentlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi ta'lim sifatini, jamiyatning intellektual salohiyatini va ma'naviy barqarorligini ta'minlaydi. Mazkur modelning har bir bosqichi o'zaro uyg'unlikda ishlaydi va natijada jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, ma'naviy jihatdan yetuk, kasbiy jihatdan kompetent va ijtimoiy jihatdan obro'li o'qituvchilarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, ma'rifatli jamiyat barpo etish hamda yosh avlodni yuksak intellektual va axloqiy darajada tarbiyalashning kafolatli yo'lidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
4. Hargreaves A. Teaching in the Knowledge Society. Teachers College Press, 2003.
5. OECD. Education at a Glance. Paris: OECD Publishing, 2022.
6. UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing, 2021.



BOLANI ILK YOSHIDAN BOSHLAB TEJAMKORLIK VA IQTISODIY TARBIYAGA O'RGATISHDA OILAVIY QADRIYATLARNING O'RNI

DJ.K.FAZILOV,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti
etakchi ilmiy xodimi, p.f.n

Globallashuv jarayonida farzand tarbiyasi va uni hayotda o'z o'rini topishi uchun tejamkorlikning ahamiyati beqiyos. Bolaning tarbiyasida jamiyatdagi axloqiy mezonlar ko'p jihatdan qonuniy yoki ma'muriy choralar bilan emas, balki jamoatchilik fikri, shaxsning xulq-atvorini baholash bilan belgilanadi. Bolalikdagi tarbiya, oilaviy muhit nazoratsiz xatti-harakatlar inson hayotida bir umr salbiy yoki ijobiy fe'l-atvorga aylanib, odat bo'lib qoladi va ularning ish faoliyatida ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning ma'naviy kamoloti, tejamkorligi uning kelajagida muhim ahamiyat kasb etishi, bu masala ilmiy yechimlarini kutayotganligi tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, davlat, mahalla, ta'lim muassasasi, intellektual rivojlanish, tarbiya, ta'lim, xulq, individual, falsafa, odob, tadqiqot, ruhiyat, mafkura.

В условиях глобализации значение бережливого воспитания ребёнка и его способности найти своё место в жизни является бесценным. В воспитании ребёнка нравственные критерии общества во многом определяются не столько законодательными или административными мерами, сколько общественным мнением и оценкой поведения личности. Воспитание, полученное в детстве, семейная среда и неконтролируемые формы поведения могут на всю жизнь сформировать у человека отрицательные или положительные качества и превратиться в привычку, влияющую на его профессиональную деятельность. Подчёркивается, что духовное совершенствование личности и её бережливость имеют важное значение для будущего человека, и эта проблема требует научного решения.

Ключевые слова: семья, общество, государство, махалля, образовательное учреждение, интеллектуальное развитие, воспитание, образование, поведение, личность, философия, этикет, исследование, психика, мировоззрение

In the process of globalization, the importance of frugality for a child's upbringing and their ability to find their place in life is invaluable. In a child's development, the moral standards of society are shaped not so much by legal or administrative measures, but by public opinion and the evaluation of an individual's behavior. Childhood upbringing, the family environment, and uncontrolled behaviors can turn into lifelong negative or positive character traits, becoming habits that influence a person's professional life. It is emphasized that an individual's spiritual development and frugality play an important role in their future, and this issue requires scientific analysis.

Key words: family, society, state, mahalla (community), educational institution, intellectual development, upbringing, education, behavior; individual, philosophy, etiquette, research, psychology, ideology.



Barchamizga ma'lumki qadimdan oilada farzand tug'ilishi bilan unga hayot maktabini o'rgatish, bolaga bilim berish bilan bir qatorda uning ongaiga oila va jamiyatdagi qadriyatlarini singdirish, biror bir kasb hunarni egallashi va hayotda o'z o'rnini topishida, ota-ona va atrofdagilarning o'rni katta maktab vazifasini o'tagan.

Ayniqsa bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayotimizda chetdan kirib kelayotgan ommaviy madaniyat aksariyat holatlarda bolalarimiz ta'lim tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayapti. Bu esa oilada ulg'ayib voyaga yetayotgan har bir farzandning boshlang'ich bilim sirlarini egallashi, qaysidir hunarni o'rganishi, yoshligidan tejamkorlik va iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni egallash, atrofdegilar bilan o'zaro xushmuomala bo'lishi va o'zidan oldin o'tgan avlod tomonidan qoldirilgan oilaviy qadriyatlar va udumlarga amal qilib kelajak hayotini shakllantirishiga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda.

Мазкур масалادا О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrda «Umumiy ovqatlanish korxonalarida sodir bo'ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 589-son qarori bilan tasdiqlangan «Oqilona iste'mol» («Save food») dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

Mazkur chora-tadbirlar rejasining 12-bandida, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga bir qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda «Yosh avlodga oilaviy ro'zg'or sharoitida resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish va uy xo'jaligini boshqarish asoslarini o'rgatish» bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish vazifasining yuklatilganligi, mazkur masalada har bir ta'lim muassasasi mutasaddilari oila bilan hamkorlikda bolaga ro'zg'or sharoitida mavjud resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish va uy xo'jaligini boshqarish bo'yicha ko'rgazmali o'quv qurollari orqali treninglar o'tkazish masalasi alohida e'tibor markazida bo'lishini taqozo etadi.

Hozirgi zamonda yoshlarimiz har bir sohada juda katta yutuqlarga erishish bilan bir qatorda oilaviy qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar, ota-ona va buvi-buvalarning o'z harakatlari bilan bolaga berilgan axloqiy fazilatlarini egallashi lozimligiga panja orasidan qarab, bu masalaga o'ta e'tiborsizlik bilan qarashmoqda.

Azaldan o'zbek mahallarida tarbiyalangan bolalar bir-biriga inoqligi, to'y-marakalarni o'tkazishda hamjihatligi, oilalarda hashar yo'li bilan o'y qurish, ekin ekish, yer-tomarqa ishlarida yordam berish va mahalladagi nochor oilalarga ko'maklashishdek savob ishlarni xuddi bir oila farzandlaridek birgalikda bajarishgan. Bu esa shu mahallada istiqomat qiladigan yoshlarni inoqlikka, mehr-oqibatga, bir-biriga nisbatan ishonch va do'stlik rishtalarini jipslashtirishga katta turtki bo'lgan. Shu sababli yoshligidan boshlab bu sharoitda o'sgan bolalar bir umr tengdoshlari va mahalladoshlar bir-biriga tayangan, qo'llab-quvvatlashgan.



Ming afsuski oxirgi 30-40 yillar mobaynida ba'zi bir uzoq qishloqlarda bu an'ana va udumlar qisman saqlangan bo'lsada, aksariyat holatlarda haddan tashqari zamonaviylashib borayotgan farzanlarimizda o'zbekona urf-odatlar va an'analar asta sekinlik bilan yo'qolib borayotgan ko'zga yaqqol tashlanayapti.

Shu o'rinda bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri yoshlarimizni tejamkorlikka va iqtisodiy tarbiyaga o'rgatishda oilaviy qadriyatlarining o'rni to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Bolalarimizni tejamkor va iqtisodiy tarbiyaga o'rgatishda bir hayotiy misolga e'tibor qaratishni joiz deb topdim.

Sentabr oyini oxirida mahallamizda barcha kommunal (suv, elektr energiyasi, gaz va issiq suv) to'lovlarni o'z muddatida to'lash bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda qarzdor bo'lgan oilalarning qarzdorligi ko'rsatilib tezroq to'lashlari so'raldi.

Uy boshqaruvchisi har bir xonadonda yashovchilarni qarzdorligini kamaytirish va kommunal tshlovga sarflanayotgan mablag'larni aytib o'tganda ikkita qo'shnini bir oyda kommunal to'lovlarga sarflanayotgan mablag'lariga e'tiborinni qaratdim.

Uyimizdagi 22 xonadonda turuvchi Samejon aka bir oyda kommunal to'lovlarga 186 ming so'm, xuddi shu uyning 34 xonadonida yashovchi Mirmuhsin akani ushbu kommunal to'lovlariga sarflagan puli 76 ming 500 so'mni tashkil etgan. Eng qizig'i Samejon akani ham oilasida 4 nafar, Mirmuhsin akani oilasida ham 4 nafar odam yashaydi.

Shunda, ushbu majlisda uy boshqaruvchisi buning sababini Mirmuhsin akadan so'raganda, u kishi yig'ilish ishtirokchilariga suv, gaz va elektr energiyasidan foydalanganda ularni darrov o'chirib qo'yishi yoki bir xonada o'tirib ishlayotganda ikkinchi xonani chirog'ini yondirmasligini, ertalab yuz qo'l va tishlarini yuvishda, soqol olishda suvni oqizib qo'ymasligi, choy qaynatgandan keyin albatta gazni o'chirib qo'yishi va bu odatni farzandlariga ham o'rgatgani to'g'risida aytib berdi.

Oradan 6 oy o'tdi. Uy boshqaruvchisi pod'ezd va xonadonlar holati bilan tanishish maqsadida aylanib yurgan ekan, shunda bir qiziqib uyimiz to'lovlari haqida gaplashib qoldik.

Bilasizmi qo'shni keyingi 6 oy ichida avvalgiga nisbatan uyimiz uchun kommunal to'lovlar 32 foizga kamaydi. Men ham ishonmagandim. O'sha yig'ilishimizda Mirmuhsin aka juda bir ta'sirli so'zlar bilan uyimizga istiqomat qiladiganlarga «Farzandlarimizni tejamkor bo'lishi uchun eng avvalo o'zimiz o'mak bo'lishimiz va keyin ularga tejamkorlikning oila byudjetiga qanchalik foydaligi va davlatimiz kelgusidagi rivoji uchun, biz tejab qolgan tabiiy boyliklardan boshqa



sohalarga foydasi tegishini» to'g'ri va aniq misollar bilan tushuntirganlari mana shuncha natijaga olib kelganligini aytdi.

Mana shu bo'lib o'tgan bir yig'ilishning natijasida birgina bizning uyimizda istiqomat qiladigan 144 xonadonda bir nechcha million so'm mablag' tejalishini inobatga olsak, farzandlarimizni tejamkorlikka o'rgatish natijasida O'zbekistonimizni iqtisodiga katta hissa qo'shilishini tasavvur qilish qiyin emas.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki ota-ona oilada har bir bolaga shaxs sifatida qarashi va unga o'zbekona urf-odatlar, qadriyatlar, ota-bobolarimizni tarbiyaga oid so'zlari, allomalarimizning qarashlari va hadis ilmi namoyandalarning o'g'itlarini o'rgatishi muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birgalikda oilada ota-ona farzandiga qadriyatlarga tayangan holda tarbiya berish bilan bir qatorda bolani bilim olishi, voyaga yetgunga qadar har sohada hayotiy tajribaga ega bo'lishi uchun o'zi o'rnak bo'lishi va unga barcha sharoitlarni yaratishi asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

Har bir oilada voyaga yetib ulg'ayayotgan farzandlarimizga yoshligidanoq ota-onalar, ikkinchi tomondan ta'lim muassasalari mutasaddilari tejamkorlik tarbiyasini kunlik vazifasiga aylantirsa, bu nafaqat oila byudjeti balkim davlatimizni har jabhada moddiy boyliklarning behuda sarflanishini oldini olinishiga katta xizmat qilgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrda "Umumiy ovqatlanish korxonalarida sodir bo'ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 589-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 490-son Qarori, <https://lex.uz/docs/5550539>.

3. X.Ibraimov, M.Quronov, J.Fozilov, F.Zaripov "Ota-ona murabbiy" Ota-onalar uchun uslubiy-metodik qo'llanma. G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi 2024 yil. O'O'K 37.018.11 KBK 74.90 O-86

4. Abdurasulova Q.R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi. <https://uz.denometr.com/docs/768/index-287574-1.html>

5. Avazova G. Yoshlarni asrash kelajakni asrash demakdir. Postda gazetasi. 2017-yil 21-oktabr. 43- son.

6. Axmedova L., Roziqova M. O'sib kelayotgan avlodga psixologik ta'sir etuvchi zamonaviy tahdid va xavf-xatarlar. /Uslubiy qo'llanma/ Toshkent-2019 yil.



TALABALARDA BOSHQARUV VA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILI – STARTUP LOYIHALARINI TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYALASH

N.X.ESHANKULOVA,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda Project-Based Learning (PBL) metodining nazariy-metodologik mohiyati tahlil qilinadi. PBL konstruktivistik va tajribaviy ta'lim nazariyalariga (J.Dewey, D.Kolb) asoslanib, o'quvchi faol ishtirokida real loyihalar orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv talabalarning innovatsion fikrlash, analitik tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: *Project-Based Learning, venture ekspertiza, autentik ta'lim, boshqaruv kompetensiyasi, innovatsion metodika.*

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы применения метода Project-Based Learning (PBL) в развитии управленческих компетенций студентов высших образовательных учреждений. Метод PBL опирается на конструктивистскую и опытно-ориентированную теории обучения (Д.Дьюи, Д.Колб) и предполагает формирование знаний и навыков через активное участие обучающихся в реальных проектах. Такое взаимодействие способствует развитию у студентов инновационного мышления, аналитических способностей и управленческих навыков принятия решений, обеспечивая связь обучения с реальными экономическими условиями.

Ключевые слова: *Project-Based Learning, венчурная экспертиза, аутентичное обучение, управленческие компетенции, инновационная педагогика.*

This article examines the theoretical and methodological foundations of Project-Based Learning (PBL) in developing management competencies among university students. Rooted in constructivist and experiential learning theories (J.Dewey, D.Kolb), PBL emphasizes the acquisition of knowledge and skills through active participation in real-world projects. Such integration enhances students' innovative thinking, analytical reasoning, and managerial decision-making abilities by exposing them to professional feedback and real economic contexts.

Key words: *Project-Based Learning, venture expertise, authentic learning, management competence, innovative pedagogy.*

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri bozor talabiga javob bera oladigan, ijodkor, tadbirkor va mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu bois oliy ta'lim tizimida innovatsion, amaliy va loyiha asosidagi o'qitish metodlariga e'tibor tobora kuchaymoqda. Vazifalarga asoslangan ta'lim o'quv vazifalari majmuasi yoki tizimi orqali o'rganishni qurishga



asoslangan bo‘lib, ularni hal qilish jarayoni ta‘lim subyektlarida ma‘lum shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

A.M.Novikovning so‘zlariga ko‘ra, «vazifalarga asoslangan ta‘lim – bu ta‘lim vazifalarini belgilash, ularni hal qilish yo‘llarini tanlash, olingan natijalarni tashxislash va baholashni bosqichma-bosqich tashkil etish» o‘quv jarayonida muayyan vaziyatlarni tahlil qilish usulidan foydalanish talabalarda kasbiy muammolarni hal qilish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni interaktiv ta‘lim elementlarini, muloqot treninglarini o‘z ichiga olishi lozim. Ular talabalarning mustaqilligi va tanqidiy fikrlashini, boshqaruv malakalarini rivojlantirishga, o‘quv materialini o‘rganishga va uni amalda qo‘llashga ijodiy yondoshishga qaratilgan bo‘ladi. Xususan, Project-Based Learning (PBL) metodi talabalarning o‘z bilimlarini real loyihalar orqali amaliyotda sinovdan o‘tkazish imkonini beradi (Thomas, 2000; Bell, 2010). So‘nggi yillarda PBLning «Startup-Based Learning» shakli, ya‘ni talabalar tomonidan yangi biznes g‘oyalarni ishlab chiqish, tahlil qilish va taqdim etish – iqtisod ta‘limi uchun samarali uslub sifatida keng qo‘llanilmoqda (Barak, 2020; Alamri, 2021).

Nazariy jihatdan «Startup»ga asoslangan o‘qitish konstruktivistik va autentik ta‘lim tamoyillariga asoslanadi (Dewey, 1938; Kolb, 1984). Ya‘ni o‘quv jarayonida bilim real hayotdagi muammolarni hal etish orqali shakllanadi. Venture sohasi mutaxassislarning jalb qilinishi bu yondashuvni autentik (ya‘ni haqiqiy tajribaga asoslangan) ta‘lim shakliga aylantiradi. Talabalar o‘rganish jarayonida – aniq tajriba – real biznes g‘oyalarni tahlil qiladi masalan, «Facebook»ning reklama modeli, «Google»ning monetizatsiya strategiyasi. Reflektiv kuzatishda esa, muvaffaqiyat sabablarini baholaydi bunda nazariy tushuncha shakllantirish ayniqsa muhim hisoblanadi chunki talabalarda – startuplar loyihalarining moliyaviy modelini tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantira olish muhimdir. Shu asosda talabalar amalda sinash, ya‘ni o‘z g‘oyasini startup loyihasi sifatida ishlab chiqadi. Bu jarayon Kolbning o‘quv sikliga mos bo‘lib, talabalarda boshqaruv, qaror qabul qilish va strategik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tajriba asosidagi o‘quv loyihasi (muallif tajribasi asosida) amalga oshirildi. Vazifaning 1-bosqichda Global startuplarni tahlil qilish asosida iqtisod yo‘nalitydagi 3-kurs talabalariga mashhur global startup loyihalarini o‘rganish topshirig‘i berildi. Har bir guruh «Facebook», «Google», «Amazon», «Tesla», «Airbnb», «Duolingo» kabi kompaniyalarning biznes modeli, moliyaviy ko‘rsatkichlari va



rivojlanish bosqichlarini tahliliy o'rgandi va dars jarayonida taqdimot shaklida guruhda bir birlariga ma'lumot berishdi.

Tahlil natijasida talabalar investitsiya oqimlarini tahlil qildilar, monetizatsiya strategiyalarini solishtirdilar, raqobat ustunliklari va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini o'rgandilar hamda guruhda tahliliy muhokama qildilar. Natijada, bu bosqichda talabalarning tahliliy fikrlash va strategik qarorlarni baholash ko'nikmalari shakllantirildi. Vazifaning 2-bosqichida esa, ilhomlangan talabalarga o'z biznes-startup loyihalarini ishlab chiqish taklifi berildi. Ya'ni har bir guruh o'z biznes g'oyasini yaratdi. Loyiha rejaları talabalar tomonidan biznes g'oya mohiyati, ya'ni innovatsionligi va foydalanuvchiga qiymati jihatidan, moliyaviy model ya'ni daromad manbalari, xarajat strukturalari, investitsiya zarurati hamda marketing strategiyasi va ijtimoiy va ekologik ta'siri mezonlarini hisobga olgan holda tayyorladilar. Talabalarga loyiha tayyorlash uchun 2 hafta muddat berildi. Bu vaqt mobaynida ular loyiha hujjatlarini tayyorlab, dizayn va moliyaviy prognozlar ishlab chiqdilar. Vazifaning 3-bosqichi «Startup pitching» – investorlar va hakamlar bahosi deb nomlanib talabalarning loyiha taqdimotlari «startup pitching sessiyasi» shaklida tashkil etildi. Talabalar ikki guruhga bo'lindi. Investorlar loyiha g'oyalarini baholovchi va savollar beruvchi talabalar. Tadbirkorlar, ya'ni taqdimotchi talabalar o'z start-uplarini himoya qiluvchi jamoalar sifatida.

Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi: loyiha g'oyasining innovatsionligi (30%), biznes modeli va rentabellik (25%), jamoaning tayyorgarligi va kommunikatsiya (25%), ijtimoiy ta'sir (10%), taqdimot sifati (10%).

Loyihalarni baholash davomida venture sohasi mutaxassisi (professional startup tahlilchisi) online ishtirok etdi. U har bir loyiha bilan tanishib, haqiqiy biznes nuqtayi nazaridan kamchiliklar va rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qildi. Natijada, talabalar real investor fikrini eshitib, o'z loyihalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ldilar. Ular venture kapital, risk, bozor bahosi kabi tushunchalarni amaliy misollar asosida anglab oldilar. Baholash madaniyati va o'zaro tahlil qilish kompetensiyasi shakllantirildi. Loyihalarni takomillashtirish jarayoni ancha chuqur refleksiyaga aylandi. Bu yondashuv talabalarni «ta'lim ishtirokchisi» emas, balki «haqiqiy biznes o'yinchisi» sifatida faol qatnashishga undadi. Eng yaxshi 5 ta loyiha o'qituvchi tomonidan mukofotlar bilan taqdirlandi. Bu mukofotlar talabalar motivatsiyasini kuchaytirdi va ularni raqobatbardosh fikrlashga undadi. Ushbu loyiha PBL va autentik ta'lim nazariyasiga mos keladi. Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy manbalar bilan uyg'unlikda tahlil qilinadi.



Manba	Asosiy natija
Lombardi (2007)	Autentik ta'lim real kontekstlarda o'rganish orqali yuqori motivatsiya va mustahkam bilim hosil qiladi
Barak & Doppelt (2020)	Startupga asoslangan PBL metodida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalari 40% ga o'sadi
Alamri (2021)	Blended-PBL modeli orqali talabalarda akademik ishonch va tashabbuskorlik sezilarli shakllanadi
OECD (2023)	"Real-world learning" yondashuvi XXI-asr kompetensiyalarini (kreativlik, hamkorlik, boshqaruv) rivojlantiradi

Bu loyiha asosida o'tkazilgan ta'lim jarayoni xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan ilhomlangan holda quyidagi ilmiy natijalarni amalda tasdiqladi: talabalar o'zlarini real biznes muhitida sinab ko'rishdi; qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, taqdimot qilish ko'nikmalari shakllandi; motivatsiya va ishtiyoq sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, «investorlar va hakamlar» mexanizmi orqali talabalar tahliliy fikrlash va tanqidiy savol berish malakalarini rivojlantirdilar. Shunday qilib ta'lim jarayonida Startupga asoslangan Project based learning metodikasi venture ekspertlar ishtirokida amalga oshirilganda, ta'lim jarayonini nafaqat qiziqarli, balki haqiqiy iqtisodiy amaliyotga integratsiyalangan shaklga aylantiradi va quyidagi natijalar e'tirof etiladi: talabalarda boshqaruv, strategik fikrlash va tadbirkorlik kompetensiyalari shakllandi; mutaxassislar ishtiroki ta'limning realistik va tahliliy darajasini oshirdi; baholash jarayonida tanqidiy fikrlash va professional refleksiya rivojlandi; talabalar o'z loyihalarini takomillashtirish uchun real biznes yondashuvlarini o'rgandilar.

Yuqorida keltirilgan loyiha asosida quyidagi tavsiyalar keltirilishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman: PBL asosidagi startup darslariga har semestrda kamida bir marta professional venture mutaxassislarni taklif etish, talabalarning yakuniy loyihalarini universitet biznes-inkubatsiya markazlariga integratsiya qilish, innovatsion fanlar doirasida «Startup Simulation» yoki «Entrepreneurship Lab» modullarini joriy etish. Bunday startup asosidagi PBL mashg'ulotlarini iqtisod, menejment va innovatsiya fanlariga muntazam kiritish, talabalarning loyihalarini universitet inkubatsiya markazlari orqali amaliyotga yo'naltirish, investorlarga taqdimot qilish ko'nikmalarini baholash rubrikalari ishlab chiqish; eng yaxshi startaplarni grant dasturlariga ulash orqali real biznes muhitiga tayyorlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni takidlash mumkinki, Project-Based Learning (PBL) metodi zamonaviy ta'lim jarayonida boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va metodologik jihatdan asoslangan samarali modeli



hisoblanadi. PBLning konstruktivistik (J.Dewey) va tajribaviy (D.Kolb) ta'lim nazariyalariga tayangan holda o'quv jarayonini loyihalash, talabalarda faol fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. PBL modeli ta'limni «bilimni o'zlashtirish»dan «bilimni yaratish va amaliyotda qo'llash» bosqichiga olib chiqadi. Ayniqsa, ta'lim jarayoniga soha ekspertlarini jalb etish orqali modelning autentik ta'lim muhiti xususiyati kuchayadi. Bu esa, talabalarga real iqtisodiy muhitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tajribasini beradi va ularning amaliy kompetensiyalarini chuqurlashtiradi. Nazariy jihatdan olganda, venture ekspertizaga asoslangan Project based learning metodi bu innovatsion ta'lim tizimi bo'lib, u boshqaruv, tadbirkorlik va liderlik ko'nikmalarining integratsiyalashgan shaklda rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur model talabalarning bilimini faqat nazariy emas, balki real bozor ehtiyojlariga mos holda shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, PBL metodining nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, u talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish, innovatsion fikrlashni shakllantirish va haqiqiy iqtisodiy sharoitda o'zini sinab ko'rish imkonini yaratish uchun samarali ilmiy-pedagogik yondashuvdir.

Adabiyotlar:

1. Alamri, M.M. (2021). Using blended project-based learning for students' behavioral intention to use and Academic achievement in higher education // Education Sciences, 11(5), 207.
2. Barak, M., Doppelt, Y. (2020). Integrating PBL and management skills in STEM education // Journal of Science education and technology, 29(4), 527-540.
3. Chemborisova, N.Sh., et al. (2019). Project-based learning as a tool for the formation and development of the entrepreneurial skills of students // Journal of Entrepreneurship education, 22(2).
4. Kolb, D.A. (1984). Experiential learning: experience as the source of learning and development. Englewood cliffs: Prentice hall.
5. OECD (2023). Future of education and skills 2030: OECD Learning compass. Paris: OECD Publishing.
6. Rezkilaturahmi, R., Retnawati, H., Setiawan, R. (2025). Empowering students' skills and motivation through project-based learning: a meta-analysis // International Journal of education, 18(2).
7. Thomas, J.W. (2000). A review of research on project-based learning. The Autodesk Foundation.



O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING TA'LIM OLISHI VA BU SOHADAGI MUAMMOLARNING INNOVATSION YECHIMLARI

F.Yu.ABDURAXIMOVA,

*Oila va genden ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim boshlig'i, p.f.n, professor*

Mazkur maqolada xotin-qizlarning bugungi kunda ta'limga to'liq va to'siqsiz qamrab olinishi jamiyatning barqaror taraqqiyoti, intellektual salohiyati va inson kapitalining rivojlanish darajasini belgilaydigan hal qiluvchi omillardan biri ekanligi, ta'lim insonning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikr va qaror qabul qilish, mehnat bozorida munosib o'rin egallash, zamonaviy kasb egasi bo'lish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish aniq misollar orqali keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kasb-hunar, shaxsiy salohiyat, bilim, jamiyat, barqaror taraqqiyot.

В статье подробно рассматривается тот факт, что полное и беспрепятственное включение женщин в сферу образования сегодня является одним из решающих факторов, определяющих устойчивое развитие общества, уровень интеллектуального потенциала и развитие человеческого капитала, а образование - это средство развития личностного потенциала человека, самостоятельного мышления и принятия решений, занятия достойного места на рынке труда, становления современного профессионала и формирования активной гражданской позиции на конкретных примерах.

Ключевые слова: образование, профессия, личностный потенциал, знания, общество, устойчивое развитие.

This article examines in detail the fact that the full and unimpeded inclusion of women in education today is one of the decisive factors determining the sustainable development of society, the level of intellectual potential, and the development of human capital. Education is a means of developing a person's personal potential, independent thinking and decision-making, securing a worthy place in the labor market, developing into a modern professional, and fostering active citizenship, using specific examples.

Key words: education, profession, personal potential, knowledge, society, sustainable development.

O'zbekistonda xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu borada tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash to'g'risida»gi Qonun (2019 yil) qabul qilinishi ta'lim sohasida ham tenglikni kafolatlashning huquqiy



asosini yaratdi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-martdagi PF-6194-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jamiyatda ularning o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan milliy dastur» doirasida ta'lim sohasida qator maqsadli vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, «2030 yilgacha gender tenglikni ta'minlash bo'yicha milliy strategiya» (2021 yil) ta'limga yetishishda jinsiy tenglikni ta'minlashni asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgiladi. O'z navbatida, «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun va «O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash strategiyasi» ham qizlarni ta'limga jalb qilish va ularning bilim olish huquqlarini kafolatlashga qaratilgan muhim asosiy hujjatlardir.

Ushbu me'yoriy-huquqiy asoslar ta'lim sohasida xotin-qizlar uchun qulay va teng imkoniyatlar yaratishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq, amaliyotda hali ham joylardagi ijtimoiy-mafkuraviy stereotiplar, infratuzilma muammolari, raqamli ta'lim imkoniyatlarining notengligi, iqtisodiy jihatdan ta'minlanmagan oilalardagi qizlarning ta'limdan chetda qolishi kabi muammolar mavjudligi ko'zga tashdanmoqda. Xususan, qishloq joylardagi qizlarning maktabdan so'ng ta'limni davom ettirish ko'rsatkichi shahar joylarga nisbatan past, ular orasida STEM sohalarida ta'lim olayotganlar soni kam, internet va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati cheklangan. Ta'lim mazmunida ayollarning ijobiy obrazlari yetarlicha aks ettirilmagani ham qizlarning faollikka bo'lgan ishonchiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha – 70-o'rinni egallamoqda. Bu esa ta'lim sohasida ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikning muayyan darajada ta'minlanganligini ko'rsatadi. Qizlarning maktabga va oliy ta'limga qamrab olinishida umumiy tenglikka yaqin ko'rsatkichlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, texnik va ilm-fanga yo'naltirilgan yo'nalishlarda ayollar ishtirokini kuchaytirish zarurligi saqlanib qolmoqda. Shuningdek, ta'lim mazmuni va usullarida ham gender sezgirlikning yetishmasligi, qizlarda o'z qobiliyatiga ishonchning yetarli emasligi va jamoaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kamligi ularni STEM sohalariga kira olmaslikka olib kelmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan qator choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Qishloq joylardagi qizlar uchun STEM sohalarida ta'lim olish infratuzilmasi va ijtimoiy muhit hali yetarli emas. Shunday ekan, xotin-qizlarning ta'limga, ayniqsa STEM sohalariga teng va to'liq kirishini ta'minlash – nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki milliy iqtisodiyot va innovatsion salohiyatni rivojlantirishning kafolatidir. Buning uchun ta'lim tizimida, jamiyat qarashlarida va davlat siyosatlarida gender sezgir yondashuv kuchaytirilishi zarur.

Zamonaviy dunyoda STEM (Science – fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Mathematics – matematika) sohaları har qanday



mamlakatning iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ayniqsa raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, ekologik innovatsiyalar va axborot xavfsizligi kabi sohalarida yetarli mutaxassislar bo‘lishi mamlakat kelajagi uchun muhim hisoblanadi. Ammo amalda xotin-qizlarning mazkur sohalarida yetarlicha ishtirok etmasligi jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bular quyidagilar hisoblanadi:

1. Ijtimoiy va madaniy stereotiplar. Aksariyat hollarda qiz bolalar STEM sohaları uchun mos emas, degan eski qarashlar hali ham jamiyatda mustahkam ildiz otgan. «Qizlarga matematika qiyin», «texnika erkaklarning ishi» kabi fikrlar ota-onalar, hatto o‘qituvchilar tomonidan ham singdiriladi. Bu esa qizlarda bu sohalariga nisbatan ishonchsizlik va qiziqishning susayishiga olib keladi.

2. Modellar va namunaviy shaxslar yetishmasligi. Qiz bolalar o‘zlarini muayyan sohalarida tasavvur qilishlari uchun o‘sha sohalaridagi muvaffaqiyatli ayollarning namunasi kerak. STEM sohalarida ayol yetakchilar, olimlar, muhandislar haqida ma‘lumotlar va media ko‘rsatmalar kam. Bu esa qizlarda «biz bu sohalarida bo‘la olmaymiz» degan ichki to‘siq paydo qiladi.

3. Ta‘lim tizimida gender sezgirlikning pastligi. Darsliklar, o‘quv materiallari va fanga yo‘naltiruvchi faoliyatlarda qizlarni STEM sohalariga jalb qilishga qaratilgan maxsus yondashuvlar kam. Aniq fanlar bo‘yicha qizlar uchun maxsus dasturlar, interaktiv o‘quv loyihalari, olimpiadalarda ishtirok etish imkoniyatlari hali ham cheklangan.

4. Raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatidagi nomutanosiblik. Qizlar, ayniqsa qishloq joylarda, kompyuter, planshet, smartfon va internet kabi raqamli vositalardan foydalanish imkoniga hamma qizlar ham ega emas. YuNISEFning 2021 yilgi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda qizlar internet va raqamli o‘quv platformalariga kirishda o‘g‘il bolalarga nisbatan 25% kamroq imkoniyatga ega. Bu esa ularni raqobatbardoshlikdan chetlatadi.

5. Kasb tanlashdagi an‘anaviy yondashuvlar. O‘zbekistonda STEM sohaları o‘rniga qizlar pedagogika, hamshiralik, tilshunoslik, buxgalteriya kabi «an‘anaviy» kasblarga yo‘naltiriladi. Ota-onalar va mahalliy jamoa ularni xavfsiz va oddiy soha deb bilishadi. Bu esa mehnat bozorida zamonaviy va yuqori maoshli sohalarida ayollar ulushining kamligiga olib keladi.

6. Ta‘limdan ishga o‘tishdagi to‘siqlar. STEM sohasini tanlagan qizlar o‘qishni tamomlagandan keyin ham ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu sohalarida ayollarga ishonchsizlik bilan qarash, kam imkoniyat berish holatlari bor. Natijada qizlar boshqa sohalariga o‘tib ketishi yoki ishsiz qolishi mumkin. Xotin-qizlarning STEM sohalarida to‘liq va barqaror ishtirokini ta‘minlamasdan turib, jamiyatda tenglik, innovatsiyaviy rivojlanish va raqobatbardosh iqtisodiyotga erishish mushkul. Bu sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar zarur:



– Ota-onalar, o‘qituvchilar va jamoatchilik orasida gender stereotiplarni yo‘q qilishga qaratilgan targ‘ibot;

– Qizlar uchun STEM sohalarida maxsus motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash dasturlari;

– Raqamli texnologiyalarga kirishni barcha hududlarda tenglashtirish;

– Darslik va media mahsulotlarda ayol mutaxassislar obrazini keng yoritish;

– Ta‘limdan ish bozorigacha bo‘lgan yo‘nalishda ayollar uchun imkoniyatlarni oshirish.

– Ta‘lim tizimi bo‘yicha keltirilgan ma‘lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, o‘ziga xos muammo va kamchiliklarni ham izohlash o‘rinlidir. Masalan:

Maktabdan so‘ng ta‘limni davom ettirish darajasi past, ya‘ni O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta‘lim qamrovi so‘nggi yillarda ancha yaxshilandi – 11-sinf gacha bo‘lgan qizlar qamrovi 98% dan yuqori ekani kuzatilmoqda. Biroq, maktabdan keyingi ta‘lim bosqichiga o‘tishda – ya‘ni kasb-hunar ta‘limi yoki oliy ta‘limga kirishda – sezilarli qiyinchiliklar va pasayish mavjud. Raqamlar orqali dalillar bilan keltirganda, umumiy o‘tish darajasi – 70%. UNICEF (2023) va BMTning Boshqa manbalarining baholashicha, 11-sinfni bitirganlardan taxminan 70% o‘qishni kasb-hunar yoki oliy ta‘lim shaklida davom ettiradi. Demak, 30% bitiruvchi o‘qishni davom ettirmaydi, ularning aksariyati – qishloqdagi yoki ijtimoiy himoyasiz qizlar.

Qizlar oliy ta‘limga kirishda yetarlicha qatnashmayapti, ya‘ni 2024/25 o‘quv yili ma‘lumotiga ko‘ra, 18-23 yoshdagi qizlar orasida oliy ta‘limda qatnashish darajasi 47,7% ni tashkil qilgan. Bu degani, qariyb yarmi hali ham ta‘limdan tashqarida qolmoqda. Abiturient va qabul qilinganlar orasidagi farq ya‘ni 2024 yilda abiturientlar orasida qizlar ulushi 55,8% ni tashkil qilsa-da, talabalikka tavsiya etilganlar orasida bu ko‘rsatkich 48% gacha tushadi. Ya‘ni, hujjat topshirgan har ikki qizdan bittasi qabul qilinmayapti.

Nega maktabdan so‘ng ta‘lim davom ettirilmayapti? Bu boradagi muammolar, ya‘ni birinchidan: iqtisodiy sabablar: Qizlar o‘qish o‘rniga oilaviy majburiyatlarga jalb qilinadi. Kam ta‘minlangan oilalar ta‘lim uchun mablag‘ sarflashga tayyor emas. Ikkinchidan: Ijtimoiy qarashlar va an‘analari, ya‘ni ayrim ota-onalar qizlar uchun «o‘rtacha ma‘lumot yetarli» deb hisoblaydi. Erta turmushga chiqish holati hali ham barham topmagan. Uchinchidan: Qishloq va shahar o‘rtasidagi imkoniyat tafovuti, ya‘ni qishloqda joylashgan qizlar uchun yaqin orada OTM yoki kasb-hunar markazi yo‘qligi bo‘lsa, internet, kutubxona, repetitorlik xizmatlaridan foydalanish cheklanganligi. To‘rtinchidan: Psixologik to‘siqlar, ya‘ni qizlar o‘zlarida yetarli salohiyat borligiga ishonmaydi. Ta‘limga bo‘lgan ishonch, motivatsiya, liderlikni shakllantirish mexanizmlari sust.

Maktabdan so‘ng ta‘limni davom ettirish darajasi – umumiy 70% bo‘lsa-da,



qizlar orasida bu ko'rsatkich barqaror ravishda past bo'lib qolmoqda. Bu, ta'lim tizimidagi nomutanosiblik, iqtisodiy va ijtimoiy to'siqlar, qishloq hududlarda infratuzilmaning yetishmasligi bilan bog'liq. Ushbu muammo kelgusi avlod ayollarining salohiyati, mehnat bozorida ishtiroki va jamiyat rivojiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi omildir. Bu – qizlar o'rtasida ta'limni yuqori bosqichda davom ettirish imkoniyati yetarli emasligidan dalolat beradi.

Ta'limga kirish imkoniyatlari hali ham geografik joylashuv, ijtimoiy muhit, infratuzilma va madaniy an'analar ta'sirida turlicha shakllanmoqda. YuNISEF, va mahalliy NNTlar tomonidan so'nggi yillarda olib borilgan kuzatuvlar shunga ishora qiladiki, ayrim viloyatlar va hududlarda 16-19 yoshli qizlarning ta'limga qamrovi past darajada saqlanib qolmoqda. Jumladan: Farg'ona vodiysida – aholi zich joylashgan, ta'lim muassasalariga talab yuqori, ammo joy yetishmasligi, raqobat kuchliligi sababli ko'plab qizlar o'qishdan tashqarida qolmoqda. Qashqadaryo va Surxondaryo – demografik o'sish yuqori, lekin infratuzilma sust, ayniqsa qishloq va tog'li hududlardagi maktablar zamonaviy talablarga to'la javob bermaydi. Jizzax va Navoiy viloyatlarida – masofa, transport, uch smenali ta'lim va ta'lim resurslarining yetishmasligi o'qishga qiziqishni pasaytiradi.

Ilg'or mexanizmlar va tavsiya etilgan yondashuvlar quyidagilardan iborat:

– Motivatsion ta'lim muhitini yaratish. Qiz bolalarni ta'limga jalb qilish uchun, maktablarda «Ilmli qizlar», «Fan ayollari», «Olim bo'lish orzusi» kabi motivatsion to'garaklar tashkil etish, fan va texnologiya sohalarida muvaffaqiyat qozongan mahalliy va xalqaro ayollarning yutuqlarini targ'ib etish zarur. Respublikaning barcha hududlarida qizlar uchun yillik motivatsion konferensiyalar, olimpiadalar va mahoratini namoyon etish maydonlarini tashkil qilish orqali ularda ilmiy faollikni rag'batlantirish mumkin.

– STEM sohalarida qizlar ishtirokini kengaytirish. Aniq fanlar (matematika, fizika, kimyo, informatika) bo'yicha qizlarga mo'ljallangan interaktiv kurslar, STEM laboratoriyalari, virtual simulyatorlar va ilmiy amaliyotlarni joriy etish ta'limni qiziqarli va hayotga yaqinlashtiradi. Muallimlar uchun gender sezgir ta'lim metodlarini joriy etish va qiz bolalar bilan ishlashning zamonaviy usullarini o'rgatish maqsadida maxsus kurslar tashkil etish lozim.

– Ota-onalar va jamiyatdagi munosabatni o'zgartirish. Qizlar ta'limiga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabat shakllantirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, teatr va ijtimoiy tarmoqlar orqali «qiz ta'limi – millat kelajagi» shiorida keng ma'rifiy kampaniyalar o'tkazish lozim. Mahalla, oila va maktab o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yib, qiz bolalarning ta'limini nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish zarur.

– Maktabgacha ta'limda qizlar salohiyatini rivojlantirish. Qiz bolalarda ijtimoiy, kognitiv va lingvistik salohiyatni ilk yoshdan rivojlantirish uchun interaktiv



metodika, gender tenglikka asoslangan o'quv dasturlari, emotsional intellekt va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiruvchi mashg'ulotlarni joriy etish zarur. Maktabgacha ta'lim muassasalarida STEM elementlarini joriy qilish orqali qizlarda ilmiy-amaliy qiziqishni 5-6 yoshdan boshlab shakllantirish mumkin.

Oliy ta'lim ham ayollarni jamiyatda yetakchi sifatida shakllanishida asosiy omil hisoblanadi, faqat oila doirasida emas, balki mahalla, ish joyi, fuqarolik jamiyati, hatto siyosiy maydonda faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, oliy ta'lim ayollarni iqtisodiy resurslarga yetish, o'z biznesini boshlash, innovatsion g'oyalarni ro'yobga chiqarish, ilmiy izlanish olib borish va yetakchilik lavozimlariga tayyorlash kabi barcha imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Bu esa nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki umumiy jamiyat farovonligi uchun ham salmoqli hissa bo'ladi. U huquqiy ongni oshiradi, shaxsiy qadriyatni mustahkamlaydi, ayollarning ovozi va ishtiroki uchun platforma yaratadi. Ta'limsizlik – ayollar faolligining eng katta to'sig'i ekan, ta'limli ayol – barcha sohada taraqqiyot dvigateli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida» 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
3. Sh.Mirziyoyev. «Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi». -T.: «O'zbekiston» NMIU, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni.
6. Ijtimoiy tarmoqlar.



O'RTA OSIYO MUSIQA MADANIYATI: ILK RENESSANS DAVRIDA IJROCHILIK SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJI

S.B.KARIMOV,

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
Musiqqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi*

Ushbu maqolada O'rtasiyoda VIII-XII asrlarda musiqqa madaniyatining shakllanish jarayoni, buyuk sharq allomalari va musiqashunos olimlarning ilmiy merosi, qadimiy cholg'u asboblari hamda ijrochilik san'atining rivoji tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqom, dastgoh, navba kabi an'anaviy musiqiy shakllar va ularning xalq ijrochiligi bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *O'rtasiyo, Sharq uyg'onishi, musiqqa tarixi, ijrochilik, Forobiy, Ibn Sino, maqom, cholg'u asboblari, an'anaviy musiqqa, dastgoh tizimi, og'zaki musiqiy meros, musiqashunoslik tarixi, qadimiy manbalar, musiqqa va madaniyat.*

В статье анализируется процесс формирования музыкальной культуры в Центральной Азии в VIII-XII веках, научное наследие великих восточных учёных и музыковедов, развитие древних музыкальных инструментов и исполнительского искусства. Также анализируются традиционные музыкальные формы, такие как маком, пакхал, навба, и их связь с народным исполнительством.

Ключевые слова: *Центральная Азия, Восточное Возрождение, история музыки, исполнительство, Аль-Фараби, Ибн Сина, маком, музыкальные инструменты, традиционная музыка, машинная система, устное музыкальное наследие, история музыковедения, древние источники, музыка и культура.*

This article analyzes the process of formation of musical culture in Central Asia in the 8th-12th centuries, the scientific heritage of great oriental scholars and musicologists, the development of ancient musical instruments and performing arts. At the same time, traditional musical forms such as maqom, pakkhal, navba and their connection with folk performance are analyzed.

Key words: *Central Asia, Eastern Renaissance, history of music, performance, Al-Farabi, Ibn Sina, maqom, musical instruments, traditional music, machine system, oral musical heritage, history of musicology, ancient sources, music and culture.*

VIII-IX asrlarda O'rtasiyoda quldorlik tuzumining inqirozi va yangi ijtimoiy-siyosiy tizimning shakllanishi Sharq uyg'onishi (Renessans) uchun ilmiy va madaniy zamin yaratdi. Bu davrda ilm-fan, falsafa, san'at va musiqqa sohalari yangi pog'onaga ko'tarildi. Musiqqa madaniyati Sharq uyg'onish tafakkuri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ilmiy musiqashunoslikning rivojlanishiga asos bo'ldi.

O'rtasiyo musiqqa madaniyati tarixida ikki asosiy yo'nalish ajralib turadi:



birinchisi, an'anaviy xalq musiqasi (maqom, dastgoh, navba), ikkinchisi, ilmiy musiqashunoslik va nazariy tafakkur (Forobiy, Ibn Sino). Ushbu ikki yo'nalish o'zaro uyg'unlashib, Sharq uyg'onishining musiqa sohasidagi yuksak natijalarini yaratdi.

Qadimiy cholg'u asboblari va ijrochilik san'ati

O'rta Osiyoda musiqa san'atining ildizlari qadimiy arxeologik topilmalar orqali tasdiqlanadi. Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro vohalarida topilgan dutor, nay, sunray, qanun kabi cholg'u asboblari, shuningdek toshlarga o'yib bitilgan musiqachilar tasvirlari, miniatyuralar va saroy bazmlaridagi sahnalar ijrochilik san'ati qadimiyligining isboti hisoblanadi.

Cholg'u asboblarning o'ziga xosligi va ularning ishlatilish usullari musiqa-ning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Masalan, dutor va tanbur xalq musiqasining melodik asosini, nay esa ohang va ritmni boyitgan. Shu bilan birga, sunray va qanun kabi asboblarni ilmiy musiqashunoslikning shakllanishida matnli va nazariy jihatdan asos bo'lgan.

Og'zaki an'anaviy musiqaning shakllanishi xalqning ijtimoiy va madaniy hayoti bilan bog'liq bo'lgan. Maqom, dastgoh, navba, raga va kyu kabi turkumlar asrlar davomida avloddan-avlodga og'zaki tarzda yetib kelgan. Xalq baxshilari ijrochiligida ushbu musiqiy shakllar milliy xotira, tarixiy voqealarni va diniy-ritual tajribalarni musiqiy til orqali ifodalash vositasi bo'lgan.

Sharq allomalarining musiqiy nazariy qarashlari

